



Profi
University

June 2025

Volume 1, Issue 1

PULSE

Scientific Journal





PULSE

Scientific Journal

June 2025

Volume 1, Issue 1



***Assalomu alaykum!
“PULSE” ilmiy-amaliy jurnalining
aziz mushtariylari va mualliflari!***

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish bиринчи галдаги vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Bugun taraqqiyotning har bir ko'rinishi, innovatsion yondashuvlarning amaliyatga tatbiq etilishi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zamirida zamonaviy ta'lim hamda chuqur ilmiy izlanishlar yotibdi. Shu boisdan ham hozirgi zamon ilmdan quvvat olmoqda, jamiyat esa aynan ilmiy fikr hamda innovatsion g'oyalar asosida yuksalmoqda.

Shu ma'noda, bugun biz Profi University tashabbusi bilan ilmiy tafakkur, izlanish va taraqqiyotning navbatdagi sahifasini ochayotganimizdan mammunmiz. Siz azizlarga taqdim etilayotgan “PULSE” ilmiy jurnali – bizning ilmiy sohadagi sa'y-harakatlarimiz, zamonaviy bilimlar makoniga munosib hissa qo'shish yo'lidagi kichik qadam bo'lib xizmat qiladi.

“PULSE” atamasi – “Profi University: Language (or Law), Science, Education” degan kengaytmaga ega bo'lib, nafaqat jurnal nomini, balki uning g'oyaviy mazmunini ham o'zida mujassam etadi. Ushbu nashr pedagogika, psixologiya, filologiya, falsafa, tibbiyot, axborot texnologiyalari, huquqshunoslik, iqtisodiyot va boshqa ustuvor ilmiy yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ommaga taqdim etish, zamonaviy, ilmiy yondashuvlar va xorij tajribasini bo'lishish, shuningdek, yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.




Jurnalimizning asosiy vazifasi – ilmiy izlanuvchilar uchun maydon yaratish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish, oliygochlар va ilmiy-tadqiqot muassasalari salohiyatini yanada yuksaltirish, shuningdek, mamlakatimizda va xalqaro miqyosda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnologik o'zgarishlarni chuqur tahlil etgan holda, ularni xalqimiz, ilmiy hamjamiyat va amaliyotchilar e'tiboriga yetkazishdan

iborat. Shuningdek, "PULSE" jurnalida ta'lim, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya, bank-moliya tizimi singari sohalarning zamonaviy muammolari va yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-publisistik maqolalar hamda yetuk olimlar va amaliyotchilar fikrlari chop etib boriladi. Shu o'rinda, Profi University nomidan jurnal mualliflariga, ilmiy jamoatchilik vakillariga chuqur minnatdorchilik bildiraman. "PULSE" siz aziz mualliflar, olimlar, tadqiqotchilar, doktorant va magistrantlarning ishonchli hamrohi bo'lishiga, ilmiy qarashlaringizni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim maydonga aylanishiga ishonamiz.

Bugun ilmga tayanmagan jamiyat ertangi kunga dadil qadam qo'ya olmaydi. Ilmiy fikr va izlanishlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy mezoniga aylanmoqda. Shu boisdan ham, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, "inson – jamiyat – davlat" manfaatlariga xizmat qiladigan har qanday qaror va tashabbuslar negizida chuqur ilmiy tahlillar yotmog'i zarur. "PULSE" jurnalni esa ana shunday ilmiy qarashlar va tajribalarni keng jamoatchilikka yetkazishda, ularni amaliyotga tatbiq etishda ishonchli minbar bo'lishini maqsad qilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda siz aziz mualliflar, olimlar, tadqiqotchilar, doktorant va magistrantlarning faol ishtirokisiz bu ezgu maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu o'rinda barchangizni "PULSE" jurnalining mazmunini boyitishda, uning ilmiy obro'sini yuksaltirishda faol hamkorlikka chorlaymiz. Keling, birgalikda ilmga, taraqqiyotga xizmat qilaylik!

Hurmat bilan,
Shoumarov G'ayrat Baxromovich
Tahririyat kengashi raisi
Profi University rektori
Psixologiya fanlari doktori,
akademik



PULSE jurnali tahririyat kengashi a'zolari

Tahririyat kengashi raisi

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Profi University rektori
Psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir

Obiddin Abbosovich Mahmudov

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Bosh muharrir o'rribbosari

Narziqulov Zabardast Ahmedovich

Profi University xalqaro aloqlar bo'yicha prorektor

Bosh muharrir o'rribbosari

Po'latov Ulug'bek Shavkat o'g'li

Profi University pedagogik masalalar bo'yicha rektor maslahatchisi

Mas'ul kotib

Xolmatova Dildora Baxromovna

Profi University ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassis

Kengash a'zolari

Xatamov Bektosh Begmatovich

Profi University ta'sischisi

Hoshimov Nodir Ergashovich

Profi University bosh direktori

Filipov Olgerd Aleksandrovich

Profi University Navoiy filiali rektori
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Shoumarova Zilola Abdushukurovna

Profi University o'quv ishlari bo'yicha prorektor
(dotsent)

Karimova Gavhar Qudratullayevna

Profi University ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
prorektor (dotsent)

Farfiyeva Kamola Adhamjanovna

Profi University Pedagogika va psixologiya
kafedrasi professori

Dolimova Nilufar Melibayevna

Profi University Pedagogika va psixologiya
kafedrasi professori

Rahmanova Dilara Rustamovna

Profi University Pedagogika va psixologiya
kafedrasi v.v.b. dotsenti (PhD)

Korobeynikov Igor Aleksandrovich

Rossiya Federatsiyasi "Korreksion pedagogika
instituti" ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rribbosari
Psixologiya fanlari doktori, professor

Kuznetsova Lyudmila Veniaminovna

Rossiya Fanlar Akademiyasi gumanitar fanlar universiteti professori
Psixologiya fanlari nomzodi

Slepovich Yelena Samoylovna

Belorus Respublikasi psixologiya fanlari doktori, professor

Kiselyov Vladimir Nikolayevich

Rossiya Prezidenti huzuridagi davlat xizmatlari akademiyasi professori
Pedagogika fanlari doktori, professor

Bahranov Laziz Erkinovich

Profi University Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasи v.v.b. dotsenti (PhD)

Qodirov Umarali Do'stqobilovich

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri
Psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyomiddin Normirzayevich

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni raisi
Falsafa fanlari doktori, professor

Bekmurodov Mansur

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi

akademiyasi kafedra mudiri
Sotsiologiya fanlari doktori, professor

Baratov Sharif Ramazonovich

Buxoro xalqaro universiteti rektori
Psixologiya fanlari doktori, professor
Psixologiya fanlari xalqaro akademiyasi akademigi

Musurmonova Oynisa

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari
Pedagogika fanlari doktori, professor

Zohidov Erkin Agzamovich

Oliy Majlis Fan, ta'llim, madaniyat va sport qo'mitasi raisi
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Toshmuhamedova Dilorom G'ofurjonova

O'zbekiston Respublikasi Senatining yoshlar, fan va ta'llim qo'mitasi raisi o'rinnbosari
Tibbiyot fanlari nomzodi, sotsiologiya fanlari doktori

To'xtanazarov Xurshidbek Shavkatbekovich

"Profi School" xususiy maktabi direktori

Rahmatov Laziz Xasanovich

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA

YOSHLAR VA MA'NAVIYAT

- 13** YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIGINI
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aynisa Musurmanova

- 20** YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Utepbergenov Marat Allanazarovich

- 22** YOSHLAR DUNYOQARASHINING RIVOJLANISHIDA GENDER
TENGLIGINING AHAMIYATI

Baxtiyor Jalilov Xidayevich

XORIJ TAJRIBASI

- 26** XORIJLIK TALABALARINI O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIGA
MOSLASHUVINING HISSIY-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Saidov Azamat Ismoilovich, Axmedov Anvar Diyor o'g'li

- 29** BITIRUVCHILARNING BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING XORIJIY
AMALIYOTLARINI TAHLILI

Xalikov Timur Tulkinovich

- 33** ORGANIZATIONAL CREATIVITY AS A FACTOR OF CREATIVITY
DEVELOPMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Jadranka Kosović, Lazar Dražeta

40

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE IMPLEMENTATION OF THE “TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL COMPETENCIES OF INDIVIDUAL COMPETITIVENESS IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE ACTIVITY” IN THE FIELD OF TRAINING AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PERSONNEL, USING DIAGNOSTIC, CORRECTIONAL, DIGITAL AND STEM METHODS

Chudakova Vira

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

51

OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL VA DUAL TA'LIMNI QO'LLANILISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Madiyor Palvannazirovich Masharipov

55

LIFELONG LEARNING – HAYOT DAVOMIDA TA'LIM PARADIGMASI KONTEKSTIDA SHAXSNING KASBIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Mohira Kundibayevna Xalikova

61

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ ПРАКТИКУ

Филиппов Ольгерд Александрович

66

INFOGRAFIK KONTENTLAR YARATISHNI O'RGATUVCHI PLATFORMALAR ISHLAB CHIQISHDA INFOGRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH

Anvarjon Abdujabborovich Maxkamov

IQTISODIYOT FANLARI

73

MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA ROLI

Meliyev Vohidjon Pulatovich

77

**BIRGALIKDAGI FAOLIYAT HISOBI VA UNING SAMARADORLIGINI
BAHOLASH METODOLOGIYASI**

Yakubov Ulugbek Kosimovich

PEDAGOGIKA FANLARI

82

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHGA INNOVATION YONDASHUV

X.I. Ibraimov

85

TA'LIM VA ILM-FAN SOHALARIDA XOTIN-QIZLAR ROLI

N.M. Egamberdiyeva

89

**MAKTAB VA OILA HAMKORLIGNING SAMARADORLIK MEZONLARI VA
KO'RSATKICHLARI**

N.M. Dalimova

93

**BOLALARNING SIFATLI TA'LIM OLİSHIDA
OTA-ONALAR ROLI**

Ulug'bek Po'latov Shavkat o'g'li

100

**MATEMATIKA FANIDA O'QUVCHILAR BILIMI VA KO'NIKMALARINI
BAHOLASHNING YANGI USULLARI VA VOSITALARI**

Nurimbetova Gulbaxt Elevsinovna

103

**РОЛЬ КОНСТРУКТИВНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ
ЛОГИЧЕСКОГО И АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ**

Махмудова Ойбарчин Ахатовна, Махмудова Севара Асатилла кизи

PSIXOLOGIYA FANLARI

114

NOTO'LIQ OILADA BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Shaumarova Zilola Abdushukurovna

117

O'SMIRLARDA KOMPYUTER O'YINLARIGA TOBELIK BILAN SHAXSLILIK
VA EMOSIONAL XUSUSIYATLAR ORASIDAGI ALOQADORLIK

N.M.Dalimova

FALSAFA FANLARI

122

SUN'IY INTELLEKTNING INSON AXLOQIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

Lazizjon Baxranov, Barno Ilyasova, Azamat Erkinov

Yoshlar va ma'naviyat

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aynisa Musurmanova¹

ANNOTASIYA.

Ushbu maqolada ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishning mazmuni, yo'nalishlari, pedagogik shart-sharoitlari, omillari, bosqichlari, indikatorlari ilmiy-nazariy jihatdan talqin etiladi, xulosa va tavsiyalar olg'a suriladi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy faollik, ijtimoiy muhit, mikromuhit, makromuhit, ijtimoiy-pedagogik omil, ilmiy-ma'rifiy shart-sharoit, mafkuraviy immunitet, an'anaviy hamda innovation shakl, metod va vositalar, fuqarolik pozisiyasi, olima va oqila qizlar, qobiliyat va intellektual salohiyat bosqichlari, ijtimoiy-kommunikasiya jarayoni.

1. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinosi, Respublika "Oqila ayollar" harakati yetakchisi, p.f.d., professor

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida globallashuv jarayoni ta’lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy onggi va madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini boyitish, jamiyat taraqqiyotidagi faolligini ta’minlash, mamlakatimiz ta’lim tizimi va xorijda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va boshqa masalalarda qo’llab-quvvatlash maqsadida muhim tizimlar yaratildi.

“Sen – qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O‘zbekiston” shiori ostida mustaqillikning 29 yillagini nishonlash arafasida 2020-yil 30-iyundagi Prezident Farmoniga binoan tashkil etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti, yoshlarni masalalari bo‘yicha idoralararo kengash, mahallarlarda yaratilgan maxsus tizim va boshqa nufuzli organlarning tashkil etilishi yosh qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olg‘a surilgan “2017/2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta’kidlanganidek: “*Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish*”[1.4/5] mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Chunki, globallashuv, integrasiya jarayonida barcha sohalardagi shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot bo‘lajak yosh oilalarning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Shu bois, yoshlarning iqtidori, iste’dodi, qobiliyati, intellektual salohiyati, kreativ va sog‘lom tafakkurini jamiyat talablariga mos rivojlantirishdan davlat va jamiyat manfaatdordir.

Darhaqiqat, “Ijtimoiy faollikning o‘zi nima? Nima sababdan bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga davlat ta’lim siyosati

darajasida qaralmoqda?”.

Lug‘atlarda izohlanishicha “Ijtimoiy faollik-ijtimoiy sub‘yektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘ylgan huquq va burchclarini to‘liq amalga oshirishga intilishi” demakdir. Shuningdek, ”ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishniing asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya esa-tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq ma’naviy ta’sirni ifoda etadigan tarbiya”dir. [5.187-188].

Bizning nazarimizda ijtimoiy faollik-shaxsning jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, yaratuvchanlik hamda insonparvarlik siyosati mazmun va mohiyatini ongli ravishda bilishi hamda unga kreativ yondoshuv asosida amal qilishi demakdir. Ijtimoiy tarbiya esa-shaxsning mavjud intellektual salohiyatini ijtimoiy-siyosiy ongi va tafakkurining mahsuli sifatida jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar etishga tayyorlash demakdir (Mualliflik yondoshuvi).

Ijtimoiy faollik natijasi shaxs ongi va tafakkuri mahsuli sifatida amaliy faoliyatda o‘zini namoyon etadi. ijtimoiy faolligi demokratik fuqarolik jamiyatni barpo etishning negizi hamda mamlakatimizni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishlarida muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda ta’lim tizimida yoshlarni jahon standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassis kadrlar bo‘lib yetishishlari bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash davlat ta’lim siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylangan.

Tadqiqot ishlari natijasi tahlillari shundan dalolat beradiki, bo‘lajak yosh kelin va kuyovlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy mexanizlari, uning tarkibiy komponentlari, manbalari, shart-sharoitlari, mazmuni va samarali shakl va metodlari globallashuv sharoiti talablari asosida yetarlicha tasnif etilmagan. Shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllanganligini belgilovchi ijtimoiy-pedagogik indikatorlari ishlab chiqilmagan.

Bizning ilmiy xulosalarimizga ko‘ra bo‘lajak yosh oila a’zolarining ijtimoiy faolligini oshirishda to‘rtta ustuvor yo‘nalishlarga e’tiborni

ko'chaytirish lozim:

- bo'lajak yosh oila a'zolarining globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faoliyk indikatorlarini shakllantirish;
- umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik asosida zamonaviy keng dunyoqarash va bag'rikenglikni rivojlantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya negizida yosh yigit va qizlarda milliy qadriyatlar vositasida mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish;
- jamiyat taraqqiyotida har bir shaxs o'z intellektual salohiyati, ijodkorligi, tashabbuskorligi va tadbirkorligini kreativ tafakkur mezonlari asosida namoyon etish zamirida fuqarolik pozisiyasini amaliy hayotda namoyon etishini takomillashtirishdan iboratdir.

Mazkur yo'nalishlar asosida yosh yigit va qizlarda milliy qadriyatlar vositasida mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirishda ularning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyating bir qancha indikatorlari mavjud bo'lib, ularni quyidagi mazmunda taklif etish mumkin:

- mamlakatimizda yoshlarga, xotin-qizlarga oid oila farovonligini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatining g'oyaviy-siyosiy mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan anglab yetish va unga faoliyati jarayonida metodologik asos sifatida amal qilish;
- yigit va qizlarning mustahkam oila borasidagi o'z huquq va burchlarini mukammal bilishlari va ularga og'ishmay amal qilishlari;
- jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlar va ularning mazmun va mohiyatidan xabardorlik;
- jamoa va jamiyat manfaatlarini o'z manfaatidan yuqori qo'yish;
- vatan, xalq, millat ravnaqi yo'lida butun kuch, bilim va imkoniyatlarini safarbar etish;
- ijodkorlik, tashabbuskorlik hamda o'z faoliyatining har bir turiga kreativ tafakkur bilan yondoshish (ta'lim olish, kasb- hunarga ega bo'lish, ijtimoiy foydali mehnat) malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z qobiliyati va intellektual salohiyatini oilasi, mahallasi, maktab yoki oliy ta'lim

- muassasi jamoasi manfaatlari yo'lida saxiylik bilan namoyon etish;
- atrof-muhitda bo'layotgan vaqyeahodisalarga sezgirlik va ogohlilik bilan munosabatda bo'lish;
- milliy mintalitetimizga xos diantologik qoidalar, mezonlarga og'ishmay amal qilish;
- mafkuraviy immunitet orqali **turli yot** mafkuraviy oqimlar, g'oyalarga nisbatan murosasizlikni o'z amaliy faoliyatida namoyon etish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtiromni nazariy va amaliy jihatdan isbotlash;
- bo'sh vaqtlarini iqtidorlari, intilishlari, qiziqishlari, qobiliyatlari bo'yicha maqsadli, ijtimoiy foydali tashkil etish;
- sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirish, turli illatlarga nisbatan murosasiz bo'lish;
- globallashuv jarayoni talablaridan kelib chiqqan holda tolerantlik tafakkuri asosida turli millat vakillari, ularning milliy an'analari, tili, dini, madaniyati, san'atiga nisbatan hurmat va ehtiromini ko'rsatish;
- shaxsiy refleksiya talablariga rioya etgan holda o'z faoliyatini doimiy nazaratda ushlay olish, vaqtadan to'g'ri foydalanish, natijani oldindan ko'ra bilish qobiliyatini namoyon etish.

Albatta bo'lajak yosh oila a'zolarining ijtimoiy faolligini belgilab beradigan mazkur indikatorlarning hayotiyligi, zamonaviyligi, ilmiy va metodik jihatdan asoslanganligi muhim rol o'ynaydi.

Yosh yigit va qizlarnioilaviy hayotga tayyorlashda ularning faolligini shakllantirish hamda natijasini ijtimoiy-pedagogik jihatdan baholash murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun avvalo "Bo'lajak mutaxassislarda ijtimoiy faoliyk qanday mexanizm asosida shakllantiriladi?" -degan savolga javob topish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda biz tadqiqotlar natijalari asosida besh bosqichdan iborat mexanizmni tavsiya etamiz.

Birinchi bosqich: birinchi qadam qo'ygan bolalar (bog'cha nazarda utiladi), bo'lajak mutaxassislarni maxsus dastur asosida ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy psixologik tashxislash ishlari amalga oshiriladi. Mazkur dasturning

asosiy maqsadi balog'at yoshidagi yigit va qizlarning ijtimoiy ongi va tafakkurini, qiziqish va qobiliyatini, oilasining ijtimoiy turmush tarzi va uni jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy turmushda bo'layotgan voqyea va hodisalarga nisbatan munosabatini, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini aniqlash va shu asosida ta'lism-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish modelini ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu dasturda yosh yigit va qizlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, etnik holati, turar joyining geografik joylashishi, millati, oilaviy qadriyatlari ya'ni an'analari, urf-odatlari, rasm-rusmlari, sog'lom turmush tarzi, ta'lism oladigan va turmush kechiradigan ijtimoiy muhit, demografik vaziyat, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti va boshqalar haqida ma'lumot olish nazarda tutiladi. Shuningdek, ushbu bosqichda yosh yigit va qizlarning **har tomonlama** rivojlanishi va shakllanishida ijtimoiy hayot, etnik hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlarning ta'siri aniqlanadi. Bu albatta ular bilan olib boriladigan ijtimoiy tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi bosqich: ushbu tashxis natijalari asosida o'yin, o'qish va mehnat **faoliyatlarining mazmuni** yigit va qizlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy faollikni tarbiyalash nuqtai nazaridan aniqlanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar, yoshlar, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi mutasaddilar, mahalla xotin-qizlar faollari, "Oqila ayollar" harakati metodik jihatdan tayyorlanadi (metodologik, ijtimoiy-g'oyaviy, ilmiy-metodik, didaktik, tarbiya nazariysi, ijtimoiy menejment). Ularining o'z kasbiga ijtimoiy-metodik tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Ular nafaqat mutaxassislik fanidan balki ijtimoiy, pedagogik, ijtimoiy psixologik fanlardan yetarlicha ilmiy-nazariy bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lishi; ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqyea-hodisalarning mazmun va mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda unga munosabatini bildira olishi; OAV, matbuot materiallaridan qanday rukunlarga qiziqlishi; u yoki bu mamlakat tarixi, ijtimoiy hayoti, madaniyati, san'ati, an'analari, tili, dini, etnik hayoti, fan va texnika taraqqiyoti haqidagi bilim darajasi; ilg'or tajribali o'qituvchilar tajribasini o'rganishga moyillik holati ya'ni, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi o'rganiladi va o'rganish natijalariga ko'ra ularni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan metodik

ishlar tashkil etiladi.

Uchinchi bosqich: tashxis natijalari asosida yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lism-tarbiya jarayonini loyihalashirish, natijani bashoratlash (mazmunni tanlash, innovasion ta'lism-tarbiya shakl, metod va vositalarini aniqlash). Bo'lajak kelin va kuyovning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ta'lism-tarbiyaning an'anaviy hamda innovasion shakl, metod va vositalaridan, o'tiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda foydalilanadi.

Jumladan, multimedia resurslari, ommabop ijtimoiy xarakterdagi o'quv va badiiy adabiyotlar, rasmlar bilan bezatilgan gazeta va jurnallar, o'quv-metodik materiallar, elektron axborot-kommunikasiya texnologiyalari, maxsus teleradio rukunlari va reportajlar, ilmiy-ommabop xorijay ijtimoiy-siyosiy ommabop-ijtimoiy xarakterdagi media matnlari va ularning didaktik imkoniyatlari, media treninglar, hujjatli filmlar, elektron ta'lism resurslari, max'sus interaktiv veb-loyihalar, audivizual vositalar, ijtimoiy loyihalar va boshqalardan o'rganiladigan mavzu mazmunidan hamda ta'lism bosqichlari o'quvchi-yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumdidaktik interfaol metod va vositalardan foydalilanadi.

To'rtinchi bosqich: maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarning ta'lism-tarbiyasiga innovasion yondoshuv asosida jarayonni tashkillashtirish, nazorat qilish ishlarni amalga oshiriladi. Ushbu blok yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-faolligini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Bu o'rinda ham ob'yektdan ham sub'yektdan o'z ustida ko'p ishlashi, izlanishi, analistik tahlil qilishi, mantiqiy fikrashi, kiyosiy xulosa chiqarishi, shaxsiy refleksiya qoidalariga amal qilishi talab etiladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda shakllantirilishi nazarda tutilgan ijtimoiy faollik indikatorlari mutasaddilar tomonidan ilmiy-nazariy ma'lumotlar+OAV, matbuot materiallar+hayotiy tajriba +o'quv va uslubiy qo'llanmalar+jonli muloqot vositasida tarbiyalanib boradi. Ushbu vositalar bir-birini mazmunan to'ldiradi, egallagan ilmiy-nazariy bilim, hayotiy ma'lumotlar, yangiliklar, faktlar, tajribada sinalgan ilg'or g'oyalari, xulosa va tavsiyalar bilan mustahkamlanib boradi.

Beshinchi bosqich: o'rganish, tahlil etish, umumlashtirish, baholash, xulosa va tavsiyalar yaratish, motivasiyalashdani boratdir. Mazkur bosqichda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda

tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlар samaradorligi ijtimoiy pedagogik tamoyillarni, texnologiyalarni aniq va maqsadli tanlanishiga bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishning g'oyaviy-ijtimoiy manbalari mavjud bo'lib, ulardan ta'lim muassasalarida dars va darsdan tashqari bo'sh vaqtida shug'ullaniladigan mastaqlil ta'lim jarayonida foydalanish mutasaddi mutaxassislar, o'qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Ya'ni, ularni quydagicha tasniflash mumkin: barcha o'quv fanlaridan darslik materiallari, metodik materiallari (tarixiy va zamonaviy, milliy va xalqaro o'quv-metodik qo'llanmalar, ommabop metodik risolalar, ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan tavsiya va takliflar, tarqatma materiallar va b.q.);

siyosiy-huquqiy xarakterdagи me'yoriy hujjatlar (qonunlar, Prezident Farmon va qarorlari, hukumat qarorlari, davlat dasturlari, tegishli vazirlik va idoralarning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va b.q.);

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy loyiham;

OAV, media materiallari;

xalqaro va milliy xarakterdagи ijtimoiy hayotda to'plangan ilg'or tajribalar shular jumlasidandir. Ularda jamiyatning yangi-yangi ehtiyojlari, g'oyalari va ijtimoiy mezonlari o'z aksini topgan.

Umuman bu o'rinda ta'lim-tarbiyada ichta asosga suyanish maqsadga muvofiqdir: birinchisi, avlod-ajdodlarimizning oqila ayollarini ma'naviy merosiga tayanish, ikkinchisi, milliy va xalqaro zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlariga, uchinchidan, ijtimoiy hayotda bo'layotgan tub o'zgarishlar, vaqyea-hodisalar, milliy va xalqaro hayotiy tajribalarga suyanish. Bular ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishni shakllantirishdagi tarbiyaviy ishlar uchun tayanch manbai hisoblanadi. Ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishda mamlakatimiz va dunyo yoshlari, qizlari hayotidagi kundalik yangiliklar asosida ularning o'zaro muloqot almashinushi, ya'ni ijtimoiy-kommunikasiya jarayonini ta'minlash eng samarali natijalarga olib keladi. Zero, ijtimoiy

mavvzulardagi kommunikasiya jarayonida ishtirok etgan yosh yigit va qizlar o'z bilim va tajribalarini sinovdan o'tkazish bilan birga tengdoshlari o'rtaida targ'ibot ishlarini olib boradilar va shu asosda ularni ham faollikka undash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, ushbu metod ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirish hamda ijtimoiy-huquqiy xavfli guruh yigit va qizlarni birlashtirishda, ijtimoiy hayotga moslashtirishda ijobiy samara beradi.

Ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirish samaradorligi ushbu jarayonda jamiyatning barcha institutlar ya'ni, ta'lim muassasalari, yoshlar agentligi, tegishli vazirlik hamda idoralar, oila, mahalla, "Olimalar" jamiyatni, "Oqila ayollar" harakati va boshqa yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi fuqarolik jamiyatni institutlarining hamkorligiga bog'liqdir. Bo'lajak yosh oila a'zolarni g'oyaviy yetuklik sari boshlash uchun o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish immuniteti paydo bo'ladi. Bu tuyg'u unda sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Ota-onalarga, oilaga, mahallaga davlatga, jamiyatga va kelajagiga bo'lgan ishonch va ulkan mehrni uyg'otadi. Tajribalar shundan dalolat beradiki, ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishda o'z-o'ziga ishonch hissini shakllantirishda siyosiy partiylar tomonidan tashkil etilgan "Istiqlol" yoshlar qanoti, "XXI asr yoshlari" konsepsiysi, "Biz kelajak avlodlarimiz" harakati, "Yoshlar qanoti"lari kabi loyiham yosh yigit va qizlarni yet g'oyalardan asrash, intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonga faol jalb etish kabi ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni amalgalashda muhim rol o'ynamoqda.

Ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini rivojlantirishda qator ijtimoiy omillar ta'sir etadi. Jumladan, ijtimoiy muhit: makromuhit-insoniyatni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar; mikromuhit-bevosita insonni qurshab olgan oila, mahalla, mehnat jamoasi, o'quv guruhlari kabi tor doiradagi muhit; yoshlar faol kommunikasiyaga kirishadigan oila a'zolari, turli toifa shaxslar va guruhlarning ijtimoiylashib borishi; talaba-yoshlarning ijtimoiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarning (ota-onalar, o'qituvchilar, fuqarolik jamiyatni institutlari

mutaxassis xodimlari, keng jamoatchilik, tarbiyalanuvchilar ning) ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlilik darajasi; ijtimoiy tarbiyaga oid ilmiy-nazariy, metodologik, ommabop, ijtimoiy-siyosiy manbalarning hammabop va ommabopligi shular jumlasidandir.

Shuningdek, ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan ba'zi muhim chortadbirlarni ham amalga oshirish bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- mobil internet foydalanuvchilarga mo'ljallangan yosh qizlarning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy intellektual o'yinlar mazmunini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni targ'ib etuvchi alohida saytlar ochish maqsadga muvofiqdir;
- tegishli vazirlik va idoralar tomonidan mamlakatimizda turli sohalarda ta'lim olayotgan ilm-fan bilan shug'ullanuvchi iqtidorli yigit va qizlar haqida hujjatlari ommabop filmlar, teleradio ocherklar, risolalar, internet videoroliklari yaratish, ijtimoiy saytlarda, OAVda maxsus ruknlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid ko'rsatuv va eshittirishlar berib borish zarur;
- respublikada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vazirlik, idoralar, ijodkor, ijtimoiy-siyosiy faol xotin-qizlar, hokimlik vakillik organlari rahbarlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri uzatiladigan ochiq muloqotlar tashkil etish;
- uzlusiz ta'lim tizimida **yigit va qizlarni** oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi maxsus o'quv kurslari, fakultativ mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish;
- ijtimoiy xarakterdagi muammolar bo'yicha to'garaklar tashkil etish, bitiruv malakaviy ishlar, ilmiy-ijtimoiy loyihibalar tanlovlarni tashkil etish hamda Respublika miqyosida mavzuga oid an'anaviy ko'rik-tanlovlar, ilmiy-amaliy Forum tashkil etish yigit va qizlarning g'oyaviy-siyosiy kompetentligini oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.
- uyushmagan, ijtimoiy xatar guruh, boquvchisini yo'qotgan chin yetim, imkoniyati cheklangan yigit va qizlarni

ham qiziqishlariga ko'ra ijodiy va kasbhunar to'garaklariga imtiyozli jalb etishni takomillashtirish mexanizmini belgilab beruvchi Konsepsiya yaratilmog'i davr talabidir.

Shunday qilib, ta'lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy faolligini takomillashtirish davr talabi bo'lib, ushbu muammoning ilmiy, ijtimoiy-pedagogik asoslarini, shart-sharoitlarini, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish mexanizmini bilish va unga ijodiy yondoshish uzlusiz ta'lim tizimi mutaxassis o'qituvchilari hamda fuqarolik jamiyatni institutlari mutaxassis xodimlaridan, olima-yu oqila ayollaridan ijtimoiy-siyosiy madaniyatni, ijodiy kompetentlikni talab etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutisiyasi yangi tahriri. 2023-yil 30-aprel. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son).
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun (<https://edu.uz//media/019b375d-4df5-dc9f-32eb-e187b2b0d6b9.pdf>) (O'RQ-901-son, 01.02.2024-y.) Prezident tomonidan imzolandi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan. 2016-yil 14-sentyabrdan kuchga kiritilgan).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanda qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni (1-ilova. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 20-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari – Yoshlar siyosati, madaniyat, axborot tizimlari va telekommunikasiyalar masalalari kompleksi rahbari hamda uning maslahatchisining funksional vazifalari shuningdek yoshlar smiyosati, madaniyat, axborot tizimlari va telekommunikasiyalar masalalari axborot-tahlil departament to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 352-sonli Qarori.
11. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.-252 b.
12. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar. -Toshkent: Muhammarr nashriyoti. 20019.-256 b. (2020-yil, yanvar)
13. Musurmanova A. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. № 1 (47). 70-72 P.
14. Musurmanova O. Milliy qadriyatlar – oila ma'naviyati poydevori. (Monografiya) Toshkent. Zarvaraq nashriyoti. 2023.-113 b.
15. Musurmanova O., Norqulov H., Abdurahimova F. Mahallalarda oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari (Uslubiy qo'llanma). "Mahalla va oila nashriyoti". Toshkent: 2023. 116 bet.
16. Ismailova, Z. K., Musurmanova, A., Shomurotova, N. N., Kholiqova, N. A., & Mamataliev, A. (2021). Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2959-2970.
17. Norqulov H. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari. -T.: 2022. 240 b.

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Utepbergenov Marat Allanazarovich¹

Oila muammosi qadim davrdan olimlar e'tiborini tortgan. Bizning buyuk vatandoshlarimiz Ibn Sino, Al Xorazmiy, At Termizi, Imom Buxoriy, Naqshbandiy, Al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Al-Forobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur, Amir Temur, Zamashshariy va boshqa allomalar asarlarida ham oila munosabatlarining psixologik tomonlari o'rganilgan va zamonaviy oila uchun ham dolzarb bo'lgan ayrim psixologik tavsiyalar berilgan.

Oila tadqiqot ob'yekti sifatida tarixchilar, antropologlar, faylasuflar, demograflar, arxeologlar, tibbiyot soxasidagi olimlar, sosiologlar, iqtisodchilar, etnograflar, genetiklar, pedagoglar va psixologlar tomonidan o'rganildi.

O'zbek oilasining ijtimoiy va etnopsixologik tomonlari Yu.A.Yakubov, G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, V.M.Karimova, E.Sh.Usmanov, B.M.Umarov, X.Karimov, U.Qodirov, F.Akramova, D.D.Kadyrova, G.Niyozmetova, R.N.Xikmatullayeva, J.K.Aksakalova, N.B.Matmuratova, O.Abdusattarova, X.Xaydarova, R.Abdullayeva, M.Fayziyeva, Z.A.Rasulova, X.A.Kadyrova, L.Lutfullayeva, M.Vaxidova, N.Salayeva, G.J.Ganiyeva, G.S.Toshev, M.Mamatov, E.G.C'oziyev, K.Z.Saydaliyeva, fransuz muallifi X.Fatxi hamda K.Perutz va K.F.Kottek kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarining mavzusi bo'lgan.

Qoraqalpoq oilasi to'g'risida so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tahlil ishlari shuni ko'rsatadi, bu masala tarixchilar, Huquqshunoslar, faylasuflar, demograflar, pedagoglar tomonidan o'rganilgan. S.Kamalov, R.Kosberganov, U.Shalekenov, J.Bazarbayev, X.Yesberganov, A.Bekmuratova, T.Atamuratovlarning dissertasiya tadqiqotlarida diniy marosimlar va oilaviy-maishiy yashash tarzi to'g'risidagi tarixiy-etnografik ma'lumotlar bayon etilgan.

Ota va ona rolini bajarish uchun ularning shaxs sifatida psixologik yetilishmaganligi, otonalarga iqtisodiy qaramiligi, oilaviy vazifalarni (funksiyalarni), ayniqsa tarbiyaviy va iqtisodiy bajara olmasligi ular tomonidan belgilangan yetakchi argumentlar sifatida etib o'tildi. Ko'pchilik

respondentlar sakkizta oilaviy funksiyalardan ikkita funksiyani - iqtisodiy va tarbiyaviy deb ko'rsatgan faktlari e'tiborga loyiq.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha aniqlangan muammolar tahlili ularni yechish yo'llarini aniqlashga yo'l qo'yadi. U quyidagilardan iborat.

O'quv dasturlarning, darsliklar va o'quv qo'llanmalarning qoraqalpoqcha variantini qayta ishslash, so'nggi yillar tadqiqotlari natijalari asosida bugungi kun talablarini hisobga olib to'ldirish lozim.

"Oilaviy hayot psixologiyasi" predmetni o'rghanishda etnopsixologik materiallarga, halq an'ana va udumlarining ilmiy tahliliga bugungi kun nuqtai nazardan holisona (ob'yektiv) baho berishga ko'proq e'tibor qaratish kerak.

Zamonaviy oiladagi sodir bo'layotgan o'zgarishlarni negativ tomondan qabul qilishga va oilaning krizis sababidan deb hisoblash mumkin emas.

Ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ko'rish zarur. Kerak bo'lgan joyida har bir negativda pozitiv elementlarni oqilonla ko'rib va ularni oilani mustahkamlashda, ko'ngildagidek bo'limgan oilalarda psixologik iqlimi sog'lomlashtirishda samarali qo'llanishi kerak.

Oilaviy hayot psixologiyasi fanida avval kinofilmidan parchalarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Undan keyin film kahramonlarning yurish-turishlarni, muloqotini, qaror qabul qilishi va ish harakatlarininining psixologik tahlili ko'rib chiqiladi.

Muloqot madaniyatini, mulozamat madaniyatini oshirish bo'yicha psixologik treninglarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Oilani mustaxkamlash maqsadida "Oilaviy hayotning psixologiyasi" o'quv kursi jarayonidagi kabi hayotda ham kurortlarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida, shuningdek, mamlakatimizda kabi xorijda ham har hil turistik yo'nalishlarga oilaviy dam olish turlarini samarali qo'llanishi kerak.

Turistik firmalarga ko'proq dam olishning oilaviy

1. Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

turlariga imtiyozlar tug'dirib berish maqsadga muvofiq.

Yuqorida bayon etilgan faktlarning oldini olish maqsadida yoshlarni jinsiy tarbiyalashdagi an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishni zamon talab etadi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi ijtimoiy kabi, maxsus psixologiyada ham eng kam o'rganilgan muammolarining biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Utepbergenov M. Sovremennoye sostoyaniye i problemy podgotovki uchaščixsyu akademicheskix liseyev, professionalnyx kollejey i studentov vuzov k budušuey semeynoy jizni. Karakalakskogo otdeleniya Akademii nauk Respublikи Uzbekistan jurnala «Vestnik» Nukus.2013. №4, S.89-92. (19.00.00.)

YOSHLAR DUNYOQARASHINING RIVOJLANISHIDA GENDER TENGLIGINING AHAMIYATI

Baxtiyor Jalilov Xidayevich¹

A N N O T A T S I Y A .

Mazkur maqolada barqaror taraqqiyotga erishishda, jamiyat farovonligida gender tengligining ahamiyati ochib beriladi. Gender tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanib, erkaklar va ayollarning davlat boshqaruvida, jamiyat hayotining turli jabhalarida, fan, madaniyat, sport, san'atda faol ishtiroki, qarorlar qabul qilish va xavfsizlik sohalarida tenglik asosida ishtirok etishini nazarda tutadi.

A H N O T A C I Y A .

В данной статье раскрывается важность гендерного равенства в достижении устойчивого развития и благополучия общества. Гендерное равенство считается одним из основных прав человека и предполагает равное участие мужчин и женщин в государственном управлении, в различных сферах общественной жизни, активное участие в науке, культуре, спорте, искусстве, принятии решений и обеспечении безопасности.

A B S T R A C T .

This article reveals the importance of gender equality in achieving sustainable development and the well-being of society. Gender equality is considered one of the fundamental human rights and implies the equal participation of men and women in public administration, in various areas of public life, active participation in science, culture, sports, art, decision-making and security.

Ключевые слова. Гендерное равенство, Глобализация, стереотип, социальная группа, духовность, индекс демократии, менталитет, образование, правовая культура.

Kalit so‘zlar. Gender tengligi, globallashuv, stereotip, ijtimoiy guruh, ma’naviyat, demokratiya indeksi, mentalitet, tarbiya, huquqiy madaniyat.

Key words. Gender equality, globalization, stereotype, social group, spirituality, democracy index, mentality, education, legal culture.

¹. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Globallashuv davrida gender tengligi va gender muvozonatiga erishish, ikkala jins vakillarining ham ehtiyoj va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, ularga teng imkoniyatlar va sharoitlarni ta'minlash ham xotin-qizlar, ham erkaklarning ahvoli yaxshilanishi, samarali iqtisodiy rivojlanish, oilaning mustahkamlanishi, bolalarni jismoniy va ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash imkoniyatini anglatadi.

Bu imkoniyatlarni paydo qilish maqsadida yurtimizda ham ulkan ishlar qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida xotin-qizlarning huquq-manfaatlari, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtaida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinalarini yaratish borasidagi vazifalar keltirilgan. [Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021.].

Jamiyat taraqqiyot bosqichida erkaklar va ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar taraqqiyoti hamda demokratianing muhim indeksi sanaladi. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligini, jins bo'yicha kansitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir. Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida xotin-qizlarning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasidan birinchilardan bo'lib, BMTning "Xotin-qizlar huquqlari kansitilishining barcha shakllariga barham berish haqidagi konvensiya"ga qo'shildi. 1995-yil 4-15 sentyabr kunlari Pekin shahrida bo'lib o'tgan to'rtinchi Butunjahon ayollar konferensiyasida Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qabul qilingan. Hujjalarda ayollar maqomini oshirish va gender tengligini ta'minlashning asosiy 12 yo'nalishlari belgilangan. Ushbu hujjalarda xotin-qizlarning huquqlarini mustahkamlash, jamiyatdagi mavqeini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Pekin deklaratsiyasi gender tengligi va ayollar huquqlarini hurmat qilishning umumiy

tamoyillarini tasdiqlaydi. Deklaratsiyada ayollar huquqlari umuminsoniy huquqlarning ajralmas qismi ekani, hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish zarurligi qayd etilgan. Harakatlar platformasi ta'lif, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, siyosat va ayollarga nisbatan zo'ravonlik kabi turli sohalarda xotin-qizlarning rivojlanishiga qaratilgan aniq takliflarni o'z ichiga olgan hujjatdir. Harakatlar platformasida gender tengligi nafaqat maqsad, balki barqaror rivojlanish va tinchlikka erishishning asosiy vositali ekanligi qayd etilgan

Ta'kidlash kerakki, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldag'i 83-son qarori bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar"ning beshinchi maqsadi – gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish – mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

- Ish tajribasi: Talabalar o'qish davrida haqiqiy ish tajribasini to'plashadi, bu ularning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi.
- Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish: Talabalar o'zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.
- Korxonalar uchun foyda: Korxonalar o'zlarining kelajakdagini xodimlarini erta boshlab shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
- Ishga joylashish imkoniyati: Dual ta'limni tamomlagan talabalar ko'pincha o'zlarining amaliyot o'tagan korxonalarida ishga qabul qilinadi.

Dual ta'limning qo'llanilishi:

Dual ta'lim modeli Germaniya, Shveysariya, Avstriya kabi mamlakatlarda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham kasb-hunar ta'limini rivojlantirish maqsadida dual ta'limni joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu yondashuv orqali yoshlarni ish bozorining talablariga moslashgan holda tayyorlash va ularning bandligini ta'minlash maqsad qilinmoqda.

Yurtimiz olyi ta'lim tizimida dual ta'lim:

Yurtimizda dual ta'limni joriy etish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, kasb-hunar kollejlari va texnikumlarda o'quvchilarni korxonalar bilan hamkorlikda tayyorlash, amaliyotni kuchaytirish kabi chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Bu orqali yoshlarning kasbiy mahorati oshirilmoqda va ularning ishga joylashishi osonlashtirilmoqda.

Kutilayotgan natija:

Dual ta'lim talabalarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki u talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarini ham o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv talabalarni ish bozorining talablariga moslashgan holda tayyorlash va ularning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashiga yordam beradi. Quyida dual ta'limning talaba kasbiy faoliyatidagi o'rni va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot keltirilgan:

1. Amaliy tajriba orttirish:

Dual ta'lim talabalarga o'qish davrida haqiqiy ish tajribasini orttirish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning kelajakdagini kasbiy faoliyatida muhim ustunlik bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar ish joyida amaliy vazifalarni bajarish orqali o'zlarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

2. Kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish:

Dual ta'lim orqali talabalar o'zlarining kelajakdagini kasblari bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarini egallahadi. Bu ularni ishga kirishganda yanada tayyor va ishonchli qiladi.

Talabalar ish joyida yangi texnologiyalar, usullar va standartlar bilan tanishishadi.

3. Ishga joylashish imkoniyatini oshirish:

Dual ta'limni tamomlagan talabalar ko'pincha o'zlarining amaliyot o'tagan korxonalarida ishga qabul qilinadi. Bu ularning ish topish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Ish beruvchilar dual ta'limni tamomlagan talabalarga ishga joylashishda ustunlik berishadi, chunki ular allaqachon korxona bilan tanish va amaliy tajribaga ega bo'ladi.

4. Kasbiy faoliyatga moslashishni osonlashtirish:

Dual ta'lim talabalarga ish muhitiga tezda moslashish va kasbiy vazifalarni samarali bajarish imkoniyatini beradi.

Talabalar ish joyida jamoaviy ishslash, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

5. Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish:

Dual ta'lim orqali talabalar o'zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning bilimlarini chuqurlashtirish va ularni ishda qo'llash qobiliyatini oshiradi.

Nazariya va amaliyotning uyg'unligi talabalarning kasbiy kompetensiyasini yanada mustahkamlaydi.

6. Ish beruvchilar bilan aloqalarni

mustahkamlash:

Dual ta'lim talabalarga korxonalar va ish beruvchilar bilan yaqin aloqalar o'rnatish imkoniyatini beradi. Bu ularning kelajakdagi kasbiy tarmoqlarini kengaytirishga yordam beradi.

Talabalar ish joyida o'zlarining professional tarmoqlarini (networking) rivojlantirishadi.

7. Kasbiy qadriyatlarni shakllantirish:

Dual ta'lim orqali talabalar kasbiy mas'uliyat, intizom va ishchanlik kabi muhim qadriyatlarni egallashadi.

Ish joyida talabalar kasbiy axloq va mehnat etikasini o'rganishadi.

8. Raqobatbardoshlikni oshirish:

Dual ta'limni tamomlagan talabalar o'zlarining amaliy tajribasi va ko'nikmalari tufayli ish bozorida boshqa nomzodlarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladilar.

Bu ularning raqobatbardoshlik qobiliyatini oshiradi va ularni yuqori darajadagi mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Dual ta'lim talabalarning kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki ularni ish bozorining talablariga moslashgan holda tayyorlaydi, amaliy tajriba va ko'nikmalar beradi, shuningdek, ularning ishga joylashish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini oshiradi. Bu yondashuv talabalarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yurtimizda amalga oshirilayotga islohatlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va Davlatimiz ravnaqini yanada oshirishdan iborat. Global raqamli tamaddun, eksponensial jarayonlar, sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarish, smart-texnologiyalar, mehnat bozorida global raqobat, inson kapitali sifatiga talablarning oshishi jamiyat hayotining asosiy sohalarida (ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy) tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Raqamli iqtisod shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'lim xizmatlarini taklif qilish, innovatsion tafakkur, ta'lim oluvchining hayot davomida o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi anglash motivatsiyasini shakllantirish, bilim konstruksiyalarini uzlusiz yangilash, yangi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, raqobatbardosh, ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.dual ta'lim — bu ta'lim va ishni uyg'unlashtirgan, talabalar va korxonalar uchun bir qancha afzalliklarga ega bo'lgan zamonaviy ta'lim modelidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
- Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
- Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
- Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
- Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
- Internet saytlar:
- <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
- <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
- <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portalı ZiyoNET.
- <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

LIFELONG LEARNING – HAYOT DAVOMIDA TA'LIM PARADIGMASI KONTEKSTIDA SHAXSNING KASBIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Mohira Kundibayevna Xalikova¹

ANNOTATSIYA.

Raqamli tamaddun va axborotlashuv arealida ro'y berayotgan eksponensial jarayonlar, global iqtisodiy raqobat ta'lim oluvchining kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun ta'limning moslashuvchan xizmatlarini taklif qilish, innovasion tafakkur, shaxsning hayot davomida o'zini o'zi rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish, bilim konstruksiyalarini uzlucksiz yangilashni taqozo etadi. Mazkur transformatsiya Lifelong learning paradigmasing arxitektonikasini belgilab berdi. Maqola mazmunini muammoning ilmiy-metodologik asoslari, zamonaviy ijtimoiy nazariyalar hamda diskursiv tahlil tashkil etadi.

Kalit so'zlar: axborot jamiyati, hayot davomida ta'lism, Lifelong learning, determinant, paradigma, VUCA-dunyo, shaxs, jamiyat, kompetensiyalar.

AHNOTACIYA.

Экспоненциальные процессы, происходящие в дискурсе цифрового прогресса и информатизации, глобальная конкуренция на рынке труда требуют актуализации инновационного интеллекта, повышение профессиональной подготовки обучающегося, предлагая образовательные услуги, формирование мотивации личности к обучению на протяжении всей жизни, непрерывное обновление образовательных конструкций. Эта трансформация определила тектонику парадигмы обучения на протяжении всей жизни. Статья содержит научно-методологические основы изучаемой проблемы, современные социальные теории и дискурсивный анализ.

Ключевые слова: информационное общество, Lifelong learning, детерминант, парадигма, VUCA-мир, личность, общество, компетенции.

¹. Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, falsafa doktori, dotsent

A N N O T A T I O N .

The exponential processes taking place in the information society, the digital economy, global competition in the labor market require the actualization of the innovative thinking of the individual, the improvement of the student's professional training, the formation of the individual's motivation for lifelong learning, and the continuous updating of educational structures. This transformation has defined the tectonics of the lifelong learning paradigm. The article contains the scientific and methodological foundations of the problem under study, modern social theories and discursive analysis.

KIRISH

Axborotlashuv, raqamli tamaddun, sun'iy intellekt, kvant va kognitiv texnologiyalar, biznes-modellar, mehnat bozorida global raqobat, inson kapitali sifatiga talabning oshishi kabi jarayonlar eksponentasi jamiyat hayotining eng muhim sohalarida (ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy) tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Raqamli iqtisod shaxsnинг ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'limgizni taklif qilish, innovasion tafakkur, ta'limgizni oluvchining hayot davomida o'zini o'zi rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish, bilim konstruksiyalarini uzluksiz yangilash, yangi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, raqobatbardosh va ijtimoiy faol mutaxassislarini tayyorlashni taqozo etadi.

Mazkur transformasiya ta'limgiz paradigmاسини amalga oshirish yondashuvlarini o'zgartirdi. 1972 yilda YUNESKO tomonidan e'lon qilingan Lifelong learning (LLL) – hayot davomida ta'limgizni tamoyillari unga qo'yildigan talablarni belgilab berdi[12]. Ta'limgizning bu shakliga bo'lgan ehtiyoj shaxsnинг ta'limgizni kasbiy o'sish ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan ta'limgizni jarayonining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan yagona tizimni shakllantirish zarurligini taqozo qildi. XXI asrning boshlanishi jamiyat hayotini modellashtirishning yangi uslublari, yangi texnologiyalarga asoslangan innovasion jamiyat qurishda odamning bilimlarni yaratish, o'zgartirish, undan foydalanish ko'nikmalarini jiddiy qayta baholash bilan bog'liq. Zamonaviy jamiyat qurish sharoitida ta'limgizni yetakchi rol o'ynaydi, chunki u innovasion rivojlanish jarayonlarining axloqiy-gumanitar komponentini tashkil etuvchi qadriyatlar tizimi va tamoyillarini

Key words: information society, Lifelong learning, determinant, paradigm, VUCA-world, personality, society, competencies.

shakllantiradi. Mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, birinchi navbatda, ta'limgizning raqobatbardoshligi va samaradorligi bilan belgilanadi. Aynan texnogen jamiyatning shakllanishi davrida ta'limgizni insoniyatning rivojlanish omiliga aylanib, sanoat kapitali kabi an'anaviy ishlab chiqarish omillarining ahamiyatini yo'qotadi. Ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti (**AQSH, Kanada, Shvesiya, Yaponiya, Singapur, Koreya**) "bilimlar" iqtisodiyotiga aylanmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot tobora insoniyatning yangi bilimlarni yaratish, o'zgartirish va amalda qo'llash kompetensiyalari bilan belgilanmoqda.

METODOLOGIYA


Ma'lumki, ilm-fandagi voqeа-hodisalarini universal tushuntirish modellarini yaratishga bo'lgan intilish har qanday tizimlashtirilgan bilimlar sohasiga xosdir. **Ibn Xaldun**[3], **Tomas Kun** [5], **Karl Popper**[20], **Imre Lakatos**[6], **Pol Feyerabend**[15] kabi apogetlar ilmiy konstrukt dinamikasining g'oya va konsepsiylarini inqilobiy qayta ko'rib chiqish bosqichlari mavjudligini taxmin qiladilar. "Paradigma" (yunon. paradeigma – namuna, misol) tushunchasi falsafa faniga nemis pozitivizmi vakili **Gustav Bergman** (nem. Gustav von Bergmann) tomonidan metodologik tadqiqotlarning ba'zi umumiylari standartlarini tavsiflash maqsadida kiritilgan.

Ilmiy inqilob davrida dunyo kartinalari (*kosmogonik, teistik, ilmiy*), qadriyatlar tizimi, muammolarni yechish usullari bilan bog'liq ziddiyatlar asnosida paradigmalar ixtilofi va almashinushi sodir bo'ladi.

Yangi paradigmang vujudga kelishi ilmiy hamjamiyat tomonidan muayyan davrda tan olingan

ilmiy nazariya rad etilib, oldingisidan tubdan farq qiladigan boshqa bir nazariyaning tan olinishi shaklida yuz beradi. Muayyan davrda dominant ilmiy g'oyalar kvintessensiyasi sifatida paradigma dunyoning ob'yektiv tasavvurini shakllantirish va ilmiy tafakkurning relevant modellariga tayanishga xizmat qiladi. Ilmiy inqilobning amalga oshirilishi murakkab va ulkan hodisa, bu jarayon, avvalo, absolyut miqdor-sifat ko'satkichlari, ilm-

fanning nazariy-metodologik bazisini qayta qurish (**Kopernik geliosyentrizmi, N'yyuton mexanikasi, Lematrning katta portlash kosmologik modeli, maxsus nisbiylik nazariyasi, kvant fizikasi, texnologik singulyarlik**) va qadriyatlar tizimining tub o'zgarishlari (**Renessans, madaniy entropiya, ijtimoiy markerlar transformasiyasi**) orqali sodir bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Paradigmalar ixtilofi hamda almashinuvi

Pedagogikada paradigmalar muammosi A. Verbiskiy[2], B. Kornetov[4], S. Severin[14], M. Xalikova[8], I. Shlyaxova[18] kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rjanilgan. Uning semantik maydonini (tatbiq etish chegarasi) aniqlashda mavjud ziddiyatlarning ko'lami muammoni o'rganishning dolzarbligini ta'minlaydi. Muammoga oid ilmiy dunyoqarash va xususiy pozisiyalarni umumlashtirgan holda hamda mualliflik nuqtai nazaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, "*pedagogik paradigm*" – taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida, *muayyan ijtimoiy davrda ta'lim-tarbiyaning konseptual xususiyatlari* (*ta'limning ilmiy-falsafiy, nazariy-metodologik tamoyillari, kategorial apparat, bazaviy ustakovkalar, ta'lim maqsadlari, ta'lim vositalari, ta'lim kontenti (mazmuni), o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar iyerarxiyasi, taksonomiya, yondashuvlar, pedagogik ideallar, qadriyatlar (ontologik, aksiologik) tizimi, ta'lim-tarbiya haqidagi tushunchalar va g'oyalar, ta'lim texnologiyalari, ta'lim menejmenti*) ni belgilaydigan *pedagogik fenomen*. Paradigmaning konsyensual asoslарini qabul qilish o'quv amaliyotini tashkil etishning yangi modellarini ishlab chiqish bilan cheklanmaydi; yangi siklni boshlash uchun dominant paradiroma doirasida hal qilib bo'lmaydigan paradigmalar ixtilofi vujudga kelishi zarur.

ASOSIY QISM

XXI asr ta'limi gumanistik ideallar, qadriyatlar va metodik an'analarini davom ettirgan holda axborot davrining voqeligiga relevant yaxlit nazariy konsepsiya, innovasion yondashuv va metodologiyani talab qiladi. Ta'lim o'zgaruvchan dunyo sharoiti va bilimga asoslangan jamiyatda *barqaror rivojlanish, tahdidlarga tayyorlik, xavflarni boshqarish, lokal va global manfaatlar, ijtimoiy hamkorlik, jamiyatning demokratlashuvi, fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki, inson resurslarini rivojlantirish, mehnatni tashkil etishning yangicha sharoitlari, shaxsning ijodiy va kasbiy salohiyatini namoyon etish, nizolarni boshqarish, gender tengligi, birgalikda yashashni o'rganish, madaniyatlararo muloqot, insoniyat taraqqiyoti yo'lida samarali hamkorlik* kabi muammolarni hal etishi zarur.

Makkinzi Global Institutti ma'lumotiga ko'ra, 2030 yilga borib mislsiz texnologik taraqqiyot tufayli qariyb 15% ish o'rinalining qisqarishi ehtimoli bor hamda yigirma yil ichida dunyodagi kasbiy faoliyat 50% gacha avtomatlashtirilishi mumkin. **Skolkovo agentligi** tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 30 yilda 50 dan ortiq kasb turi yo'qolish arafasida turibdi. Zamonaviy shaxs hayot davomida o'rtacha 5-7 turdag'i faoliyatni

o'zgartiradi hamda o'zi uchun mutlaqo yangi kasblar va ko'nikmalarini egallaydi. **Dell** kompaniyasi 2030 yilga kelib hozirda ishlayotganlarning 85 foizi hali mavjud bo'lмаган kasb va lavozimlarda faoliyat olib borishiga to'g'ri kelishini izohlaydi. Ushbu kontekstda Lifelong Learning paradigmasi XXI asrning ijtimoiy muammolarini hal qilishning asosiy omillaridan biri sifatida o'zining vaqt va makonda egiluvchanligi, ta'lim turlarining xilmassisligi (rasmiy, norasmiy, informal, korporativ ta'lim), aholining keng qatlamlarini qamrab olishi, shaxsning bilim va ko'nikmalarini doimiy rivojlantirish orqali kasbiy havfsizlikni ta'minlab, jamiyatdagi ijtimoiy rollarni samarali bajarishga imkon beradi.

Lifelong Learning – shaxsning axborot va bilimlar jamiyati va o'zgaruvchan VUCA-dunyo sharoitida faoliyatini ta'minlaydigan, hayot davomida qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bilimlarning universal majmui, muayyan shaxsiy, ijodiy, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali modeli, shuningdek, insonning butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladigan bilim va ko'nikmalarni uzlusiz egallash va rivojlantirish jarayoni. Axborot jamiyati diskursi hamda insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida hayot davomida ta'lim fenomeni ijtimoiy hodisa, to'rtinchı sanoat inqilobi, keyingi davr ta'limi hamda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining uzoq muddatli tendensiyasi, jamiyat ongi va ijtimoiy vogelikning muayyan shakli, aholi turmush tarzining ajralmas qismi, kasbiy muvaffaqiyatning garovi sifatida ko'rib chiqish zarur.

Aytish kerakki, hayot davomida uzlusiz ta'lim ijtimoiy rivojlanishning ob'yektiv qonuniyati sifatida zamonaviy institusional ta'lim tizimidan oldin ham mavjud bo'lgan. Hayot davomida muttasil ta'lim olish g'oyalarini Zenon, Platon, Geraklit, Tit Lukresiy Kar, Aristotel, Ptolomey, Suqrot, Lao Szы, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi antik dunyo va o'rta asrlar mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosida uchratish mumkin.

Zamonaviy jamiyatlarda hayot davomida ta'lim individual ehtiyojlar zonasidan ijtimoiy ehtiyojlar sohasiga ko'chdi, ijtimoiy imperativ shaklini oldi hamda davlat siyosati ob'yektiga aylandi. Asrimizning ikkinchi o'n yilligining o'rtalariga kelib iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlar hayot davomida ta'limning o'z milliy tizimlarini ishlab chiqdilar. Mazkur mamlakatlarning ta'lim qonunchiligi hamda o'quv dasturlari kontentida hayot davomida ta'lim

g'oyalari u yoki bu tarzda o'z aksini topdi[9].

Masalan, Yevropa Ittifoqining **The LLL Platform** axborot resursi, Buyuk Britaniyaning Lids universiteti tuzilmasidagi **LLL Centre, Osher LLL Institute (AQSH)**, BMT tarkibidagi global vakolatlarga ega **UNESCO Lifelong Learning instituti** kabi tuzilmalar yetakchi paradigma sifatida Lifelong Learning sohasida katta yoshdagilarni o'qitish va norasmiy ta'limni qo'llab-quvvatlash, XXI asrning universal kompetensiyalarini aniqlash, inson kapitalini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalarni mujassam etgan. Mazkur strategiyani ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha O'zbekiston tajribasi ham Lifelong Learning landshaftida universal metakompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

So'nggi o'n yilliklar davomida ta'limni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro institutlar bu ijtimoiy fenomen va jarayonni iqtisodiy-ijtimoiy o'sish, gender tenglik, savodxonlikka erishish, qashshoqlikka qarshi kurashning muhim yo'nalishi deb hisoblab, uzlusiz ta'lim sohasidagi milliy tashabbuslar amaliyotini barqaror va izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar. 2000 yilda Lissabonda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashining sammitida "Evropa Ittifoqining hayot davomida ta'lim to'g'risidagi memorandum" qabul qilindi. Unda "**hayot davomida ta'lim - bu bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyani takomillashtirish maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan keng qamrovli o'quv faoliyati**" deya ta'kidlandi[19].

Ta'lim paradigmasing almashinuvining texnologik tartiblarga (ingl. techno-economic paradigm) bog'liqligi masalasi yirik sosiologik tadqiqotlarning ob'yekti bo'lib hizmat qilgan. Avstriyalik sosiolog, siyosatshunos **Yozef Shumpeter** (Joseph Alois Schumpeter) innovatsiyalarning rivojlanishining bosqichlarining diskret xususiyatini qayd etadi hamda buni "innovatsiyalar to'lqini" deb atadi [2]. **S. Yu. Glaz'yev** tomonidan ilgari surilgan tezisga ko'ra, texnologik tartib yaxlit va barqaror tuzilma bo'lib, siklik tarzga ega. Innovasion jamiyat ta'limning ijtimoiy institut sifatida mustaqil va hal qiluvchi ijtimoiy kuchini tan olib, bilimlarni yangilash zaruriyati va davriyiligiga munosabatni o'zgartirdi. Texnologiyalarning shiddat bilan yangilanishi, rivojlangan mamlakatlarning "oltinchi texnologik tartib" (axborot texnologiyalari, smart-texnologiyalar, kognitiv texnologiyalar) o'tishini taqozo qildi[1].

Ma'lumki, ta'lim darajalari o'zgaruvchan qiymatdir va fanning rivojlanish dinamikasiga,

ilmiy-nazariy bilimlarning fundamental yutuqlariga bog'liq hamda fanning rivojlanishini aks ettiruvchi definisiya hisoblanadi. Agar 70-80 yil oldin empirik tajribani o'tkazish jarayonida kasbiy ma'lumotlarni egallash yetarli bo'lsa, hozirda texnik va ijtimoiy jihatdan o'zgarayotgan muhitning yangi talablari asosida kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni doimiy yangilash, o'zlashtirish, malakani tasdiqlash kasbiy muvaffaqiyatning shartiga aylandi. Kasbiy "omon qolish" qonuni, umumbashariy ta'limning boshqa ijtimoiy qonuniyatlarini singari, empirik qonunlar toifasiga kiradi. Kasbiy "omon qolish" qonuni ta'limni davom ettirish, ijtimoiy mavqeini saqlab qolishning muhim omili, mintaqalar miqyosida mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini ta'minlaydigan, ijtimoiy siyosatning amaliyotga yo'naltirilgan modeli sifatida ishlaydi. Forsayt tahlillar kelgusida ushbu qonunning paydo bo'lishining ijtimoiy oqibatlaridan biri sifatida, professional jamoatchilikning aksariyat qismining o'z kasbiy darajasini muntazam oshirish borishi bilan bog'liq ijobiy amaliyotning rivojlanishini ko'rsatadi. Hayot davomida ta'lim "maktab eni yagona ta'lim hududi emas" degan postulatga asoslangan. Sohaga oid tadqiqotlarning kontent-tahlili Lifelong learning – hayot davomida ta'lim paradigmasi XXI asrning global xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan madaniyatlararo muloqot, o'z xatti-harakati uchun javobgarlik; tanqidiy tafakkur; xavflarni taxmin qilish; shaxsni o'zgarishlarga tayyorlash; barcha yoshdagagi insonlar uchun ta'lim; mehnat bozoridagi o'zgarishlarga moslashish; yangi sohalarning vujudga kelishiga relevant bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatga egaligini e'tirof etishga asos bo'ladi[10].

Mamlakatimiz milliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim makoniga kirib borishi taraqqiyotning muhim omili sifatida "hayot davomida ta'lim" konseptini keng formatda amalgalash oshirishni taqozo etadi. Zamonaviy talablar mutaxassislardan mobililikni, adaptivlikni, o'zgarishlarga moslashuvchanlikni, o'zgarayotgan bozor talablari sharoitida o'z kasbiy doirasida muvaffaqiyatga erishish uchun muntazam bilim va kompetensiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Ba'zi hollarda yangi kasbiy sohalarni o'rganish, kasbiy rollarni o'zlashtirish (ikkinchи kasbiy ijtimoiylashuv) haqida gap borishi mumkin.

YAKUNIY XULOSALAR

Shunday qilib, yangilanayotgan axborot-ta'lim muhitining semantik xususiyatlarini aniqlash

hayot davomida ta'lim paradigmasi kontekstida ta'lim oluvchining postindustrial axborot-bilimlar jamiyatida quyidagi aspektlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiylashuvini amalgalash oshirishga imkon beradi:

- yangi ijtimoiy tajribani o'zlashtirish;
- mehnat bozoridagi o'zgarishlarga adaptivlik;
- ijtimoiy intellektini rivojlantirish;
- shaxsiy motivatsiyani oshirish;
- bilimlarning yangilanish tezligini hisobga olgan holda shaxsiy ta'lim strategiyasini shakllantirish;
- yangi bilim va kompetensiyalarni o'zlashtirish, kasbiy daraja va rollar doirasini kengaytirish orqali kafolatlangan kasbiy karyera va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish.

Hayot davomida ta'lim paradigmasi insonni doimiy rivojlanuvchi sub'yekt sifatida tushunish haqidagi gumanistik imperativga tayanadi. Bu rivojlanish shaxsning ta'lim jarayoniga davriy qaytishiga ma'lum ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiya kontekstida ta'lim trayektoriyasi shartli xarakterga ega emas, shaxsning individual bilim faolligini nazarda tutadi, ta'lim shaxsning axborot-ta'lim maydonidagi selektivligi, motivlari, ehtiyojlari va faolligi tufayli amalgalash oshiriladi.

Yangi O'zbekistonning "raqamlı iqtisodi" diskursida hayot davomida ta'lim ekotizimini yaratish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- ta'lim trayektoriyasining barcha bosqichlarida (kasbga yo'naltirish, bakalavriat, magistrat, doktorantura, malaka oshirish, kasbiy qayta tayyorlash) uzlusiz ta'lim infratuzilmasini yaratish;
- hayot davomida ta'limning tashkiliy-institusional va moddiy-texnologik bazasini yaratish;
- yirik kompaniya, biznes-modellar, konsorsiumlar, ish beruvchilarning ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtiroy etish amaliyoti;
- sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlarining mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini prognoz qilish tizimini takomillashtirish, kadrlarga bo'lgan ehtiyojning aniq o'lchamli, kvantitativ, forsayt-tahlillarini amalgalash oshirish;
- ta'lim muhiti va iqtisodning real sektori vakillarini birlashtirgan texno-park, sanoat hududi, konsorsiumlarni tashkil etish;
- innovasion biznes-madaniyat muhiti, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish,

- laboratoriylar, ilmiy va o'quv markazlarini yaratish;
- turli yo'nalishlar bo'yicha ta'lif standartlari bilan tartibga solinadigan kasbiy kompetensiyalarning standartlari va majmuasini shakllantirish;
 - davlat ta'lif muassasalaridan tashqari turli tuzilmalar hamda korporativ ta'lifning imkoniyatlarini kengaytirish;
 - kattalar ta'lifining tarkibiy-texnologik asoslarini, axborot-ta'lif muhitini takomillashtirish.

Snoski / Iqtiboslar / References

1. Blaug M. Shumpeter, Yozef A. // 100 velikix ekonomistov do Keynsa. — SPb.: Ekonomikus, 2008. — S. 333. — 352 s. — (Biblioteka «Ekonomicheskoy shkoly», vyp. 42). ISBN 978-5-903816-01-9.
2. Verbiskiy A. A., Rymbakina N. A. Metodologicheskiye osnovy realizatsiya novoy obrazovatelnoy paradigmы // Pedagogika, 2014, — № 2.
3. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. http://www.muslimphilosophy.com/ik/Muqaddimah/Table_of_Contents.htm. (murojaat sanasi: 29.10.2022 y.).
4. Kornetov, G. B. Paradigmы povykh modeley obrazovatelnogo prosessa [Tekst] / G. B. Kornetov // Pedagogika. - 1999. - № 3. - S. 43-49.
5. Kun, T. Struktura nauchnyx revolyusi. M.: OOO «Izdatelstvo AST», 2003. 365 s. S. 13.
6. Lakatos, I. Falsifikatsiya i metodologiya nauchno-issledovatelskix programm. - M.: Medium, 1995. - 236.
7. M. Xoliqova. XXI asr axborot-ta'lif muhitini tashkil etishning paradigmal aspektlari. / Zamonaviy ta'lif. Ilmiy-uslubiy jurnal. №5(102) 2021. - 3-8 b. ISSN 2181-6514.
8. M. Xoliqova. Lifelong Learning paradigmasi kontekstida XXI asr kompetensiyalarining dunyo ta'lif dasturlariga implementatsiyasi (kontent-tahlil) / Zamonaviy ta'lif. Ilmiy-uslubiy jurnal. №12 (109) 2021. - 9-13 b. ISSN 2181-6514.
9. M. Xoliqova. Postindustrial tamaddun diskursida jamiyat va shaxsning konseptual muammolari. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnalı. 2022 yil. 5(1). - 45-54 b. ISSN 2181-9556. DOI 10.26739/2181-9556.
10. M.Xalikova. Hayot davomida ta'lif paradigmasi axborot jamiyatining muhim determinanti sifatida. - Jurnal sosialnyx issledovaniy, Tom 6 № 1 (2023). 22-30 s.
11. Nanotexnologii kak klyuchevoy faktor novogo texnologicheskogo uklada v ekonomike / Pod red. S. Yu. Glaz'yeva i V. V. Xaritonova. — M.: Trovant, 2009. — 304 s.
12. Severin S. N. Paradigmalnyye transformasii v nauke v kontekste postneklassicheskoy kultury // Lingvokulturnoye obrazovaniye v sisteme vuzovskoy podgotovki spesialista. 2016. t. 1. № 1 (9). s. 90-100.
13. Feyerabend, Pol. Protiv metoda. Ocherk anarxistskoy teorii poznaniya / Per. s angl. A. L. Nikiforova. — M.: AST; Xranitel, 2007. — 413 s. ISBN 978-5-17-041128-3.
14. Xabermas, Yu. Texnika i nauka kak «ideologiya» / Per. s nem. M.L.Xorkova. M.: Praksis, 2007. – 208 s.
15. Shlyaxova, I. B. Pedagogicheskaya paradigma, teoriya, problemy, poiski putey resheniya / I. B. Shlyaxova. Teoriya i praktika obrazovaniya v sovremennom mire. // Materialy VII Mejdunar. nauch. konf. (g. Sankt-Peterburg, iyul 2015 g.). Sankt-Peterburg: Svoje izdatestvo, 2015. - S. 54-64.
16. European Council Presidency Conclusions. — Lisbon, 2000. — 63 p. 3 b.
17. Popper, K. Normal Science and its Dangers // Criticism and the Growth of Knowledge. Cambr., 1970. P. 55-57.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ ПРАКТИКУ

Филиппов Ольгерд Александрович¹

А Н Н О Т А Ц И Я .

В статье исследуются ключевые аспекты влияния цифровизации на современную образовательную практику. Рассматриваются основные направления трансформации образовательного процесса под воздействием информационно-коммуникационных технологий, анализируются проблемы цифрового неравенства и уровня цифровой грамотности участников образовательного процесса. На основе исследовательских данных выявлены основные тенденции и проблемы интеграции цифровых технологий в образовательную среду. Предложены направления совершенствования процесса цифровой трансформации образования.

Kalit so‘zlar: ta’limni raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli tengsizlik, ta’lim paradigmalari, raqamli kompetensiyalar.

А Н Н О Т А Т С И Й А .

Maqolada zamonaviy ta’lim amaliyotiga raqamlashtirishning asosiy jihatlari tadqiq etilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’sirida ta’lim jarayonining transformatsiyasi yo’nalishlari ko’rib chiqilgan, raqamli tengsizlik muammolari va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilingan. Statistik ma’lumotlar asosida ta’lim muhitiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy tendensiyalari va muammolari aniqlangan. Ta’limni raqamli transformatsiya qilish jarayonini takomillashtirish yo’nalishlari tavsiya etilgan.

Ключевые слова: цифровизация образования, информационные технологии, цифровое неравенство, образовательные парадигмы, цифровые компетенции.

¹. НУБО “PROFI UNIVERSITY”, Навоийский филиал
olgerdphilippow@gmail.com

A B S T R A C T .

The key aspects of impact of digitalization on modern educational practices are investigated in the article. The main directions of educational process transformation under the influence of information and communication technologies are considered, along with the analysis of digital inequality issues and the level of digital literacy among the participants of educational process. Based on statistical data, the main trends and challenges in the integration of digital technologies into the educational environment are identified. Directions for improving the digital transformation of education are proposed.

Keywords: digitalization of education, information technologies, digital divide, educational paradigms, digital competencies.

В контексте эволюционного развития социально-экономических формаций цифровая трансформация представляет собой фундаментальный процесс качественного преобразования общественных институтов, детерминированный экспоненциальным ростом технологических инноваций и формированием принципиально новой парадигмы социального взаимодействия – программируемого общества [1]. Социально-философский анализ данного феномена позволяет констатировать, что современный этап цивилизационного развития характеризуется не просто технологической модернизацией, но глубинной трансформацией всех социальных подсистем, где информационные потоки и цифровые технологии выступают системообразующими факторами общественного прогресса.

Эмпирические исследования свидетельствуют о том, что формирование цифровой экономики, базирующейся на научёмких технологиях и информационном капитале, детерминирует радикальную реконфигурацию традиционных экономических моделей [2]. В данном контексте особую значимость приобретает концептуализация информации как стратегического ресурса, обладающего уникальными свойствами капитализации и мультипликативного роста, что существенно отличает его от классических факторов производства.

Имплементация цифровых технологий в образовательную экосистему характеризуется

полипарадигмальностью и многовекторностью, что обуславливает необходимость комплексного междисциплинарного подхода к исследованию данного феномена. Статистические данные демонстрируют, что интеграция искусственного интеллекта в образовательный процесс способствует существенному повышению его эффективности: согласно долгосрочным исследованиям Carnegie Mellon University (2023), применение адаптивных обучающих систем на базе ИИ коррелирует с повышением академической успеваемости в диапазоне 23-31%.

Особого внимания заслуживает анализ алгоритмических моделей машинного обучения, обеспечивающих персонализацию образовательных траекторий посредством многофакторного анализа паттернов когнитивного взаимодействия обучающихся с цифровым контентом. Эмпирическая верификация эффективности данных моделей свидетельствует об их высоком потенциале в контексте оптимизации образовательных процессов и достижения максимальной адаптивности учебных программ к индивидуальным особенностям обучающихся.

В условиях интенсификации процессов цифровой трансформации наблюдается фундаментальное переосмысление традиционных ролевых моделей в образовательном пространстве, характеризующееся существенной модификацией субъект-субъектных отношений

между преподавателем и обучающимся. Исследования демонстрируют парадигмальный сдвиг от классической модели трансляции знаний, где педагог выступал монопольным источником информации, к интерактивной образовательной экосистеме, основанной на принципах когнитивной самостоятельности и метапредметных компетенций обучающихся.

Институциональный анализ образовательной системы Республики Узбекистан свидетельствует о формировании многокомпонентной цифровой инфраструктуры, интегрирующей различные модальности образовательного взаимодействия [3]. Центральным элементом данной инфраструктуры является полифункциональная платформа Eduportal.uz, представляющая собой комплексное решение для реализации образовательных программ в цифровой среде. Особого внимания заслуживает мультилингвальный характер контента и инклюзивная направленность образовательных ресурсов, что соответствует современным принципам доступности и универсальности образования [4]. Значимым институциональным нововведением является платформа UZEDU, которая демонстрирует высокую эффективность в обеспечении континуальности образовательного процесса в условиях вынужденной дистанционализации обучения. Статистические данные, полученные Институтом прогнозирования и макроэкономических исследований, верифицируют существенное влияние платформы EduMarket на масштабирование образовательных возможностей: охват аудитории превысил 1,5 миллиона обучающихся, что свидетельствует о высокой социальной значимости данного проекта [5].

Компаративный анализ традиционных и инновационных образовательных практик позволяет констатировать смещение акцентов с репродуктивного усвоения информации на развитие метакогнитивных способностей и критического мышления. Исследования Центра экономических исследований и реформ Республики Узбекистан подтверждают положительную корреляцию между имплементацией цифровых технологий и развитием автономности обучающихся в образовательном процессе.

Интеграция глобальных информационных

сетей в образовательное пространство детерминирует фундаментальную трансформацию методологических подходов к оценке академических достижений и мониторингу образовательного прогресса обучающихся. В противоположность конвенциональной системе образования, где превалировали темпорально и пространственно лимитированные формы контроля, современная цифровая экосистема генерирует принципиально новые инструменты педагогического оценивания, включающие автоматизированные системы тестирования, электронные портфолио и комплексные платформы мониторинга индивидуальной траектории развития компетенций.

Коoperation международных научометрических баз данных в академическую инфраструктуру высших учебных заведений и исследовательских центров обеспечивает качественную модернизацию образовательной парадигмы. Интеграция таких информационных ресурсов, как JSTOR, Scopus и Web of Science, в научно-образовательное пространство Узбекистана, в частности в Национальном университете имени Мирзо Улугбека, способствует интенсификации исследовательской деятельности и повышению квалификации научно-педагогических кадров, что катализирует процесс инкорпорации национального научного сообщества в глобальный исследовательский контекст.

Однако экспоненциальное развитие информационно-коммуникационных технологий, наряду с очевидными преимуществами, генерирует комплекс новых вызовов, среди которых особую актуальность приобретает проблематика информационной доступности и избыточности. Согласно статистическим данным Государственного комитета Республики Узбекистан, несмотря на значительную пенетрацию интернет-технологий (22 миллиона пользователей, что эквивалентно 65% населения [6]), наблюдается существенная дифференциация в доступе к информационным ресурсам, обусловленная географическими и социально-экономическими факторами, что интенсифицирует цифровое неравенство и лимитирует возможности полноценной интеграции в глобальное информационное общество.

Анализ проблематики цифрового

неравенства демонстрирует её многоаспектный характер, где наряду с инфраструктурной асимметрией существенное значение приобретает дифференциация уровня цифровой компетентности населения. Эффективная интеграция в цифровое пространство детерминируется не только физической доступностью телекоммуникационной инфраструктуры, но и наличием специфических компетенций в области информационных технологий, существенно превосходящих уровень бытового применения цифровых устройств.

Компаративный анализ статистических данных Евростата демонстрирует значительную гетерогенность в распределении базовых цифровых навыков среди населения различных государств: от 79% в технологически развитых странах (Финляндия, Нидерланды) до существенно более низких показателей в странах Восточной Европы (Польша - 43%, Болгария - 31%, Румыния - 28% [7]). В контексте постсоветского пространства наблюдается относительно высокий уровень цифровой грамотности: Казахстан - 85%, Беларусь - 73%, Российская Федерация - 69%, Узбекистан - 63% [8].

Особую актуальность приобретает проблематика цифрового неравенства в контексте социальной стратификации и гендерной дифференциации. Согласно данным Международного союза электросвязи (ITU), наблюдается устойчивая гендерная асимметрия в доступе к цифровым ресурсам, где женщины демонстрируют на 17% более низкий уровень интеграции в цифровое пространство по сравнению с мужской частью населения. Данная тенденция особенно ярко проявляется в отдельных регионах Узбекистана, где гендерное неравенство в доступе к цифровым технологиям обусловлено комплексом социально-экономических и культурных детерминант.

Диалектическая трансформация информационно-коммуникационных технологий в современном обществе представляет собой многовекторный и полиморфный процесс видоизменения социально-экономической парадигмы, который не только катализирует беспрецедентные возможности для качественного развития и приумножения человеческого капитала, но и генерирует комплекс новых

мультидисциплинарных вызовов, требующих системной научной рефлексии и разработки эффективных регуляторных механизмов. Данный процесс, характеризующийся фундаментальным преобразованием институциональной архитектоники общества и реконфигурацией экономических отношений, детерминирует необходимость углубленного исследования его долгосрочных импликаций для эволюции человеческой цивилизации. При этом особую значимость приобретает анализ интерференции технологических инноваций с существующими социальными практиками и культурными паттернами.

Существенным аспектом данной проблематики является также вопрос социальной адаптации к технологическим инновациям, включая необходимость развития новых компетенций и переосмысливания существующих образовательных парадигм. В этой связи актуализируется потребность в создании интегративных моделей управления технологическими изменениями, учитывающих как технические, так и социально-гуманитарные аспекты цифровой трансформации. Таким образом, современный этап развития информационно-коммуникационных технологий требует комплексного междисциплинарного подхода, синтезирующего достижения технических, социальных и гуманитарных наук для формирования целостного понимания происходящих изменений и их долгосрочных последствий для человеческой цивилизации.

Использованная литература:

1. Белл, Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования /Пер. с англ.; под ред. В.Л. Иноземцева. М.: Academia, 1999. 956 с.
2. Высшее образование в XXI веке: подходы и практические меры. -М, 1999. 36 с
3. Арипов А., Бакиев, У. Цифровизация образования в Узбекистане: вызовы и перспективы. Ташкент: Издательство Ташкентского государственного педагогического университета. 2021, с. 76
4. Махмутходжаева Л. С. ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЕ И ЦИФРОВЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА // Открытое образование. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/onlayn-obrazovanie-i-tsifrovye-sredstva-obucheniya-v-vuzah-uzbekistana>.
5. Зокирова Н.К., Ходжаева М.Я., Абдуллаева Ш.Р., Сидикова Ф.Х., Абирова Г.Р., Махмутходжаева Л.С., Мамаева М.Э., Архангельская Е.Г.; под ред. Академика АН РУз К.Х. Абдурахманова. Организация дистанционного образования в современных условиях. Т.: Ташкентский филиал РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2020. 192с
6. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2021). Digitalization and Internet Usage in Uzbekistan. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_
7. [www.eurostat.europa.eu/eurostat/people with least basic overall digital skills](http://www.eurostat.europa.eu/eurostat/people_with_least_basic_overall_digital_skills) (дата обращения: 18.10.2023).
8. Аналитический обзор «Гендерный цифровой разрыв в Узбекистане» ПРООН Узбекистан, Ташкент, 2020.

INFOGRAFIK KONTENTLAR YARATISHNI O'RGATUVCHI PLATFORMALAR ISHLAB CHIQISHDA INFOGRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH

USE OF INFOGRAPHIC SOFTWARE IN DEVELOPING PLATFORMS THAT TRAIN THE CREATION OF INFOGRAPHIC CONTENTS

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОГРАФИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ РАЗРАБОТКЕ ПЛАТФОРМ, ОБУЧАЮЩИХ СОЗДАНИЮ ИНФОГРАФИЧЕСКОГО КОНТЕНТА

Anvarjon Abdujabborovich Maxkamov¹

УО'К 004.056.53

ANNOTASIYA.

Ushbu maqolada ayni globallashuv davrdagi ta'lif jaroyonida interaktiv kontentlarni ishlab chiqish va o'rgatishni samarali tashkil etish uchun mayjud dasturlardan foydalanib infografika yaratuvchi platforma yaratish keltirib o'tilgan. Shu qatori oliv ta'lif, o'rta maxsus, maktab ta'limi muassalarida o'qitish sifatini yanada oshirish maqsadida zamonaviy interfaol infografika yaratuvchi dasturlardan foydalangan holda infografika yaratishni o'rgatish haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Dars mashg'ulotlari davomida talabalarning ma'lumotlarni infografika yordamida yaratishga bo'lgan qiziqishi va mavzuni o'zlashtirishida qo'llaniladigan eng samarali dasturlar imkoniyatlari keltirib o'tilgan hamda platforma yaratilgan.

Kalit so'zlar: Infografik kontent, platforma, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsion strategiya, kompyuter grafikasi, vizualizatsiya.

¹. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasи dotsenti, PhD

А Н Н О Т А Ц И Я .

В данной статье представлено создание платформы создания инфографики с использованием существующих программ для эффективной организации разработки интерактивного контента и обучения в образовательном процессе в эпоху глобализации. Кроме того, в целях дальнейшего повышения качества преподавания в высших, средних специальных и школьных учебных заведениях дана краткая информация об обучении созданию инфографики с использованием современных интерактивных программ создания инфографики. В ходе уроков был подчеркнут интерес учащихся к созданию информации с помощью инфографики и возможности наиболее эффективных программ, используемых при освоении предмета, а также создана платформа.

А Н Н О Т А Ц И О Н .

In this article, the creation of a platform for creating infographics using existing programs for the development of interactive content and effective organization of teaching in the process of education in the era of globalization is mentioned. In addition, in order to further improve the quality of teaching in higher education, secondary special, and school educational institutions, brief information was given about teaching how to create infographics using modern interactive infographic creation programs. During the lessons, students' interest in creating information using infographics and the possibilities of the most effective programs used in mastering the subject were highlighted, and a platform was created.

Keywords: Infographic content, platform, digital technologies, digitization, innovation strategy, computer graphics, visualization.

Ключевые слова: Инфографический контент, платформа, цифровые технологии, цифровизация, инновационная стратегия, компьютерная графика, визуализация.

KIRISH

Ayni vaqtga kelib butun dunyoda raqamli transformatsiya jarayonlari davom etar ekan, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyotga o'tishni boshladi desak adashmagan bo'lamiz. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va uni amalga oshirish uchun strategik yo'nalişlarining qabul qilinishi, birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini yaratadi.

Ta'lrim jarayonida interaktiv kontentlarni ishlab chiqishda zamonaviy infografik dasturlardan foydalanib dars jarayonini olib borish va o'rghanuvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlash keng qo'llanilmoqda. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini yanada yahshilashda turli-tuman dasturlar bilan boyitish hamda on-line ko'rinishda dasturlarni o'rgatish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga

olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirgan holda, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni on-line tayyor platformalardan foydalanib mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda veb texnologiyalar jumladan veb sayt va platformalarni yaratish hamda ular orqali dars jarayonini boyitishga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli bu bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. So'ngi vaqtlarda internetni shiddat bilan rivojlanishi va uning foydalanuvchilari sonini kundan-kunga ortib borganligi bois, internetda turli yo'nalişlardagi veb sahifalar soni ham ortib bormoqda. Internet orqali savdo-

sotiq ishlarini olib borish, masofadan turib nufuzli oliygohlarga o'qishga kirish va ularda ta'lif olish ham mumkin. Turli provayderlar nafaqt firma va kompaniyalar balki dunyo bo'ylab millati, dini va tilidan qat'iy nazar oddiy fuqarolar uchun ham internetda o'z sahifalarini joylashtirgan holda dars mashg'ulotlarini sifatli olib borish imkoniyatini taklif etmoqda.


Infografika ma'lumotlarni taqdim etish, vizual aloqa uchun samarali vosita sifatida uzlusiz ta'lif jarayonida muhim o'r'in egallamoqda. Infografika bu ma'lumotlarni taqdim etish uchun keng imkoniyatlari va samarali vosita, fan yuzasidan terminlarni tushuntirish, taqdimotlarni soddalashtirish, aloqalarni xaritalash, tendentsiyalarni ko'rsatish va asosini ta'minlashga mo'ljallangan zamonaliviy texnologiya hisoblanadi[1].

Infografika texnologiyasidan foydalanish orqali jozibali tasvirlar, mavhum g'oyalarni tushunishni osonlashtiradi, shuning uchun ular ta'lif tizimida

va boshqa sohalarda ham keng ko'lamda taraqqiy etmoqda. Ushbu texnologiya ta'lif jarayonida quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- axborotni tezroq uzatishga yordam beradi;
- kengaytirilgan hamkorlik, tushunish, jalb qilish imkonini yaratadi;
- murakkab jarayonlarni soddalashtirish va osonroq tushuntiradi;
- bir nechta tushunchalarni solishtirish va qarama-qarshi qo'yishda yordam berish;
- tizimli va rejali foydalanilganda taqdimotlarni namoyish qilish;
- hisobotlar, loyiha yoki tadqiqotlarning ma'lumotlari va xulosalarini yoritib berish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lif tizimida murakkabligi asosida infografika quyidagi toifalarga bo'lingan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:



1-rasm. Infografik ma'lumotlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan toifalar

Yuqorida keltirilgan infografikaning turlarini quyidagicha izohlash mumkin[4]:

Animatsiyalangan infografika bu - foydalanuvchi o'zgacha ijodiy g'oyalarni taqdim etish va tomoshabinlar e'tiborini jalg qilmoqchi bo'lganida ranglar, poplar, tovushlar, silliq o'tishdan foydalanadi.

Taqqoslash infografikasi taqqoslash uchun foydalaniladi. Ikki yoki undan ortiq hodisalar, harakatlar, g'oyalalar, jarayonlar, mahsulot, ma'lumotlar, shaxslar yoki joylar grafikaki, tasvirlar, rasmlar va boshqalar.

Geografik infografika oddiydan murakkabgacha bo'lgan keng doiradagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Murakkab ma'lumotlar va ularni yanada sodda va tushunarli qilish. Ushbu ma'lumotlar to'plamini taqqoslash sifatida ishlashi mumkin.

Turli darajadagi axborotni ierarxik tarzda tushuntirish uchun **ierarxik infografikadan** foydalaniladi.

Axborot infografikasi - bu ma'lumotlarni osonlik bilan yaratishga qaratilgan axborotning vizual tasviri bo'lib, birinchi qarashda tushunarli bo'ladi.

Interfaol infografika Snap ilovasi foydalanuvchilarga diagramma va grafiklarni qanday birlashtirganini ko'rsatadi.

Ro'yxat infografikasi o'quvchilar va auditoriya e'tiborini jalg qilish va oshirishda samarali jalg qilish, foydalanuvchilarga ma'lumotlarni ro'yxatlarga ajratish imkonini beradi, bu ularni oddiy ro'yxatlardan ko'ra jozibali qilib ko'rsatishga yordam beradi.

Fotografik infografika axborot yoki tushunchani tushuntirish uchun fotosuratlar va matnlardan foydalanadi.


Jarayon infografikasi murakkab g'oyalalar, tushunchalar va vizual tasvirlarni soddalashtirish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Vaqt jadvali infografikasi murakkab ma'lumotlarni soddalashtiradi va uni qiziqarli hamda tushunishni osonlashtiradi. Agar foydalanuvchi muayyan voqeа tarihini tasavvur qilish yoki asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish niyatida bo'lsa bu tur mos keladi.

Vizual infografika foydalanuvchi ma'lumotlarning asosiy qismini qisqartirgan holda, aniq va axborot almashish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, infografikada tasvir takrorlanmaydi balki, og'zaki matn orqali uni tuzishga yordam beradi. Tasvir axborot kontsentrasiyasini oshiradigan qo'shimcha ma'nolarni yaratadi[3].


Shu bilan birga qo'shimcha ma'no qo'shadigan informatsion tasvirning namunasini quyidagi rasmda keltirilgan.



2-rasm. Infografika yordamida o'simliklarning biologik tarkibiy tuzilishining ifodalanishi

Ushbu infografik ishlanma orqali urg'u berilgan mahsulotning kimyoviy tuzilishi to'g'risida to'liq ma'lumot olishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan dasturlar yordamida ma'lumotlarni qiziqarli hamda tushunarli tarzda taqdim etishda keng foydalaniadi. Har bir dasturning o'ziga xos hamda yo'naltirilgan funksiyalari bo'lib, bunday dasturlar sirasiga:



3-rasm. Canva dasturining ish stoli

Infographics

Accessible


Reports

Presentations

Diagrams


Charts

See More



Timeline Infographic

Make an infographic to visualize project milestones or product stages.



Process Infographic

Break down complex processes into simple steps with an infographic template.

PLAN FEATURES	WEBSITE BUILDER MONTHLY PRICING PLANS		
	\$0 per month	\$14 per month	\$24 per month
Free Custom Domain	✓	✓	✓
SEO Control	✓	✓	✓
Email Service	✗	✓	✓
Live Chat	✗	✗	✓
Forum	✗	✗	✓
www.knowza.com	FREE	BASIC	ULTIMATE

Comparison Infographic

Compare, highlight and make a point with your business communications.

4-rasm. Venngage dasturining ish stoli

Venngeage - bu infografika, hisobotlar va ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish uchun onlayn dastur hisoblanadi. Vizualizatsiya uning asosiy tarkibiy komponenti hisoblanadi.




Why Piktochart ▾ Templates ▾ Resources ▾ Pricing & Plans ▾

Login

Meet the next generation of infographics

Introducing Piktochart's latest AI-powered infographic maker. Turn **any idea** into a professionally designed infographic, poster, banner, and more **in seconds**, tailored to your brand's voice.

Piktochart dasturi orqali onlayn auditoriya uchun slaydlar, taqdimotlar, e'lonlar, havolalar hamda statistik hisobotlarni tayyorlash uchun dasturiy vosita hisoblanadi.



5-rasm. Piktochart dasturida ish stoli

Ushbu dasturlar yordamida foydalanuvchilarning ma'lumotlarini infografika sifatida tasvirlash mumkin. Shu bilan birga, ularni vizual ko'rinishda ifodalaishga yordam beradi[1, 2].


Yuqorida keltirilgan dasturiy ta'minotlar yordamida quyidagi infografik ishlanmalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.



6-rasm. "Wellnor" tabiiy dori mahsulotlarining ifografik rasm ko'rinishida ifodalanishia

Shu bilan birga, infografik kontentlar yaratishga yordam beruvchi platformalar orqali ushbu ishlanmalar xosil qilinadi. Xususan quyidagi infografik rasm piktochart platformasi yordamida tayyorlangan bo'lib, uning ko'rinishi rasm shaklidagi ma'lumotlar asosida yig'ilgan hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki so'nggi yillarda saytlar o'z axborot uzatish formatida infografikadan keng foydalanmoqda. Infografikadan foydalanilgan nashrlar, ilmiy ishlar hamda barcha ishlanmalar soni kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa yanada o'quvchini diqqatini o'ziga tortadi.



7-rasm. Piktochart platformalar orqali tayyorlangan infografik rasm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahkamov A.A.“Infografik Ma'lumotlar Vizualizatsiyasi” fanidan O'quv Qo'llanma – T.: “Zamon poligraf” nashriyoti, 2023. - 160 bet.
2. Екатерина Круглова. Инфографика и визуализация данных., МГУ имени М.В.Ломоносова, 2018. – 63 с.
3. Xudayberganov T. R. *Multimedia tizimlari va texnologiyalari o'quv uslubiy majmuasi*. Urganch-2021. - 132 b.
4. Alberto Cairo “The Functional Art: An Introduction to Information Graphics and Visualization” (2020), “The Truthful Art: Data, Charts, and Maps for Communication” (2022).

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda infografikadan to'g'ri foydalanish yanada dolzarb vazifaga aylanmoqda hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni yetkazib berishda infografika asosiy vositaga aylanib bormoqda. Uning yordami bilan biz statistika va murakkab jarayonlarni tahlil etishimiz, kompaniyaning rivojlanish yo'lini aniq belgilashimiz hamda yangi tovarlar to'g'risida iste'molchilarining xabardorligini oshirishimiz mumkin.

IQTISODIYOT FANLARI

MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING O'RNI VA ROLI

Meliyev Vohidjon Pulatovich¹

ORCID:0009-0003-9671-4517

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va ularni qo'llash orqali vijudga kelgan yangi neobank (Fintech, challeng) firmalar va kompaniyalar, moliyaviy xizmatlar, yangi imkoniyatlar va xatarlar (risk) yoritilgan. O'zbekiston banklari tomonidan yangi raqamli bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli innovation texnologiyalar, moliyaviy inkluyziya, BIG DATA, bulutli xisoblash, sun'iy intellekt, kraudsorsing, blokchayn, kriptoaktiv, neyron tarmoqlari, internet buyumlari.

Kirish.

Mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirish, unda mijozlarga yo'naltirilgan bank xizmatlari sifati va ko'lamenti kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan chora-tadbirilar bevosita amaliy axamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda texnik va texnologik rivojlanish, internet rivoji chegarabilmas imkoniyatlar eshigini ochib dunyoning istalgan nuqtasidan moliyaviy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Boshqacha aytganda bugungi raqamli iqtisodiyot dunyo integratsiyasini rivojlantirib raqobatni kuchaytirmoqda.

Bu jarayonlarni avvalo iqtisodiyot soxasida, yanada aniqroq qilganda, moliya-bank tizimida

yaqqol ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, deyarli barcha internetdan foydalanuvchi, elektron pochtaga ega bo'lgan fuqarolarga rivojlangan davlatlar (Angliya, AQSH, Rossiya va boshqa) dan kuniga 10 dan ortik moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi banklar, investisiya fondlari, brokerlik firmalari investisiya faoliyati va undan qo'shimcha daromad topish bo'yicha taklif xatlari kelmoqda. Ular o'z taklif xatlarida fond birjalariga xalqaro val'yutada pul tikishlikni va undan xaftalik, oylik qo'shimcha daromad olib turish mumkinligini va eng qizig'i buning uchun kuniga atiga 30 minut ajratish yetarligi xamda ular bilan ishlansa fond birjalaridagi savdolarda doimiy barqaror daromad ko'rib turish mumkinligi keltirilgan. Ular kanday qilib xatlar yuborib, telefonlar kilmoqda va nima uchun ular bilan ishlansa fond birjalaridagi savdolarda doimiy barqaror daromad ko'rib turish mumkinligini aytmoqda?

1. Profi University "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktaranti
E-mail: melievv500@gmail.com

Tadqiqot metodologiyasi.

Raqobatli bozor sharoitida moliya-bank tizimi institutlari, jumladan neobank (FinTech, Challeng kompaniyalar tomonidan kiritilgan moliyaviy innovatsiyalarni o'rganish uchun yuqori kontekstli tadqiqotlarda tobora ko'proq foydalilaniladigan amaliy tadqiqotlar metodologiyasidan foydalanimiz.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob topishga qaratilgan:

1. Axolini moliyaviy bozorlarga jalb etish uchun moliya-bank institutlari tomonidan qanday maxsulotlar innovatsiyasi amalga oshirilmoqda?
2. Raqamli banklar va neobank kompaniyalari an'anaviy banklar bilan qanday raqobatlashadi?
3. Raqamli banklar va neobank kompaniyalari tomonidan kiritilayotgan innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari qanday?

Taxlil va natijalar muxokamasi.

Yuqorida keltirilgan savollarning javoblari bevosita raqamli iqtisodiyot texnologiyalari xamda sun'iy intellekt rivoji bilan bog'liqdir.

Moliyaviy xizmatlar bozoridagi raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar moliyaviy resurslarni jalb etish, ularni taqsimlash, jarayonlarni tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish xamda raqobatni kuchayishiga olib keldi. Bu esa moliyaviy institutlarning yangi turlari (FinTech kompaniyalar) paydo bo'lishi va ko'payishiga xamda raqamli banklarning paydo bulishi va an'anaviy banklarning transformatsiyalashuvini talab qilmoqda. Shu bilan birga yangi texnologiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish mijozlarga yo'naltirilgan yangi maxsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish imkoniyatlarini olib beradi xamda moliyaviy inklyuziyani kuchaytiradi.

Yangi texnologiyalar va maxsulotlarni ishlab chiqarishning muxim jixati xam moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishdir. Mobil telefon operatorlari mijozlarga asosiy bank xizmatlarining "elektron pul" xizmatlarini taklif etayotganligi inklyuziv innovatsiyalarga misol bo'ladi. Moliyaviy innovatsiyalar natijasida bank tizimidagi o'zgarishlarning yana biri raqobatchi banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Xalqaro Valyuta jamg'armasining 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra raqamli moliya moliyaviy inklyuziyaga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu shuningdek mamlakatda YAIMning o'sishiga ta'sir qilib, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozdan xalos bo'lishda mxim rol o'ynashi

mumkinligini ko'rsatadi. Jaxon bankingning 2017 yildagi tadqiqotida "mobil pul ... odamlarning daromad olish potensialini yaxshilashga yordam berishi va shu bilan qashshoqlikni kamaytirishi mumkin"ligi aytildi.

Investisiyalarni jalb etish YeI mamlakatlari uchun xam muxim masala bo'lib raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali bunga erishishga xarakat qilmoqda. Shu sababli Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Kengashi raqamli moliyaviy innovatsiyalar mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning samaradorligi va shaffofligini oshirishi mumkinligini tasdiqladi.

Ya'ni raqamli moliyaviy texnologiyalar yordamida barcha fukarolar mablag'lari kam bo'lsada investiya faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Yukoridagi misolda keltirilgan xatlarning ko'vida mendan xisob rakam oolib kamida 150, 300 AQSH \$ qo'yib daromad topishim mumkinligi aytilgan. Ushbu ochiladigan xisob raqamlar esa albatta O'zbekistonda emas balki chet elda ro'yxatdan o'tgan investisiya kompaniyasiga tushadi. Natijada rivojlanmagan mamlakatlardagi axolining investisiyaga (qo'shimcha daromad olishga) yo'naltirmoqchi bo'lgan bo'sh pul mablag'lari rivojlangan mamlakatlarda to'planishiga va ularning iqtisodiyoti rivojiga yordam berishiga olib keladi. Albatta biz misolda ko'rayotgan xolat bir kishi va kichik miqdordagi summaligi sababli unchalik arzimasday ko'rinishi mumkin, lekin 2017 yili Angliyada ro'yxatdan o'tib, 2018 yil Litvadan bank faoliyatini amalga oshirish bo'yicha lisenziya olgan Revolyut bank MCHJ mijozlari o'sishini o'rganadigan bo'lsak qisqa 2 yillik davrda 12 mlndan ortiq jismoniy shaxslarni jalb etganligi naqadar ulkan natija bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Endi ushbu moliya tashkilotlari qanday raqamli texnologiyalardan foydalangan xolda axoliga tezkor xizmatlar ko'rsatayotganligi va investisiyaga yo'naltirilayotgan mablag'larni zararsiz ko'paytirib berish uchun vadalar berayotganligini ko'rib chiqaylik.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi va texnologik jarayonlarning transformatsiyalashuvi avvalo mijozga yo'naltirilgan (shaxsga moslashtirilgan) xizmat modellari, targetlangan bozor, «Big Data», «Artificial intelligence», «Artificial neural network», kvant texnologiyalari, «Internet of Things», «Blockchain technology», «3D printing» kabi texnologiyalar rivojlanishi o'rtacha statistik iste'molchining emas, balki har bir muayyan mijozning talab va ehtiyojlariga javob beradigan

tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga imkon beradi.

BIG DATA- katta ma'lumotlar, birinchi navbatda ma'lumotlarni qayta ishlashning an'anaviy dasturi bilan ishlash uchun juda katta yoki murakkab bo'lgan ma'lumotlar to'plami. Katta ma'lumotlar almashinuvini optimallashtirish orqali bozor va mijozlarni tezkor o'rganish va taxlil qilish, yangiliklardan xabardor qilish imkonini yaratib berdi.

Cloud computing- Bulutli texnologiyalar yordamida platforma, infratuzilma va dasturiy vosita xizmatlarini tashkil qilish mexanizmi, usul va tamoyillari asosida bulutli xisob-kitobni amalga oshirish xizmatlari.

Sun'iy intellekt (Artificial intelligence AI) - kompyuter va dasturlar tomonidan ko'rsatiladigan aql-idrok – ma'lumotlarni idrok etish, taxlil va sintez qilish xamda xulosa chiqarish.

Kraudsorsing- oddiy insonlarning yaratuvchanligi, tajriba va bilimlariga asoslangan holda muammolarni hal etish va yangi brendlarni yaratishdir. Kraudsorsing texnologiyasi yordamida inson resursidan foydalaniib biznes, ijtimoiy va siyosiy muammolarga yechim topish mumkin.

Blokchayn- taqsimlangan ma'lumotlar reyestri, unda barcha ma'lumotlar ketma-ket yoziladi va bloklarga taqsimlanadi, bunda har bir yangi blok kriptografik imzo orqali avvalgi bloklar bilan bog'liq bo'ladi. Bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya. Masalan, blockchain da pul ko'chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin.

Kriptoaktiv- blokcheyndagi qiymati va egasi bo'lgan yozuvlar jamligi.

Artificial neural networks (ANNs)- odatda oddiygina neyron tarmoqlari deb atalib, bu jonzod miyasini tashkil etuvchi biologik neyron tarmoqlaridan ilxomlangan xisoblash tizimi.

Internet of Things- bu bir-biri bilan yoki tashqi muxit bilan o'zaro ta'sir qilish uchun o'rnatilgan vositalar va texnologiyalar bilan jixozlargan narsalar o'tasida ma'lumotlarni uzatish tarmog'i. Bunday tarmoqlarni tashkil etish iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni qayta qurish, ba'zi xarakatlar va operatsiyalarni inson ishtirokisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Rivojlangan mamlakatlar yuqorida keltirib o'tilgan texnologik innovatsiyalarni faol qo'llashga kirishganligi natijasida Moliya-bank faoliyati rivojlanib, an'anaviy banklarga raqobatcha bo'lgan

neobank yoki raqamli o'zgaruvchin (challenge) banklar moliya bozoriga kirib kelib investisiya faoliyati va fond bozorlarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Biz ko'rib chiqayotgan misolda xam xat yuborayotgan firmalar xam asosan anashunday o'zgaruvchan (neobank) shaklidagi firmalar bo'lib, ular dunyoning istalgan xududlarida internet buyumlari yordamida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirmoqda. Internet aloqa mavjud bo'lgan xolda qisqa vaqtda kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali xisobraqam ochish, plastik kartadagi pul mablag'larini konvertatsiya qilish, kerakli xisobraqamlarga o'tkazish, ularda yaratilgan platformalar orqali fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi amaliyotlarini bajarish, birjalardagi xolat bo'yicha ma'lumotlar olish, BIG DATA, Cloud computing, Sun'iy intellekt dasturlari va texnologiyalaridan foydalangan xolda ular tomonidan sizga beriladigan ma'lumot va yo'riqnomalar asosida birjalarda ishslash (pul tikish) orqali zarar ko'rmasdan daromad topishingiz mumkin. Lekin bizga ma'lumki xar qanday tavakkalchilikka asoslangan faoliyat foyda yoki zarar keltiradi. BIG DATA, Cloud computing, Sun'iy intellekt dasturlari va texnologiyalaridan foydalangan xolda faqat foyda ko'raman deb ishslash noto'g'ri bo'ladi. Shu sababli ushbu neobank firmalari portfelini xedjirlashni amalga oshirib boradi. Shu orqali ular siz tikkan pullar bilan fond va valyuta birjalaridagi savdolarda zarar ko'rsangiz xam ma'lum bir vaqt davomida sizni zararsiz faoliyat yuritayotgan yoki foyda ko'rayotgan qilib turadi. Virtual pullar, virtual karta dasturlari yordamida esa sizga daromadlar berib boy boy xam qilib qo'yadi. Lekin ushbu mablug'larni o'z plastik kartangizga tushurib olishligingiz yoki naqd pul shaklida olishinigiz uchun siz xaqiqatda birja savdolaridagi faoliyatda foyda ko'rgan bo'lisingiz kerak bo'ladi. Umuman olganda ushbu neobank (o'zgaruvchan) firmalar tomonidan taklif qilanayotgan xizmatlar pul o'tkazmalari, onlayn konvertatsiya, elektron pullar, virtual karta, keshbek xamda xamda investision daromad olish oddiy fuqarolarning doimiy talab va extiyojlarini xisobga olgan xolda ishlab chiqilganligi, vositachilik xaqlarining arzonligi (ayrim xollarda bepul), qisqa vaqtda (bir zumda) amalga oshirish imkoniyatlari butun dunyo axolisini jalb etmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, raqamli innovation texnologiyalardan samarali foydalanish moliya-bank tizimida axoli talab va extiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan moliya-bank xizmatlarini

joriy etish imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Kapital bozorini va kichik investorlar uchun muqobil investisiyalarni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirib, innovasion texnologiyalarni qo'llash orqali axolini jalb etib, mijozlar to'plamoqda xamda ularning bo'sh pul mablag'lardan foydalangan xolda katta foyda ko'rmoqda. Umumiy qilib aytganda, moliya-bank institutlari investisiya takliflari moliyaviy inklyuziyani oshiradigan va ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradigan innovatsiyadir.

Shundan kelib chiqib raqobat bozorida ustunlikka ega bo'lish uchun O'zbekiston bank tizimini transformatsiya qilish, raqamlı texnologiyalarni qo'llashga keng yo'l ochib berish orqali axoliga:

- dunyodagi barcha valyutalarni almashinish kurslarini belgilaydigan dasturni joriy etish orqali barcha valyutalar konvertatsiyasini yo'lga qo'yish;
- dunyo bo'yicha ishlaydigan va istalgan mamlakatlar valyutasiga to'g'ridan to'g'ri konvertatsiyalanadigan plastik kartalar joriy etish;

- plastik kartalar yoki virtual kartalardagi pul mablag'lari koldig'iga kunlik daromad to'lab borish;
- jamg'arib boriladigan depozitlar bo'yicha xukumat darajasida soliq imtiyozlari (daromad solig'idan ozod qilish, bugungi kunda ipoteka, ta'lim kreditlariga berilgandek) berish orqali foiz stavkalarini oshirish;
- bank API adreslari bo'yicha bank va nobank xizmatlarni yagona ilova orqali xizmat ko'rsatish platformalarini integratsiyalash, multivalyuta dasturlarini ishlab chiqish orqali xorijiy mamlakatlar bank xizmatlari bozoriga kirib borish maqsadga muvofiq bo'lib, bu orqali axolining bo'sh pul mablag'larini O'zbekiston banklarida jamlanib borishi xamda axolining ushbu mablag'lardan investisiyaviy daromad olib turishinita'minlaydi

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020 yil 15 fevraldag'i 13/3-sont qarori ilovasi "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi" qoidalari.
3. Koenig-Lewis, N., Palmer, A., Moll, A., 2010. Predicting young consumers' take up of mobile banking services. International Journal of Bank Marketing 28 (5), 410-432.
4. Laforet, L., Li, X., Consumers' attitudes towards online and mobile banking in China. International Journal of Bank Marketing 2005, 23 (5), 362-380.
5. Mamadiyarov, Z. (2021). Analysis of factors affecting remote banking services in the process of bank transformation in Uzbekistan. Financial and credit activity: problems of theory and practice, 1(36), 14-26.
6. Wessels, L., Drennan, J., 2010. An investigation of consumer acceptance of M-banking. International Journal of Bank Marketing 28 (7), 547-568.
7. Lee, (2009) Factors influencing the adoption of internet banking: An integration of tam and Tpb with perceived risk and perceived benefit. Electronic Commerce Research and Applications, 8 (3), pp. 130-141.
8. Yang et al. (2015) Exploring consumer perceived risk and trust for online payments: An empirical study in China's younger generation computers in Human Behavior, 50, pp. 9-24
9. Featherman and Pavlou (2003) Predicting E-services adoption: A perceived risk facets perspective International Journal of Human-Computer Studies, 59 (4), pp. 451-474

Internet manbalar:

10. https://cbu.uz/oz/press_center/news/268736/
11. <https://cybersecure.uk.com/biggest-risks-of-online-banking-and-how-to-avoid-them/>

BIRGALIKDAGI FAOLIYAT HISOBI VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Yakubov Ulugbek Kosimovich¹

ANNOTASIYA.

Global iqtisodiyotda kuzatilayotgan murakkab vaziyatga qaramasdan mamlakatni rivojlantirish strategiyalariga muvofiq iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgani hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlarning amalga oshirilishi hisobiga, 2024 yilda: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 473 trln so‘m yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,8 foizga oshishi; – eksport (oltinsiz) hajmining 19,1 foizga o‘sishi[1] kutilmoqda. Bunda o‘sishning qo‘llab-quvvatlovchi omillari bo‘lib, investorlar uchun qulay investitsion muxit yaratish hisobiga, birgalikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish bilan mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida zarur bo‘lgan mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘yilishi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standart (keyingi o‘rinlarda – MHXS)larini amaliyotga joriy etilishi va ular asosida moliyaviy tahvilni tashkil etilishi qulay investitsion muhit yaratilishida dastlabki bosqich sanaladi.

АННОТАЦИЯ.

Несмотря на сложную ситуацию, наблюдалась в мировой экономике, благодаря реализации реформ, направленных на либерализацию экономики в соответствии со стратегиями развития страны и реализацией программ, направленных на развитие отраслей, отраслей и регионов, в 2024 году: 473 трлн суммов. увеличения объема инвестиций в основной капитал или на 19,8% по сравнению с соответствующим периодом предыдущего года; - Ожидается увеличение объема экспорта (без золота) на 19,1%. В этом случае поддерживающими факторами роста являются производство продукции (по отрасли), необходимой для социально-экономической жизни страны, за счет создания благоприятного инвестиционного климата для инвесторов. Внедрение международных стандартов финансовой отчетности (далее – МСФО) и организация финансового анализа на их основе является первым шагом на пути создания благоприятной инвестиционной среды.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR: Qo‘shma faoliyat; qaram, sho‘ba korxona; birgalikdagi faoliyat; birgalikdagi operatsiya; bosh korxona; hisobot taqdim etuvchi korxona; axamiyatli ta’sir; konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot; dividend; ulushli ishtirok; sof aktiv.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Совместная деятельность; зависимое, дочернее предприятие; совместная деятельность; совместная операция; материнская компания; отчетное предприятие; значительное влияние; консолидированная финансовая отчетность; дивиденды; долевое участие; чистый актив.

¹. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.), professor Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliyaviy tahvil” kafedrasи.

A B S T R A C T .

Despite the complex situation observed in the global economy, due to the implementation of reforms aimed at liberalizing the economy in accordance with the country's development strategies and the implementation of programs aimed at the development of industries, sectors and regions, in 2024 it is expected that: - 473 trillion soums of the volume of investments in fixed capital or 19.8% increase compared to the corresponding period of the previous year; - 19.1% increase in the volume of exports (without gold). In this case, the supporting factors of growth are the production of products (work, services) necessary for the social and economic life of the country, at the expense of creating a favorable investment climate for investors.. Implementation of international standards of financial reporting (hereinafter referred to as IFRS) and organization of financial analysis based on them is the first step in creating a favorable investment environment.

KEYWORDS: Joint activity; dependent, subsidiary enterprise; joint activity; joint operation; parent company; reporting enterprise; significant impact; consolidated financial statement; dividend; equity participation; net asset.

KIRISH.

Xalqaro valyuta jamg'armasining 2024 yil sentabr oyidagi hisobotiga ko'ra, "O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi 2024 - yilda 5,6 foizga, 2025 yilda 5,7 foizga prognoz qilingan. Asosiy kapitalga investitsiya 2024 yilda 473418 mlrd so'mni tashkil etgan holda, 2025 yilda 9,7 foizga, 2026 yilda 9,5 foizga va 2027 yilga kelib 9,2 foizgacha o'sishi prognoz qilinmoqda" [2]. Importning 2024, 2025, 2026, 2027 yillarda o'sish sur'ati 1,2; 4,3; 4,7; 5,2 foizni tashkil etib, eksportining mos davrlarda 13,7; 7,4; 11,5; 11,8 birlikka oshishi prognoz qilinmoqda. 2024 yilda inflyatsiyaning 9 foiz darajasida saqlanishi, 2025 yilda 7,0 foiz, 2026 yilda 5-6 foiz, 2027 yilda 5 foiz bo'lishi bashorat qilinmoqda. Savdo kanallari va moliyaviy oqimlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xalqaro tranzaksiyalarni sanksiyaga uchramagan kanallar orqali amalga oshirish talab etiladi. Biroq keng ko'lamli logistika muammolari mahsulotlarni yetkazib berish bilan bog'liq kechikishlarga va xarajatlarning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Shu sababdan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda investitsion faoliyat hisobini samarali tashkil etish va iqtisodiy tahlili asosida muhim

boshqaruva qarorlarini qabul qilishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari yanada rivojlantirilmoqda. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, shuningdek yirik korxonalarni fond birjasni orqali xususiylashtirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida tan olingan 62 ta MHXS tarkibida birgalidagi faoliyatni tartibga soluvchi:

1. "Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish" (24-son), "Alovida moliyaviy hisobot" (27-son), "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar" (28-son) nomli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti;

2. "Biznes birlashuvlari" (3-son), "Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot" (10-son), "Birgalidagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar" (11-son), "Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish"

(12-son) nomli Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi hududida tan olingan 62 ta MHXSning 11,3 foizi bиргаликдаги faoliyatni tartibga soluvchi hujjat hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 14226 tani tashkil etib, shundan, 4576 tasi qo'shma korxonalar va 9650 tasi xorijiy korxonalar hisoblanadi [3]. Qayd etish kerakki, mavjud 4576 ta qo'shma korxona bevosita bиргаликдаги faoliyat ob'ekti sanaladi. Ularning samarali faoliyatini tashkil etish, buxgalteriya hisobini to'g'ri olib borish, ma'lumotlar oshkoraliqi va shaffofligini ta'minash bugunning muhim vazifasi sanaladi.

Ta'kidlash kerakki bиргаликдаги faoliyatning huquqiy asosi yaratilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 507-son bilan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risida Nizom", Moliya vazirligi bilan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Fondi o'rtaida 2020 yil 11 noyabrdagi "2045-UZ-MoF-Open Licence with Translation-2020"-sonli bitim ijrosi yuzasida 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi. Mazkur MHXS hujjatlari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi **61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"**gi buyrug'i Adliya vazirligi tomonidan **2022 yil 9 dekabrda 3400**-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilib, ular O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olindi.

METODOLOGIYA.

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil va yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, iqtisodiy va statistik tahlil, katta sonlar tahlili, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellashtirish va istiqbolli prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJASI.

Tahlil natijalariga ko'ra, Buxgalteriya hisobi va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida bиргаликдаги faoliyatning o'ziga xos jihatlari: mulkdagi tutgan ulushi; faoliyatga ta'siri; hisob metodikasi bilan belgilangan.

Bиргаликдаги faoliyat ishtirokchilarining mulkdagi ulushi 50-100 foiz darajasida bo'lganda faoliyat bosh tashkilot tomonidan nazorat etiladi va umumlashgan moliyaviy hisobot tuziladi. Mulkdagi ulushning 20-50 foizda bo'lishi faoliyatda ishtirokchilarining axamiyatli ta'siri va hissali hisob metodi amal qiladi [9]. Guruh ishtirokchilarining mulkdagi ulushi 20 fizdan past bo'lganda, investorlarning faoliyatga ta'siri axamiyatsiz yoki umuman bo'lmaydi, haqiqiy qiymat bo'yicha hisob yuritiladi.

O'rganishlardan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, bиргаликдаги faoliyat yuzasidan moliyaviy hisobotlar qanday tartibda, texnikada, o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib tuzilishidan qat'iy nazar, ularning ma'lumotlari asosida shu vaqtgacha olib borilgan moliyaviy tahlil samarali xulosalar olinishiga yetarli bo'lмаган. Negaki, konsolidasiyalashga moliyaviy hisobot ma'lumotlari umumiyo ko'rsatkichlar asosida, xususan: to'lov qobiliyati, aktivlar aylanishi kabilar bilan yo'lga qo'yilgan bo'lib, bular faoliyatni baholash uchun yetarli emas, deb hisoblayman. Chunki, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlar asosida aniqlangan to'lov qobiliyati yoki boshqa ko'rsatkichlar, guruh ishtirokchilarining joriy majburiyatlarini qoplash darajasiga mos bo'lmaydi. Shu sababdan, konsolidasiya texnikasidan kelib chiqib, bиргаликдаги faoliyatga quyidagicha baho berish metodikasi ishlab chiqildi:

Birinchi yondoshuvda mulkdagi ulush 50-100 foizni tashkil etadi. Bunda mulkdorlar kam bo'lib, ularning ulushi 50 foizdan oshiqligi bois, hisobot davrida sotishdan oлган foydaning o'sishiga qarab faoliyat ijobiy baholanadi.

Ikkinci yondoshuvda, mulkdagi ulush 20-50 foizni tashkil etganda hisobot davrida sotishdan olingan foydasining ortishi bilan bir vaqtida majburiyatlarining kamayishiga qarab hamkorlik samarali deb baholanadi.

Uchinchi yondoshuvda, mulkdagi ulush 1-20 foizni tashkil etganda guruh ishtirokchilarini ko'pchilikni tashkil etadi. Shu sababdan, sotishdan olingan foydaning ortishi, majburiyatlarining kamayishi va aktivlarning o'sishidan kelib chiqib bиргаликдаги faoliyatni samarli ekanligini baholash belgilandi.

Ta'kidlash kerakki, har bir faoliyatni samaradorligi uning erishgan daromadi bilan bog'lanishi zarur. Moliyaviy hisobotni taqdim etishning konseptual asosida: - "Daromad xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog'liq bo'limgan xususiy kapitalning o'sishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi" [9], deb ta'rif berilgan. Shu sababdan bиргаликдаги faoliyat natijalarini xususiy kapitalning badallarsiz o'sishini aktivlarning ortishi bilan baholash maqsadga muvofiq sanaladi.

DISKUSSIYA.

Qo'shma korxonalar - tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ko'p uklatlari iqtisodiyotda xo'jalik yuritishning usuli va takror ishlab chiqarishni baynalminalashuvini ta'minlaydi. Korxona va tashkilotlarning sheriklar bilan munosabatlarini kengaytiradi. Qo'shma korxonalar aralash mulkchilikning ko'rinishi xisoblanib, bunda davlat, jamoa va xususiy mulk umumlashadi. Ta'sischilar davlat korxonalari va tashkilotlari, jamoa xo'jaliklari, xissadorlik jamiyatlar hamda jamoat tashkilotlari, fuqarolar (jismoniy shaxslar) bo'lish huquqiga ega.

Buxgalteriya hisobining 28-sonli "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar" nomli xalqaro standarti ta'sir ostidagi tashkilotlarga: investitsiyalar hisobini, investitsiyalarni hisobga olishda ulushli qatnashish usulini qo'llash talablarini belgilaydi. Ushbu standartning, 3- "Tariflar" bo'limida: - "Ta'sir ostidagi tashkilot - bu investor ahamiyatli ta'sirga ega bo'lgan tashkilotdir", "Qo'shma korxona - bu birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv bo'lib, bunda faoliyat bo'yicha birgalikdagi nazoratga ega tomonlar faoliyatning sof aktivlariga nisbatan huquqlarga ega bo'ladi", deb ta'rif berilgan [4].

Moliyaviy hisobotning:

3- "Biznes birlashuvlari" nomli xalqaro standarti hisobot beruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida aks ettiriladigan biznes birlashuvlari va ularning ta'sirlari to'g'risidagi ma'lumotlarning o'rnliligi, ishonchliligi hamda taqqoslanuvchanligini ta'minlashdan iboratdi. Mazkur standartga ko'ra: - "Biznes birlashuvi - biznesni xarid qiluvchining bir yoki undan ortiq bizneslar ustidan nazoratga ega bo'lishidagi operatsiya yoki boshqa hodisadir...", deb ta'riflangan [5].

"Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot" nomli 10-sonli xalqaro standarti xo'jalik yurituvchi sub'ekt bir yoki bir nechta boshqa tashkilotlarni nazorat qilgan hollarda konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish tamoyillarini belgilaydi. Ushbu standartda: - "Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot - bosh tashkilot va uning sho'ba tashkilotlari aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadi, xarajatlari va pul oqimlarini yagona xo'jalik sub'ektiga tegishli deb taqdim etiladigan tashkilotlar guruhining moliyaviy hisoboti", deb ta'riflangan [6].

11 - sonli "Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar" nomli xalqaro standarti birgalikda nazorat qilinadigan faoliyat bo'yicha kelishuvlarda ishtirok etish bo'yicha ulushga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish tamoyillarini belgilaydi. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv - bu ikki yoki undan ortiq tomonlarni birgalikdagi nazoratga ega bo'lgan faoliyat bo'yicha kelishuvdir [7] deb, ta'riflangan.

"Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish" nomli 12-sonli xalqaro standartda xo'jalik yurituvchi sub'ektdan moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilarga: uning boshqa tashkilotlardagi ulushlarining xarakterini va ular bilan bog'liq risklarni; bunday ulushlarning tashkilotni moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlariga ta'sirini baholash imkonini beradigan ma'lumotlarni yoritib beradi [8].

Birgalikdagi faoliyatni tartibga soluvchi buxgalteriya hisobi xujjatlari ko'p. Biroq ularning barchasini bilish, o'ziga xos talablarini o'rganish talab etiladi. Negaki, ularning ba'zilari birgalikdagi faoliyatning nazariy assosini belgilasa, keyingisi ularni buxgalteriya hisobiga, muomalalarini olib borilishiga bag'ishlangan.

XULOSA.

Birgalikdagi faoliyatda ishtirokchilar bir qancha bo'ladi. Ishtirokchilar manfaatlaridan kelib chiqib: birgalikda aktivlarni boshqarishi; birgalikda muomalalarini amalga oshirishi; yangi xo'jalik yuritish sub'ektni tashkil etishi mumkin [10]. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida xo'jalik sub'ektlarining kapitaldagi ulushiga muvofiq faoliyatga ta'sir etishning nazorat ($C \geq 50\%$), axamiyatli ($50\% \geq C \geq 20\%$) va axamiyatsiz ($20\% \geq C \geq 0\%$) ssenariylari asosida birgalikdagi faoliyat samaradorligini aktivlar, tushum va sof foya o'rtasidagi $1 < I_A < I_T < I_{SF}$ aloqadorlikda

baholashning maqsadga muvofiq [10]. Faoliyat natijasi yuqoridagiga asoslangan tartibning saqlanishi bilan belgilanadi.

$$I_{SF}^1 / I_{SF}^0 > I_T^1 / I_T^0 > I_A^1 / I_A^0 > 1 \text{ yoki}$$

$$I_{SF}^1 / I_{SF}^0 * 100 > I_T^1 / I_T^0 * 100 > I_A^1 / I_A^0 * 100 > 100$$

Bunda: I_{SF}^1 / I_{SF}^0 - sof foydaning o'sishi;

I_T^1 / I_T^0 - tusumming o'sishi;

I_A^1 / I_A^0 - aktivlarning o'sishi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida erishilgan samaradorlik hisobiga yuqoridagi nisbatlar saqlanmasa jarayonni foydali bo'lganligi, har bir ishtirokchining moliyaviy barqarorligini ta'minlanganligi shubxali bo'ladi. Negaki, faoliyatning foyda bilan chiqish hollatlarida ham xo'jalik yurituvchi sub'ekning nobarqorligi kuzatilgan. Bu bevosita taqsimlanmagan foydaning sifati, xususan uning debitorlik majburiyatlari yoki aktivlarning boshqa (pul mablag'laridan tashqari) turlarida jamlanishi bilan izohlanadi.

Shu sababdan, birgalikdagi faoliyat natijasiga baho berishda samaradorlikni ko'rsatkichlarning o'tgan davrlarga nisbatdan o'zgarishiga qarab, «yuqori» ($0,75 \leq I_1 \leq 1,00$), «o'rtacha» ($0,50 \leq I_2 \leq 0,74$) va «past» ($0,00 \leq I_3 \leq 0,49$) daraja toifalariga ajratilgan holda baholash yo'nalishlarda baholash maqsadga muvofiq sanaladi [11].

T A S H A K K U R N O M A .

Tadqiqot davomida [08.00.08-“Buxgalteriya](#) hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo'yicha ilmiy maktab rahbarlari prof. M.Pardayev, prof. R.Dusmuratov, prof. A.Ibragimovga, tadqiqot o'tkazilgan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga tashakkur izhor etaman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Byudjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
2. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2024/10/22/world-economic-outlook-october-2024>.
3. <http://www.stat.uz>.
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 28 - "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar".
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 3 - "Biznes birlashuvlari".
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 10 - "Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot".
7. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 11 - "Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar".
8. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 12 - "Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish".
9. Moliyaviy hisobotni taqdim etishning konseptual asosi.
10. Yakubov, U., & Begjigitov, E. (2024, April). ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY AND ITS SOURCES OF INFORMATION. In International Conference of Academic Sciences (Vol. 3, No. 4, pp. 107-111).
11. Yakubov, U. K., Abduganieva, K. B. (2023). Issues of protection from economic risks by organizing accounting of foreign economic activity of an economic entity on the basis of international standards.

PEDAGOGIKA FANLARI

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHGA INNOVASION YONDASHUV

X.I. Ibraimov¹

Jamiyatimiz shiddat bilan rivojlanayotgan ekan, yosh avlod taqdiriga befarq bo'lmagan har bir fuqaro ushbu jarayonda kelajak avlod tarbiyasida yanada sergak va ma'suliyatlari bo'lishi davr talabiga aylanmoqda. Butun dunyoda rivojlangan davlatlarning bu darajaga ko'tarilishida albatta kadrlar tayyorlash tizimiga berilayotgan e'tibor va tizimli islohotlar turganligi bizga ma'lum. Bu jarayonlarga uzlusiz ta'limda kadrlar tayyorlab beruvchi oliy ta'lim tizimining roli va ahmiyatini katta. Yurtimizda olib boriladigan pedagogik jarayonlarga ta'limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va sifatlari pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yilgan.

Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi. Amerikalik psixolog E.Rodgers o'z tadqiqotlarida innovation xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtaqidagi innovation harakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va

kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayon majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra, har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'yeqtarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi. Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahmiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'yektiv, mahalliy va shartli g'oyalari tarzida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovation jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatilai.

Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning

¹ T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p sub'yektl (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzuksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarining imkoniyatlari, xohish-istiklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish zarur.

Kadrlarni tayyorlashda innovation pedagogika hozirgi davr texnologik taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlariga asosan, oliy pedagogik ta'limni rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni taqdim etib kelmoqda. Bu borada e'tibor oliy pedagogik ta'lim jarayonini yangicha asosda amalga oshirish va yangi texnologiyalarni puxta egallagan kadrlar tayyorlashga qaratiladi.

Buning uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasi va xalqaro hamkorlik zarur. Uning vositasida kadrlar tayyorlash jarayonini kuchaytirish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan pedagogik tajribasini uyg'unlashtirgan holda oliy pedagogik ta'limni amalga oshirish hamda innovation kompetensiyalarga ega, oliy ma'lumotli pedagoglarni tayyorlash oliy pedagogik ta'lim bo'yicha yo'lga qo'yilib, asosiy e'tibor bo'lg'usi kadrlarning nazariy va amaliy ko'nikmalarini uyg'un tarzda shakllantirishga qaratiladi. O'quv jarayonining pedagogikasining milliy tajribasi hamda xalqaro baholash ta'lim dasturlari qoidalari asosida ishlab chiqildi.

Bu jarayonda ta'lim beruvchilar va bilim oluvchilar innovation texnologiyalar imkoniyatiga tayangan holda teng ishtiroy etganini eslash joiz.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, davlat uchun kadrlarni tayyorlash har bir bo'lg'usi pedagogning kasbiy va umumiyo rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, innovation ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahan hamjamiyati uchun oliy ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovation loyihalardan – kutilayotgan natija samaralarni baholashda ijobjiy va salbiy omillarning ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning salmog'i nihoyatda oz. Ushbu masala yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilganligi natijasida innovation loyihalarni samaradorligi loyihaviy boshqaruvga bog'liqligini ko'rib chiqildi.

Oliy ta'lim tizimida innovation faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy va ilmiy jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha yangi dasturlar ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalanim, yangi uslubdagi masofaviy ta'lim tizimi (MTT) ni shakllantirish va hayotga tatbiq etish masalasiga ham e'tibor qaritish payti keldi, degan fikr bildiriladi. Buning uchun birinchi navbatda MTT ning asosiy me'yoriy hujjatlari ishlab

chiqilishi lozim. So'ng masofaviy ta'limga bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash hamda oliy ta'limga muassasalarida masofaviy ta'limga markazlarini tashkil etish kerak.

2. Oliy ta'limga boshqaruv jarayonida rahbar kadrlar boshqaruv yechimlarini ishlab chiqishda va joriy etishda zamonaqiy boshqaruv tizimini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorini modernizatsiya qilish, korporativ madaniyatni takomillashtirish, samarali monitoring tizimini joriy qilish, kadrlar malakasini oshirish, konsalting xizmatlari bozorini va innovasion infratuzilmani rivojlantirish kabi muammolarni hal etishi lozim. OTM boshqaruv jarayoni samaradorligini boshqaruv jarayoni va amaliy faoliyat natijalari o'rtasidagi bog'liqlik jihatlarini aniqlash, tashkiliy tuzilmadagi mezonlarga ko'ra boshqaruv jarayoni samaradorligini ekspert tizimli baholash usullarini qo'llash va olingan natijalarni tahlil qilish orqali baholash lozim.

3. O'zbekiston Respublikasi hududlarida Oliy ta'limga boshqaruv kadrlarni tayyorlash va ularni zaxirasini shakllantirib to'g'ri taqsimlash bo'yicha ehtiyojni aniqlash uchun ta'limga tizimi monitoringini yuritish, hududiy dasturlarni ishlab

chiqish hamda ta'limga muassasalarini ixtisosligi, mutaxassisliklarga o'zgartirish va tuzatishlar kiritish, zarur holatlarda yangi yo'nalishlar ochish va hududdagi ta'limga muassasalariga qabul kvotalari parametrlarini belgilash zarur.

4. Mehnat bozorida talab yuqori darajadagi innovasion faol mutaxassislarini fanlararo tayyorlash va malakasini oshirish;

5. Fundamental va amaliy ilmiy izlanishlarni, ba'zi hollarda tajriba konstrukturlik ishlarini bajarish (intellektual mulk ob'yektlari, nou-xau, lisenziya, patentlar, yangi usullar, ilmiy izlanish va boshqalar natijasi).

6. Ilmiy izlanish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha professoro'qituvchilarni, ilmiy xodimlarni, doktorant, mustaqil-izlanuvchilarni va talabalarni o'qitish.

7. O'qitish jarayonida tinglovchi va talabalarga turli tarmoq va sohadagi zamonaqiy innovatsiyalar haqida bilimlarni tarqatish (o'quv mashg'ulotlarini tarmoqlarni innovasion faoliyati keng o'rganilib, innovasion korxonalar bazasida o'tkaziladi. Bu orqali OTM ta'limga xizmati bozorida o'z raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibraimov X.I., Qur'onov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., "Shaffof", 2023, 416-bet.
2. Innovasion ta'limga texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

TA'LIM VA ILM-FAN SOHALARIDA XOTIN-QIZLAR ROLI

N.M. Egamberdiyeva¹

ANNOTASIYA.

Mazkur maqolada mamlakatimizda demokratik, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtida ta'lif va ilm-fan sohalarida xotin-qizlarning rolini oshirishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: ta'lif, ilm-fan, gender tenglik, oila, xotin-qizlar faolligi, ilmiy faoliyat.

AHNOTACIIA.

В данной статье говорится о реформах, которые реализуются для повышения роли женщин в сфере образования и науки в то время, когда в нашей стране происходят демократические, общественно-политические и социально-экономические изменения.

Ключевые слова: образование, наука, гендерное равенство, семья, женская активность, научная деятельность.

ANNOTATION.

This article is about reforms that are being implemented to increase the role of women in education and science at the time when democratic, socio-political and socio-economic changes are taking place in our country.

Key words: education, science, gender equality, family, women's activity, scientific activity.

¹ "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktori pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatni har bir shaxsning ijtimoiy faolligini talab etadi. Ijtimoiy faollik esa huquqiy savodxonlik bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham ayollar huquqlarini himoya qilish, xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ularning faolligini oshirish, shuningdek, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan birga, ta'lim va ilm-fanda faolligini oshirish, hunar egallashi uchun zarur shart sharoitlar yaratish hamda bandligini ta'minlashdan iboratdir.

Respublikamizda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish borasida ildam qadamlar qo'yilmoqda. Buning huquqiy isboti yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" – deya e'tirof etilishi bo'ldi¹.

So'nggi etti yilda mamlakatimizda demokratik ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, xotin-qizlarning faol ishtirokini inobatga olgan holda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi hamda boshqaruvdagi o'rnnini yanada oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun imkoniyat yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq shunday bo'lsa-da, xotin-qizlarni fan, ta'lim va ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish, ishlash istagidagi xotin-qizlarning bandligiga ko'maklashish, tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda rahbar lavozimlaridagi ulushini oshirish, shuningdek, huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida bir qator kamchiliklar mavjud².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
(Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон)

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Оила ва хотин-қизлар кўмитасининг фаолиятини таомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-208-сонли Фармони. www.lex.uz/docs/6704824

va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni imzolandi. Farmonga ko'ra, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish; xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish; xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash; xotin-qizlar o'rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbazarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash belgilandi³.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi faol islohotlar davrida O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu borada qo'lga kiritayotgan yutuqlarimiz BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda boshqa ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Xususan, O'zbekiston xotin-qizlarini huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida ko'plab amaliy qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqсадада: Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 февралдаги "Хотин-қизларни кўллаб-куватлаш ва оила инститutini mustahkamlash соҳасидаги фаолиятини тубдан takomillashtiriш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5325-сонли Farmoni. www.lex.uz

ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan⁴.

Hozirgi kunda oliyohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi, ya'ni 653 ming nafardan ziyyodini qizlar tashkil etsa, magistraturada o'qiyotgan yoshlari orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani. Joriy o'quv yilida ehtiyojmand oilalariga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliyohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlарimiz uchun imtirozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, etim qolgan yoki ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy budgetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari budget hisobidan qoplanmoqda. Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababl xotin-qizlar bu yo'nalihsida ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi etti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi. Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliyohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalihsida ish olib bormoqda⁵.

Xotin-qizlarning barcha ilmiy va innovatsion kashfiyotlarda tengma-teng ishtirokini ta'minlash orqaligina sayyoramizda ilm-fan butun insoniyatga xizmat qilishiga erishishimiz mumkin. Bu o'rinda, albatta, xotin-qizlarni iqlim o'zgarishidan toki sog'liqni saqlash va sun'iy intellekt sohalarigacha bo'lgan jamiki ilmiy jarayonlarga faol jalb etish haqida so'z bormoqda. Shu munosabat bilan BMT

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишлисанган тантанали маросимдаги нутқи. <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/2176>

Bosh kotibi Antoniu Guterrish 2024-yil 9-fevral kuni, 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuniga bag'ishlangan bayonotida ayollar va qizlarning ilm-fan yo'lida yuksalishlariga tizimli g'ov-to'siqlar va turli johilliklar haligacha xalal berayotganiga e'tiborni qaratdi. Uning ta'kidlashicha, "Bu holat dunyomizni buyuk iste'doddardan mahrum etmoqda".

YUNESKO ekspertlarining fikricha, xotin-qizlar raqamli iqtisodiyotning uzviy bir qismiga aylanishi darkor. Toki, To'rtinchi industrial inqilobda gender tengsizlik kabi nomaqbul an'anaga o'r'in qolmasin.

Ilm-fan sohasida jinsiy mansublik bilan bog'liq kamsitishlarga qarshi kurashning muhim choralaridan biri – olimalarga bo'lgan talabni hisobga olgan holda, tegishli ma'lumotlar bazasini yaratishdir. Hozirda ushbu ma'lumotlar ustida ishlayotgan tashkilot o'z tarkibida 500 nafar olimani jamlagan. Ular, bir tomondan, xotin-qizlarga ta'lim olish va ishga joylashishda ko'maklashayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muayyan natijaga erishganlarni rag'batlantirish bilan izchil shug'ullanmoqda.

Biroq erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda, ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Xotin-qizlar ilm-fan, shuningdek, kompyuter, informatika, muhandislik, texnologiya sohalarida haligacha etarli darajadagi mavqega ega emas. Bu holatni ayollarning "ojiza"ligi yoki bola-chaqa va ro'zg'or tashvishlariga o'ralashib qolishi kabi omillar bilan bog'lab talqin qiladiganlar uchun hayotiy bir misol keltiramiz. Ilmiy izlanishlar olib borayotgan xotin-qizlar, odatda, istiqboli beqaror va oylik maoshi yuqori bo'lмаган lavozimlarda ishlar qilmoqda. Ularning tadqiqotlari mashhur jurnallar sahifalarida etarli darajada yoritilmayapti va mehnatlari mansab pillapoyalaridan ko'tarilishida inobatga olinmayapti.

Davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi mamlakatimizda ilm bilan shug'ullanadigan ayollar safi kengayishiga xizmat qilmoqda⁶. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi shu kabi hal qiluvchi islohotlar, yanada aniq qilib aytganda, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida erishilgan amaliy yutuqlar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda, xususan, xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga yanada keng jalb etishda ulkan omil bo'lmoqda.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 марта "Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-куvvatlashga doir iшларни янада жадаллаштириш чоратадбирлари тўғрисида"ги ПФ-87-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/5899498>

O'zbek olimalari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarda ayniqsa faol izlanmoqdalar. Ta'lif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rinni tutadi. Ammo, tabiiy fanlar, matematika, injiniring, texnologiya, sanoat va qurilish sohalarida nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda ayollarning o'rni hamda mavqeい ancha quyida ekanidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Binobarin, Nobel mukofoti tarixida ilm-fan sohasida ushbu mukofotga sazovor bo'lgan xotin-qizlar soni atigi 3 foizni tashkil etishining o'ziyoq buni ochiq-ravshan tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimiz rahbari boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'yilmoqda.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarni ta'minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Ayollarning jamiyatdagi o'rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarni himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aslida ham har qanday rivojlangan jamiyat qanchalik taraqqiy etgani o'sha yurtda ayolga bo'lgan munosabat va e'tibor, ularga yaratilgan imkoniyatlar ko'lami hamda darajasi bilan belgilanib kelgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-sonli Farmoni. [www.lex.uz/docs/6704824](http://lex.uz/docs/6704824)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://lex.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. [https://lex.uz/docs/5841063](http://lex.uz/docs/5841063)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/2176>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5899498>

MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINING SAMARADORLIK MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

N.M. Dalimova¹

ANNOTASIYA.

Ma'lumki, hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri maktab va oila hamkorligi masalasidir. Mazkur maqola ushbu dolzarb masalaga bag'ishlangan bo'lib, unda maktab va oila hamkorligini samaradorlik ko'rsatkichlari va mezonlari yoritilgan.

AHNOTAЦИЯ.

Всем известно, одной из актуальных тем на сегодняшний день является вопрос сотрудничества школы и семьи. Данная статья посвящена, этому актуальному вопросу в которой рассматриваются показатели и критерии эффективности сотрудничества школы и семьи.

ANNOTATION.

Everyone knows that one of the topical issues today is the issue of cooperation between schools and families. This article is devoted to this topical issue, which examines the indicators and criteria for the effectiveness of cooperation between schools and families.

Kalit so'zlar. Maktab, oila, hamkorlik, samaradorlik ko'rsatkichlari, ta'lim sub'ektlari.

Ключевые слова. Школа, семья, сотрудничество, показатели эффективности, субъекты образования.

Keywords. School, family, cooperation, performance indicators, subjects of education.

¹. "Profi University" Pedagogika va psixologiya kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Mezon	Ko'rsatkich	Daraja		
		yuqori	o'rta	past
Refleksiv	Oila bilan o'matilgan munosabatlardan qoniqqanlik darajasi	Maktab oila bilan doimiy aloqa o'rnatgan, hamkorlik har ikki tomonga ham xursandchilik keltiradi.	Umuman olganda, o'zaro hamkorlik ikki tomonning ham kutuvlariiga mos keladi, ammo ba'zida tomonlarda norozilik hissini vujudga keltiradigan vaziyatlar paydo bo'ladi	Oila va maktab hamkorligi bir tomonlarga amalga oshiriladi hamda tomonlarning umidları qondirilmaydi.
	O'zaro hamkorlik muvaffaqiyatini baholash	Hamkorlik muvaffaqiyatli qurilgan, chunki yuzaga keladigan barcha muammolar psixologik aloqa va o'zaro tushunishga erishilganlik tufayli o'z vaqtida hal qilinadi.	Hamkorlik ko'proq muvaffaqiyatli va samarali deb tan olinadi, ammo vaqtiga qo'shilgan paydo bo'ladigan muammolar har doim ham hal etilmaydi.	Hamkorlik samarali emas, chunki paydo bo'lgan muammolarni o'z vaqtida hal qilish uchun qaytar aloqa yo'q va bu holda mutaxassislarning yordami talab etiladi.
Faoliyatli	Motivatsion	Oila va maktabning o'zaro hamkorligini aniqlaydigan turli xil motivlar (3 dan ortiq) bor. Maqsadlarga erishish uchun oila (maktab) bilan hamkorlik qilishga undaydigan barqaror shaxsiy sabablar mavjud.	Maktabda va uyda bolani tarbiyalash bilan bog'liq masalalarni konstruktiv hal qilishga imkon beradigan, samarali hamkorlikni belgilaydigan 2-3 turdag'i motiv va ustamovkalar mavjud.	O'zaro hamkorlik uchun 1-2 motiv mavjud, asosan vaziyati, ya'ni -maktab ma'muriyatining talabları, bolaning iltimosi, oilani o'rganish bilan bog'liq.
Tashkiliy-faoliyatli		Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorlikning turli shakklarini qayd etishadi (6 dan ortiq).	Hamkorlik ham guruhiy, ham individual shaklda amalga oshiriladi (3-5 hamkorlik shakli).	Muloqot ota-onalar majliyalarini telefon suhbatlari bilan cheklangan (hamkorlikning 2 shaklidan ko'p bo'lмаган)

Kognitiv-emotsional	<p>Konstruktiv hamkorlik</p> <p>Samarali hamkorlikka yo'nalganlik, oila va maktab hamkorligi doirasida shaxslararo qiyinchiliklarni barteraf qilish, o'zaro ishonchni kuchaytirish, shaxsiy potensiallarni ochish va hamkorlik faoliyatida samarali natijalariga erishish</p> <p>Hamkorlikning o'zaro ahamiyati</p>	<p>Pedagog yoki ota-onasamarali hamkorlikka yo'nalgan, lekin ko'pincha guruhning fikriga yo'nalgan bo'ladi va hamkorlik ko'pincha rasmiy ko'rinishga ega</p> <p>Bu guruhdagilar uchun o'zaro hamkorlik ijobiy mazmuniga ko'ra qadrlı hisoblanadi. Hamkorlik aloqalarida ijobiy hissiyotlar kuzatiladi, ota-onava o'qituvchilar o'ziga, o'z kuchiga ishongan, emotsiyonal etuklikni ko'rsatishadi.</p>	<p>Ushbu guruh vakillari paydo bo'lgan muammolarini konstruktiv birgalikda hal qilishga qodir emaslar, hamkorlik jarayonida shaxsan ishtirok etishdan qochishadi</p> <p>Ota-onva pedagoglar o'zaro hamkorlikni neutral baholashadi, ular o'z rollariga doir vazifalarini bajarayotganda qat'iy chegaralarni saqlashadi.</p>
---------------------	---	---	---

"Oila va maktab, go'yoki sohil hamda ummondir. Sohilda bola birinchi qadamlarini qo'yadi, hayotning birinchi saboqlarini oladi, so'ngra uning oldida cheksiz bilimlar ummoni ochiladiki, bola ushbu ummonda adashib qolmasligi uchun maktab yo'lboschchi bo'ladi", - deb yozgandi Lev Kassil.

Ya'ni, bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ta'lim muassasasini oila bilan mustahkam bog'lamacdani, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatlari amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir o'quvchi-talabani yaxshi inson qilib tarbiyalashdan ustoz-murabbiy ham, ota-onalar ham manfaatdor. Maqsadlarning birligi esa ustoz-murabbiyni ota-onalar bilan bog'lab turadi. Ustoz-murabbiyning ota-onalar orasidagi obro'si ko'pincha o'quvchi talabanining fikri, mulohazalari asosida ham shakllanadi. Shuningdek, ustoz murabbiyning ota-onalar to'g'risidagi fikri ham o'quvchi-talabanining suvrati va siyratidan olgan taassurotlariga asoslanadi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarni kengaytirish, ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning barcha ishlarda har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur buladi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatyaptiki, maktab ota-onalarga muvaffaqiyatlari ta'sir ko'rsatishi, oila va maktab hamkorligi mustahkam bo'lishi uchun o'qituvchi nafaqat o'z o'quvchisini, balki uning ota-onasi, oilaviy munosabatlari, ushbu oilanining qadriyat va an'analarini, hayot tarzini, axloqiy munosabatlarini hamda oilaviy sharoiti, oiladagi tarbiya usullarini ham bilish muhimdir.

Maktab va oila hamkorligi borasida mavjud muammo va echimlar ko'plab maqolalarning mavzusiga aylangan. Ushbu maqolaning maqsadi esa maktab va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni baholashning mezon va ko'rsatkichlarini yoritib berishdan iborat. Quyida T.N. Pozdnyakova tomonidan ishlab chiqilgan o'zaro hamkorlikni baholash mezon va ko'rsatkichlari berilgan bo'lib, unda asosiy mezon sifatida refleksiv mezon (pedagog va ota-onalarning sub'ektiv baholashi), faoliyatli mezon (sub'ektlarning hamkorlik faoliyatida qatnashishi) hamda kognitiv-emotsional mezonlar olingan. Oila va maktab hamkorligini yanada smarasini oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadiga muvofiqliqdir:

– maktab tom ma'noda tarbiya markazi bo'lishi uchun o'qituvchi va ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlarini bir-birlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi shart.

Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota-onalarga tarbiya ishida va bolalarning mehnati va dam olishini ko'ngildagidek uyuştirishda amaliy yordam berishi;

– Ota-onalar o'rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada qiyinchilikka uchrayotgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim.

– Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni ta'lim muassasining kengaytirilgan yig'ilishlariga, ota-onalar qo'mitalarining majlislariga taklif etish va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni yo'lga qo'yish nihoyatda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliev X.A. Oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini takomillashtirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021
2. Коваленко Т.В. Моделирование взаимодействия семьи и школы в условиях современного начального образования: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Омск, 2016. – 27 с.
3. Позднякова Т.Н. Проблемы взаимодействия семьи и школы в современной образовательной практике. Мир науки. Педагогика и психология 2019, №5, Том 7. – 1-9.

BOLALARNING SIFATLI TA'LIM OLİSHIDA OTA-ONALAR ROLI

Ulug'bek Po'latov Shavkat o'g'li¹

A N N O T A T S I Y A :

Ushbu maqolada bolalarning sifatli ta'limga olishida ota-onalarning roli va uning ta'siri haqida so'z yuritiladi. Unda ota-onalarning ta'limgagi roli, ularning bolalarga namuna bo'lishi, ta'limga jarayonida faol ishtirok etishi va bolalarni qo'llab-quvvatlashiga oid tahliliy ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, ota-onalarning ta'limgagi faolligi natijasida bolalarda o'ziga ishonch, yaxshi ta'limga natijalari va rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishi haqida ham tahliliy ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: ota-onalar, pedagog xodimlar, bolalar, ta'limga, oila, respondentlar, so'rovnoma, sifatli ta'limga.

A H N O T A Ç I Y A :

В этой статье рассматривается роль и влияние родителей на получение детьми качественного образования. Анализируются данные о том, как родители могут служить примером для своих детей, активно участвовать в образовательном процессе и поддерживать их. Также исследуются результаты родительской активности в образовании, которые способствуют формированию у детей уверенности в себе, хороших образовательных результатов и развитых социальных навыков.

Ключевые слова: родители, педагоги, дети, образование, семья, респонденты, опросник, качественное образование.

A B S T R A C T :

This article discusses the role and influence of parents on their children's quality education. It presents analytical data on various aspects of parental involvement, including serving as role models, actively participating in the educational process, and providing support. The analysis also explores how parental engagement contributes to the development of self-confidence, academic success, and social skills in children.

Keywords: parents, educators, children, education, family, respondents, survey, quality education.

¹. Profi University pedagogik masalalar bo'yicha maslahatchi

“

“Ota-onalarning munosabatini o’zgartirmagunimizcha, ularning farzandlar uchun mas’uliyatini oshirmagunimizcha, hech narsaga erisha olmaymiz.”

Shavkat MIRZIYOYEV

Bugungi kunda bolalarning ta'limga olishidagi muvaffaqiyati juda ko'p omillarga bog'liq. Bu omillar ichida ota-onalar, xususan, otalarning roli muhim o'rinni tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, otalar o'z farzandlarining ta'limga olishi va rivojlanishida faol ishtirok etganlarida, bolalar ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar. Ota-onalarning maktab va boshqa ta'limga muassasalaridagi faol ishtiroki bolalar ta'limga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar yig'ilishlariga qatnashish, farzandlarining uy vazifalariga yordam berish va ularning ta'limga faoliyatini kuzatish bolalarning muvaffaqiyatini oshiradi. Albatta, bunda ota-onalar hamda ta'limga muassasasining hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolalarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda maktab va ota-onalar faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida bir qancha normativ hujjatlar ham imzolangan. Xususan, "Oila-mahalla-ta'limga muassasasi" konsepsiysi asosida o'zaro hamkorlik bo'yicha ishlarni tashkil etib boriladi. Ammo bu kabi hamkorlik ishlarni juda sust va faqat yig'ilish, hisobot qilish uchun olib borilishiga ko'pchilik odatlanib qoldi.

2012-yil 19-iyun kuni Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'limga muassasalarini bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 175-sonli qarori qabul qilinib, "Oila-mahalla-ta'limga muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Shuningdek, joriy yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan "Ota-onalar - murabbiy" kitobi ham nashrdan chiqarilib, uning taqdimoti o'tkazildi. Unda ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, ularga farzandlar tarbiyasida ko'maklashish, yoshlarni turli buzg'unchi mafkuralardan himoya qilish, bolalarda o'zini o'zi himoya qilish ko'nikmasini shakllantirishga doir muhim tavsiyalar berildi. Lekin bu kabi ishlarni faqat nazariya bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda uning samarasini sezilmayapti.

Nazariy jihatdan, "Oila-mahalla-ta'limga muassasasi" hamkorlik mexanizmi bolalar ta'limga olishidagi har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashi kerak. Ammo amaliyotda bu hamkorlik yetarlicha ishlamayapti. Chunki, oila, mahalla va ta'limga muassasalarini o'rtasidagi muloqot yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Amaliyotda, bu tashkilotlar bir-biri bilan muntazam aloqada bo'lishlari va hamkorlik qilishlari kerak edi, lekin bu jarayon ko'pincha qog'ozda qolib ketmoqda.

Sababi, oila, mahalla va ta'limga muassasalarini o'rtasida muvofiqlashtirilgan amaliy qadamlar yo'q. Shuningdek, ushbu hamkorlik mexanizmining samaradorligini muntazam ravishda kuzatish va baholash tizimi ham mavjud emas. Buning natijasida esa qilinayotgan ishlarning samaradorligini oshirish imkon bo'lmayapti.

Yuqorida ko'tarilgan muammolarning sababini o'rganish maqsadida "Bolalarning sifatlari ta'limga olishida ota-onalarning roli" mavzusida mingdan ortiq pedagog xodim va ota-onalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra ota-onalarning maktab bilan hakorligi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur so'rovnomada jami 1077 nafar respondentlar ishtirok etib, ularning 753 nafarini (69,9%) pedagoglar, 312 nafarini (29%)ni esa ota-onalar tashkil etdi.

Maktab va ota-onalar o'rtasidagi aloqa ta'limga jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu aloqaning sifat darajasi esa o'quvchilar muvaffaqiyati va farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yaqinda o'tkazilgan mazkur so'rovnoma natijalarini ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida qiziqarli ma'lumotlarni ham ochib berdi.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 4,1 foizi ota-onalar maktab bilan umuman aloqa qilmasligini bildirgan. Bu juda kichik raqamlar bo'lsa-da, ammo juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

So'rovnomada qatnashganlarning 72,1 foizi ota-onalar faqat zaruriyat tug'ilgandagina maktab bilan aloqa o'rnatishini ma'lum qilgan. Bu ko'rsatkich ota-onalar asosan muhim vaziyatlar yoki muammolar yuzaga kelgandagina maktab bilan bog'lanishini anglatadi. Bunday yondashuv, ba'zida, bolalarining ta'limga jarayoni va muammolarini vaqtida bilish va hal qilishda kechikishlarga olib kelishi mumkin.


8,2 foiz respondentlar bir necha oyda bir marotaba maktab bilan aloqa qilishini aytgan. Bu garchi kam ko'rsatgich bo'lsa-da, lekin maktab bilan aloqa mavjud ekanligini anglatadi, lekin bu natijalar aloqalar faol emasligidan dalolat bermoqda.

3,6 foiz respondentlar har oyda bir marotaba maktab bilan aloqa qilishini bildirgan, 7,7 foiz respondentlar esa har haftada bir marotaba maktab bilan aloqa qilishini bildirgan. Bu biroz yaxshi ko'rsatkich bo'lib, bu ota-onalar bolalarining ta'limga jarayonini muntazam ravishda kuzatib borishlariga ishora qiladi. Nihoyat, 4,3 foiz respondentlar har kuni maktab bilan aloqa qilishlarini bildirgan. Bu

raqam juda kichik bo'lsa-da, ammo ba'zi ota-onalar bolalarining ta'lif va rivojlanishiga juda katta e'tibor qaratayotganlarini ko'rsatadi.

Ota-onalar qay darajada mакtab bilan aloqa о'rnatadi?

1 077 ответов



So'rovnomaning umumiyligi natijalari juda yomon. Bu esa ota-onalar va maktablar o'rta sidagi aloqaning sustligini ko'rsatmoqda. Respondentlarning 72,1 foizi faqat zaruriyat tug'ilganda maktab bilan aloqa о'rnatishi maktab va ota-onalar o'rta sidaga hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini anglatadi. Bu raqamlar ota-onalarning bolalarining ta'lif jarayoniga yetarlicha e'tibor bermayotganini, bolalarining muvaffaqiyati va farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Bolalarning sifatli ta'lif olishida ota-onalarning bolalari bilan maktabdagagi muvaffaqiyatlarini muhokama qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va bolalar o'rta sidagi yaqin muloqot, muammolarni erta aniqlash va motivatsiyani oshirish ta'lif jarayonini yanada samarali qiladi. Ota-onalarning faol ishtiroki va ta'limga jiddiy munosabati bolalarining muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu sababli, ota-onalar bolalarining ta'lif jarayonida faol ishtirok etishlari va ularning muvaffaqiyatlarini muntazam muhokama qilib borishlari zaruriy ehtiyojlardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onasi deyarli har kuni ular bilan shunchaki suhbatlashib o'tirib vaqt o'tkazadigan, tushlik yoki ovqatni birga qiladigan yoki maktabdagagi muvaffaqiyatlarini muhokama qiladigan bolalar hayotdan qoniqish hissini ko'proq tuyadi. Ya'ni, ota-onalar bilan bo'lgan oddiy muloqot o'quvchilarning hayotdan qoniqish darajasiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. [Andreas


Schleicher, World Class: How to Build a 21st-Century School System]

So'rovnomada ota-onasi maktab bilan yaxshi hamkorlik qiladigan bolalarining ta'lif-tarbiyasida o'zgarish sezasizmi, degan savolga respondentlarning 70,5 foizi bunday o'quvchilarning o'qish natijalari yaxshilanganini, 24,7 foizi esa ularning intizomi ham yaxshilangani bildirgan. Shuningdek, respondentlarning 4 foizi o'zgarishlar unchalik sezilmaganini, 1 foizi esa natijalar qoniqarli ekanligini bildirgan. Ota-onalar va pedagoglar o'rta sidaga o'tkazilgan so'rovnomada bolalarining sifatli ta'lif olishida ota-onalarning bolalari bilan maktabdagagi muvaffaqiyatlarini muhokama qilishining ahamiyatiga ham e'tibor qaratdik. Ota-onalar bolalarining uy vazifalari va bahohalrini nazorat qilishda qanchalik faol, dega savolga 1077 nafar respondentlarning 16,1 foizi bu borada ota-onalar faol emas (umuman nazorat qilmaydi), 41,2 foizi faoliyk yuqori emas (kamdan-kam nazorat qiladi), 28 foizi o'rtacha (vaqt-vaqt bilan nazorat qiladi), 8,8 foizi biroz faol (murojaat qilinganda nazorat qiladi), atigi 4,7 foizi juda faol (doimiy ravishda nazorat qiladi deb javob bergan).

Multindikator klaster kuzatuvi (MICS) natijalariga ko'ra, O'zbekistonda faqatgina 5 % otalar farzandlarining ta'lif jarayonlarida ishtirok etishi ma'lum bo'lgan. O'zbekistonda uchinchi bor tashkil etilgan Multindikator klaster kuzatuvida tanlab olingan 556 ta mahallada joylashgan 15 mingdan ortiq uy xo'jaliklarida, joyiga chiqqan holda respondentlar bilan suhbatlashish orqali

Ota-onasi mактаб билан yaxshi hamkorlik qиладиган bolalarning ta'lim-tarbiyasida o'зgarish sezasizmi?

1 078 ответов



- Ha, ularning o'qish natijalari yaxshilanadi
- Ha, ularning intizomi yaxshilanadi
- O'zgarishlar uchalik sezilmaydi
- Ham o'qishi ham intzomi
- Ba'zan unchalik sezilmaydi,bunga asosida
- Ota-onalarga xar doimgidek: Ro'zg'or...
- Ota-onalari maktabga borib xabar olib...
- Oiladagi muhitiga, intelektual salohiyat...

▲ 1/2 ▼

ma'lumotlar jamlangan. [2022-y. https://t.me/statistika_rasmiy/2768]

Tahliliy natijalaridan shuni ko'rish mumkunki, O'zbekistondagi ota-onalarning juda katta qismi bolalarining uy vazifalari va baholarini nazorat qilishda yetarlicha faol emas. Bu holat esa o'z navbatida bolalarning sifatlari ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatyotgan bo'lishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalarning farzandlari boshlang'ich va yuqori sinflarda tahsil olayotgan davrlarida ularning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborlari o'zgarar ekan. Masalan, boshlang'ich sinflarda ota-onalar farzandlarining ta'limiga ko'proq e'tibor qaratsalar, yuqori sinflarga o'tganda ota-onalarning bolalar ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibori pasayishi kuzatilmoqda.


Masalan, bolalar boshlang'ich sinflarda (1-4-sinflar) tahsil olayotgan vaqtida ota-onalarning

Дошкольный возраст – короткий период в жизни человека, в течение которого ребенок получает значительно больше ресурсов, чем за всю оставшуюся жизнь. Это чувствительный период для развития многих способностей ребенка, среди которых особое место занимают творческие способности.

Список используемой литературы

1. Закон Республики Узбекистан. О дошкольном образовании и воспитании. Т: 16 декабря 2019 г, ORQ-595. Национальная база правовых документов, 17.12.2019, №19/03/595/4160).
2. Национальная база данных правовых документов Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № ПФ-5847 «Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», 09.10.2019 г.,
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года № PQ-4312 «Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» // Национальная база данных правовых документов Республики Узбекистан - 05.10.2019 г., №19.07.4312/3106.
4. Усовершенствованная государственная учебная программа дошкольной образовательной организации «Илк Кадам». Ташкент – 2022.
5. Алексеева Г.Ю.Педагогические условия развития творческого потенциала учащихся младших классов (в процессе изучения математики); дис. Канд.пед.наук –Оренбург,2000-182
6. Бодрова Е. В., Давыдов В. В., Петровский В. А., Стеркина Р. Б.Опыт построения психолого-педагогической концепции дошкольного воспитания // Вопр. психол. 1989. No 3. С. 22 –31
7. Butterworth G., Harris M. (2002), Arengupsiühholoogia alused, Tartu: Tartu ülikooli kirjastus. 2002: 249-251
8. Волкова С.И.Конструирование—М: Просвещение, 2010
9. Выготский Л.С.Воображение и творчество в детском возрасте --Спб.: СОЮЗ, 1997. -96 с.
10. Г.Джанпеисова. С.Махмудова "Кубики для всех" в обучении и развитии детей дошкольного возраста. «Bola va Zamон» / Научно-популярный журнал детской и возрастной консультатсиюToshkent, 2019. №2. -В.44-46.
11. Емельянова И.Е., Елпанова Н.П.. Развитие технических способностей детей дошкольного возраста, Вестник Бурятского Государственного университета. 2014.
12. Квадрсон, Г. Жан Пиаже / Г. Квадрсон// Энциклопедия для детей : в [] т. / гл. ред. В.А. Володин. - М., 2002. - Т. 18, ч. 2. - С. 328-330.
13. Махмудова О. Maxsus таълимда ўқувчиликning пластик материаллар билан ишлаш малакаларини шакллантириш. Т: «Bola va Zamон»/Научно-популярный журнал детской и возрастной консультатсию 2019/3.
14. Меерович М.И., І.І.Шрагина.Технология творческого мышления: Практическое пособие Текст. // Библиотека практической психологии.—Минск: Харвест, 2003.-432 с.
15. Niilo, A., Kikas, E. (2008). Mäng. Kogumikus: E. Kikas (Toim.), Õppimine ja õppimine koolieelses eas (lk 120-137). Tartu: TÜ Kirjastus
16. Alohind ta'l'm ehtiyoji bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish shartlari. O.A Maxmudova, S.A Maxmudova. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11181315>

PSIXOLOGIYA FANLARI

NOTO'LIQ OILADA BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Shaumarova Zilola Abdushukurovna¹

ANNOTATSIYA.

Ushbu tezisda noto'liq oilada bola shaxsini shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik, psixologik muammolar hamda ularni oldini olishga qaratilan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: noto'liq oila, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-pedagogik, muammo, oila, farzand.

¹. "Profi University" Ўқув ишлар бўйича проректор, PhD, доцент

Hammamizga ma'lumki, oilada bola shaxsining shakllanishi va u kelajakda qanday inson bo'lishi ikkita eng muhim omilga bog'liq. Bular quyidagilardan iborat: Birinchisi, bola dunyoga kelib ota-onasidan qanday nasliy-genealogik meros olganidir. Ikkinchisi, esa ushbu nasliy meros-dasturni hayotda to'liq ro'yobga chiqarish uchun u o'sayotgan oilada qay darajada sharoit mavjudligidir.

So'nggi yillarda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda shu jumladan, O'zbekistonda ham oiladagi ajralishlar soni va ularda otasiz o'sayotgan bolalar soni ortib bormoqda. Ushbu holat esa jamiyat uchun bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik, psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu muammolar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekistonda ko'pincha noto'liq oilalarda turmush o'rtoqlar ajralgandan so'ng bola ona bilan qolganligi sababli farzandli ayolni qayta turmushga chiqish imkoniyatlari keskin kamayadi.

2. Noto'liq oilalarning aksariyat qismida iqtisodiy muammolar yuzaga kelib, bolaga qo'shimcha ta'lif berish va uning shaxsini garmonik shakllantirish imkoniyatlari cheklanadi, bolani maktabgacha va boshlang'ichsinf yoshida maktabdan tashqari turli ta'lif-tarbiya muassasalariga olib borishda muammolar yuzaga keladi.

3. Noto'liq oilada o'sayotgan bola ota-onasi, ularning har birining vazifasi, o'zaro muloqoti, bolalarga bo'lgan munosabati ya'ni to'liq oilada ota va ona tomonidan bajariladigan oila funksiyalari, ota-onaning o'zaro muloqot modeli bola tasavvurida to'laqonli, namunaviy model sifatida shakllanmaydi.

4. Oilalarning talaygina qismida ajralishgan er-xotinlar orasida o'ta nosog'lom psixologik munosabatlar bo'lgani sababli onalarning aksariyat qismi bolani otasi haqida faqat tanqidiy fikr yuritadi. Natijada otasi haqida qiz bolada shakllangan salbiy tasavvur keyinchalik voyaga yetib oila qurganda o'z eriga nisbatan qo'llanilib, shaxsiy oila mustaxkamligiga ham salbiy ta'sir etish hollari ko'p kuzatiladi.

5. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan o'g'il bolalarni, aksariyat qismi ona qo'lida voyaga yetishini xisobga olganda ular xarakterida erkak kishiga xos xislatlarni shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

6. Noto'liq oilalarning aksariyat qismida "gipoopeka" (bolani bo'sh vaqtini nazorat qilmaslik, bolani pedagogik jihatdan qarovsiz qoldirish) kuzatiladi. Bu esa bolalarni aksariyat holda

nazoratsiz qoldirib ularni ko'cha ta'siriga tushish uchun shart-sharoit yaratadi. Natijada noto'liq oiladagi bolalarni bir qismi asosial shaxslar tarkibini to'ldirib borishiga xizmat qiladi va jamiyat uchun yangi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Yuqoridagi muammolarni oldini olish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim.

Birinchidan, jamiyatda ajralishni oldini olish choralarini ko'rishimiz kerak. Buning uchun avvalo yoshlarni oilaviy hayotga maxsus va har tomonlama tayyorlashimiz kerak.

Ikkinchidan, ajralish madaniyatini oshirishimiz, ajralish sodir bo'lgandan so'ng sobiq er-xotinlar bir-birlariga dushmanlik qilmasliklari, balki bola manfaatida yaxshi do'stona munosabatni saqlab bolani tarbiyasi oldidagi mas'uliyatni xis etishlari zarur.

Uchinchidan, er-xotin ajralganda doimo bola ona bilan emas, balki kimni qo'lida jamiyatga va oilaga kamroq muammo yuzaga keltirsa shu tomon (ota yoki ona) bilan qolishi lozim.

To'rtinchidan, ajralishni oldini olish ishlarini nikoh davrida emas, balki nikoh oldi davridan boshlash zarur. Ya'ni nikoh oldi omillarga, kim bilan oila qurayotganiga chuqur va atroflicha o'ylashi lozim.

Yoshlar oilaviy hayotni faqat baxtli daqiqalardan iborat sifatida idrok etmaslik, balki oilaviy hayot har bir shaxsni qayta-qayta murakkab sinovlardan o'tkazuvchi hayot maktabi ekanligini oldindan bilishi va ularga tayyor bo'lishi kerak.

Noto'liq oilada o'g'il bola o'sayotgan bo'lsa unga ota obrazi sifatida ko'proq namunali amakisi, pochchasi, qo'shnisi yoki o'zga yaqin qarindoshi (katta yoshli erkak) bilan tez-tez muloqotda bo'lishi lozim.

Noto'liq oilada bolani voyaga yetkazishda buva hamda buvilarni katta hayotiy tajribasidan ma'naviy, psixologik va pedagogik jihatdan samarali foydalanish kerak.

Yuqorida o'z ifodasini topgan omil, sabab va oqibatlarning katta qismini yuzaga kelishi, tashqi ifodalananish jarayoni va yakunlanish tarzi oilaga, oilaviy munosabatlarga, oila a'zolari ayniqsa ayollarni, onalarni psixologik savodxonligi, ular tomonidan psixoterapevtik funksiyani bajara olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun u shifokor va psixoterapevt ma'lumotiga ega bo'lish shart emas. U shaxs sifatida, o'z xarakteri, shaxsiga xos individual psixologik xususiyatlari bilan oila a'zolarini noto'liq oilada birinchi navbatda

bolasini shaxsini yaxshi bilishi, tushunishi, stress holatlardan oson chiqarish, hayotda ortiqcha asabiy holatlar yuzaga keltirmasligi, bolaga yoshi, jinsi, tug'ma layoqati, xarakterini hisobga olgan holda to'g'ri yo'l ko'rsatishi, hayotdagi qiyinchiliklar, nostandard vaziyatlarga duch kelishi muqarrarligi va uni oson, talofatsiz bartarf etish yo'llarini o'rgatishi, ko'rsatishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Djurayev R., Inoyatova M. Iste'dodli farzand tarbiyasi. -T.: 2013. 100 bet.
2. Drujinina N. N. Pedagogicheskaya podderjka podrostkov iz nepolnykh semey kak faktor ix uspeshnoy sosializasii. Dissertatsiya i avtoreferat na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. – g. 2006. 202 str.
3. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. Monografiya, -T, n-rsiz, 1999. –150 b.
4. Salayeva M.S. "O'zbek oilalarida ota-onva farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Psixol. fan. nomzodi ... dis. – T., 2005. 185 bet.

O'SMIRLARDA KOMPYUTER O'YINLARIGA TOBELIK BILAN SHAXSLILIK VA EMOSIONAL XUSUSIYATLAR ORASIDAGI ALOQADORLIK

N.M.Dalimova¹

ANNOTASIYA.

Ma'lumki, inson ijtimoiy hayotining barcha sohalarida kompyuterlashtirish 21-asrning birinchi choragini eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi, shu bilan birga o'smirlarda vaqt o'tkazishining asosiy vositasiga aylangani, hech kimga sir emas. Mazkur maqolada esa kompyuter o'yinlarining o'smir psixikasiga, uning emosional holatiga ta'sirini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. o'smirlik davri, kompyuterga tobelik, addiksiya, agressiya, bezovtalik, shaxslararo munosabat, sub'yektiv nazorat darajasi.

AHNOTACIYA.

Известно, что компьютеризация во всех сферах общественной жизни человека считается одним из важнейших достижений первой четверти 21 века, при этом ни для кого не секрет, что компьютерные игры становятся основным средством время препровождения подростков. В данной статье освещаются результаты исследования, посвященного влиянию компьютерных игр на психику, и на эмоциональное состояние подростка.

Ключевые слова. подростковый возраст, компьютерная зависимость, аддикция, агрессия, тревожность, межличностное отношение, уровень субъективного контроля.

ANNOTATION.

It is known that computerization in all spheres of human social life is considered one of the most important achievements of the first quarter of the 21st century, while it is no secret that computer games are becoming the main means of teenagers' time. This article highlights the results of a study on the impact of computer games on the psyche and on the emotional state of a teenager.

Keywords. adolescence, computer addiction, addiction, aggression, anxiety, interpersonal attitude, level of subjective control.

1. Profi University professor v.b.
E-mail: n.dalimova@mail.ru, tel: 97 7478137

Jahon miqyosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ko'plab sohalarni rivojlanishiga sabab bo'lgan kompyuter va kompyuter texnologiyalarini yuzaga kelishiga olib keldi. Kompyuter o'z ta'siri bilan zamonaviy o'smirlarning hayot tarzini ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. O'smirlarning yangi qiziqishlari ikki xil baholanmoqda: bir tomondan jamiyatda kompyuterning keng imkoniyatlaridan faxrlanish kuzatilsa, ikkinchi tomondan ommaviy axborot vositalarida kompyuterning, aniqrog'i kompyuter o'yinlarining o'smir psixikasiga salbiy ta'siri haqidagi fikrlar ko'paydi. Mualliflarning fikricha, ba'zi kompyuter o'yinlari, o'smirdagi tajovuzkor xulqni oshiradi, urush va zo'ravonlikka hamda diniy ekstremizmga nisbatan qiziqishni oshiradi. Qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, virtual o'yinlarni yoqtirgan sinaluvchilar fiziologik qo'zg'alishlari va agressiv o'y-fikrlarini ortishi bilan nazorat guruhidagilardan farqlanganlar [2, 3, 6, 7].

Kompyuterga, internetga tobeklik muammosi bilan birinchilardan bo'lib psixoterapevt-shifokorlar va o'z faoliyatida Internetdan keng foydalanadigan kompaniyalar duch keldilar, chunki kompaniya xodimlari Internet tarmog'iga patologik ravishda bog'lanib qolib, o'z vazifalarini suiste'mol qila boshladilar. Ishchilarda ishlash qobiliyatining pasayishi, diqqatning beqarorligi, salomatlik bilan bog'liq o'zgarishlar ortib bordi. Bu yo'nalishdagi faol tadqiqotlar 2000-yillarning boshlaridan boshlab ko'zga tashlana boshladi.

Quyida keltirilayotgan ma'lumotlar kompyuter o'yinlari tobeklik bilan o'smirning shaxslilik va emosional xususiyatlari orasidagi bog'liqni o'rganish uchun olib borilgan tadqiqot natijasidir. Buning uchun tadqiqotda N.Dalimova tomonidan ishlab chiqilgan "Kompyuter o'yinlariga tobeklikni aniqlash" metodikasidan hamda Dj.Rotterning "Sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash", A.Bass-A.Darkining "Agressivlikni o'rganish", Ch.D.Sipilbergerning "O'smirlarda bezovtalik darajasini o'rganish" metodikasi va T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni aniqlash" metodikalaridan foydalanildi.

Kompyuter o'yinlariga tobeklik bilan sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etuvchi korrelyasiya koeffisiyentlari 1-jadvalda keltirilgan.Ushbu jadvaldan ko'rinish turganidek, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasining barcha ko'rsatkichlari orasida ishonch darajasidagi manfiy munosabat mavjud,

ya'ni o'smirlarda internallik ortishi bilan tobeklik darajasi kamayib boradi. Bu raqamlar shu bilan izohlanadiki, o'smirlardagi internallik xususiyati o'ziga xos ichki mag'rurlik, viqorlilik xislatlari, o'z imkoniyatlariga ishonch, o'zini yuqori baholash hissini shakllantirishga turtki bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan eksternallik ko'rsatkichi o'smirlarda odamlarga bog'liqlik ustaganovkasini shakllanishiga olib kelmoqda, ya'ni kompyuter o'yiniga tobe o'smirlar atrofdagilarni birgalikda kompyuter o'ynashga qilgan takliflariga e'tiroz bildira olmasliklaridan darak bermoqda.

Keltirilgan natijalardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o'smirning eksternalligiga kompyuter o'yinlariga bog'lanib qolishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy omillardan biri sifatida qaralishi mumkin ekan. Bu esa kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi yuqori o'smirlar ichki olamining murakkabligini, ehtimol ularning zaif tomonini ko'rsatmoqda. Bu toifadagi o'smirlar faoliyatga, o'z sog'lig'iga, oilaviy munosabatlarga nisbatan sovuqqon yoki ikkilanuvchan, qat'iyatsiz ekanliklarini tasdiqlab turibdi. Shu nuqtai nazardan olganda, bu toifadagi o'smirlarga nisbatan alohida yondashish, muayyan korreksion tadbirlar o'tkazishning alohida ahmiyatga ega ekanligini ta'kidlash o'rinnlidir.

Kompyuter o'yinlariga tobeklik bilan agressivlik ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etgan korrelyasiya koeffisiyentlari 2-jadvalda keltirilgan. 2-jadvaldan ko'rinish turbdiki, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan jismoniy agressiya, bilvosita agressiya va verbal agressiya yo'nalishlari ko'rsatkichlari orasida ishonch darajasidagi musbat munosabat mavjud (mos ravishda: $r=0,341$, $r<0,01$; $r=0,312$, $r<0,01$; $r=0,270$, $r<0,01$). Ya'ni kompyuter o'yinlariga tobeklikning ortishi bilan o'smirdagi turli agressiya ko'rinishlari ortib bormoqda, masalan, o'zgalar bilan urishish, so'kish, janjallahish, g'azablanish, qarg'ash va h. Ushbu statistik bog'lanishlarni yuqori ishonch darajasida ekanligini nazarga olgan holda ularni quyidagicha tushuntirish mumkin: agressiv ko'rinishdagi kompyuter o'yinlarini o'ynash, o'yinlardagi jang, o'ldirish sahnalari natijasida o'smir virtual olamdagagi agressivlilikni real olamda ham qo'llay boshlaydi, ya'ni boshqa bir shaxslarga nisbatan agressiv harakatlar qilish kuchayadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ko'plab tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda, o'yinlardagi tajovuzkorlik bilan o'yinchining real hayotidagi agressivlik o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaymiz

1-jadval

Kompyuter o'yinlariga tobek bilan sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'liqlik

	Muvaffaqiyatda internallik	Muvaffaqiyat sizlikda internallik	Oilaviy munosabatlarda internallik	Ishlab chiqarish munosabatlarda internallik	Shaxslararo munosabatlarda internallik	Salomatlik bo'yicha internallik	Umumiy internallik
Tobelik darajasi	-0.237** **	-0.300 **	-0.262 **	-0.207 **	-0.286 **	-0.217 **	-0.346 **

2 - jadval

Kompyuter o'yinlariga tobek bilan aggressivlik ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etuvchi aloqadorlik natijalari

Tobelik darajasi	Jismoniy aggressiya	Bilvosita aggressiya	Jaxldorlik	Salbiy munosabatlar	Alamzadalik	Badgumonlik	Verbal aggressiya	Aybdorlik hissi
0.341**	0.312**	0.460**	0.114	0.314**	0.131	0.270**	0.237**	

3-jadval

Kompyuter o'yinlariga tobek bilan bezovtalikni aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etuvchi korrelyasiya natijalari

Tobelik darajasi	Umumiy bezovtalik	Darsdag'i bezovtalik	Umumiy biliish faolligi	Darsdag'i biliish faolligi	Umumiy salbiy hissiy kechimmlar	Darsdag'i salbiy hissiy kechimmlar
0.075	0.331**	-0.169*	-0.290**	-0.004	0.327**	

(D.Nikoll, D.Torr, S.Klimenko, L.Yuryeva, T.Bolbot).

Yana jadvaldan ko'rinish turganidek, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan jahldorlik ko'rsatkichi orasida ham ishonch darajasidagi musbat munosabat mavjud ($r=0,460$, $r<0,01$). Bundan shuni ko'rish mumkinki, o'smir kompyuter o'yinlariga qanchalik kuchli tobe bo'lsa, shunchalik serjahl, g'azabkor, qo'pol bo'la boshlaydi. Kichik bir sabab bo'lganda ham salbiy hissiyotlarni namoyon qila boshlaydi.

Kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan aybdorlik hissi ko'rsatkichi orasida ham ishonch darajasidagi musbat munosabat mavjud ($r=0,237$, $r<0,01$). Bundan kelib chiqadiki, o'smirdagi kompyuter o'yinlariga tobeklikni ortishi bilan aybdorlik hissi, vijdon azobi ham orta boshlaydi, ya'ni sub'yeqtda o'zining yomonligi, atrofidagilarga zarar keltirishi haqidagi o'y-fikrlar paydo bo'lib, aybdorlik hissi kuchayadi. Balki o'smir kompyuter o'yinlariga tobeklikni o'z sog'lig'iga, atrofidagi insonlarga, ijtimoiy faoliyatiga zararini anglagan holda undan voz kecha olmasligi uchun vijdoni qynalayotgandir.

Kompyuter o'yinlariga tobeklik bilan bezovtalikni aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etgan korrelyasiya koeffisiyentlari 3-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvaldan ko'rinish turganidek, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan darsdagi bezovtalik

va darsdagi salbiy hissiy kechinmalar ko'rsatkichlari orasida musbat munosabatdagi korrelyasiya mavjud (mos ravishda: $r=0,331$, $r<0,01$; $r=0,327$, $r<0,01$). Ya'ni, kompyuter o'yinlariga tobeklikning ortishi bilan o'smirdagi dars jarayonidagi bezovtalik va salbiy hissiy kechinmalar ham orta boradi, buni o'smir nafaqat bo'sh vaqtida, balki dars vaqtida ham kompyuter o'yinlari haqida xayol surishi, darsning tezroq tugashini betoqatlik bilan kutishi bilan tushuntirish mumkin.

Umumiy bilish faolligi va darsdagi bilish faolligi ko'rsatkichlari bilan kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi o'rtasida esa ishonch darajasidagi manfiy munosabat mavjud (mos ravishda: $r=-0,169$, $r<0,05$; $r=-0,290$, $r<0,01$). Bu ko'rsatkichlar o'smirning kompyuter o'yinlariga tobekligi kuchayishi bilan bilish faoliyati pasayishini ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida qo'lga kiritilgan bu natijalar ko'plab boshqa tadqiqotchilarning kompyuter o'yinlarini o'smir psixikasiga, uning bilish jarayoniga salbiy ta'siri haqidagi fikrlarini yana bir bor isbotlab turibdi (A. Sakamoto, K. Dill, K. Matiak, L. Lovelle, K. Andersen, I. Burlakov).

Kompyuter o'yinlariga tobeklik bilan shaxslararo munosabatni aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etgan korrelyasiya koeffisiyentlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval.

Kompyuter o'yinlariga tobeklik bilan shaxslararo munosabatni aniqlash metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etuvchi korrelyasiya koeffisiyentlari

	Avtoritarlik	Xudbinlik	Agressivlik	Shubxalanuvchanlik	Bo'y sinuvchanlik	Boshqalarga bog'liqlik	Do'stonalik	Altruistlik
Tobelik darajasi	0.264**	0.221**	0.288**	0.081	-0.068	0.082	0.145	0.123

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan avtoritarlik ko'rsatkichlari orasida ishonch darajasidagi musbat munosabat mavjud ($r=0,264$, $r<0,01$). Ya'ni kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasini ortishi bilan o'smirlardagi avtoritarlik xususiyati ham ortib bormoqda. Ehtimol, bu ba'zi kompyuter o'yinlarida mavjud bo'lgan murosasizlik, har qanday vaziyatda g'olib chiqishga intilish, zulmkorlik natjasida yuzaga kelayotgandir.

Shuningdek, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasi bilan xudbinlik va agressivlik shkalalari o'rtasida ham ishonch darajasidagi musbat munosabat kuzatildi (mos ravishda: $r=0,221$, $r<0,01$; $r=0,288$, $r<0,01$). Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, kompyuter o'yinlariga tobeklik darajasining ortishi bilan o'smir xulqida xudbinlik, agressivlik kabi xususiyatlar ham orta boradi. Tadqiqotlar davomida A.Bass-A.Darki metodikasining korrelyasion tahlili natijalarida ham tobeklik darajasi bilan agressivlik ko'rsatkichlarining bir nechtasida ishonch darajasidagi musbat munosabat kuzatilgan edi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash, agressivlikni aniqlash va bezovtalikni o'rganish, shaxslararo munosabatlarni aniqlash metodikalari kompyuter o'yinlariga tobeklikni aniqlash metodikasi orqali olingan natjalarga to'la mos keladi va ularga

qo'shimcha metodikalar sifatida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu metodikalar orqali kompyuter o'yinlariga tobeklik natjasida o'smirda kuzatiladigan, psixik, hissiy-emosional, atrofdagilar bilan munosabatdagi o'zgarishlar haqida to'liqroq ma'lumot olish mumkin va bu metodikalar maktab amaliyotchi psixologlariga ham yordam beradi.

Kompyuter o'yinlariga tobeklikni profilaktika, korreksiya qilishda barcha mutaxassislar – pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar o'zaro hamkorlikda tadbirlar o'tkazsalar, tobeklikni avj olishini kamaytirgan, uni profilaktika qilgan bo'lar edilar, chunki kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlar bilan ishslash dasturi doirasida ota-onalar bilan hamkorlik yaxshi natijalar beradi. Oiladagi ijobjiy psixologik muhit, o'zaro tushunish, ota-onalarning ma'lumoti psixokorreksion tadbirlarning tarkibiy qismi sifatida gavdalanganadi [1, 4, 7].

Shuningdek, ota-onalar o'smir o'ynayotgan o'yinlarga alohida ahamiyat berishlari lozim. O'smir o'ynayotgan o'yinlar doirasida aqliy rivojlantiruvchi, mantiqiy o'yinlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiqdir O'smiriga kompyuter o'yinlari ko'ngil ochish vositalarining faqatgina kichik bir qismi ekanligini tushuntirish, hayotda kompyuter o'yinlaridan boshqa ham juda qiziqarli narsalar ko'p ekanligini va o'yin hech qachon atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishni o'rnni bosa olmasligini tushuntirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Burlakov I. Homo Gamer. Psixologiya kompyuternykh igr. – M.: Nezavisimaya firma "Klass", 2000. – 84 s.
- Voyskunskiy A.Ye. Psixologicheskaya xarakteristika potensialno negativnykh posledstviy informacionnykh texnologiy. /A.Ye.Voyskunskiy // Psicol. jurn. – M., 2004. - № 1. - S. 90-100.
- Gunn G.Ye. Kompyuter: kak soxranit zdorovye: Rekomendasiy dlya detey i vzroslykh. – M.: Olma-Press, 2003.
- Dalimova N.M. Kompyuter o'yinlariga tobeklikning psixologik korreksiyasi. Zamonaviy ta'lim. -T, 2017. -№3. -S. 57-62.
- Yevstigneyeva Yu.M. Psixologicheskiye osobennosti obrazeniya k kompyuternym igram v podrostkovom vozraste: Avtoref. dis... kand. psix. nauk. - M., 2003. - 16 s.
- Ivanov M. Vliyanie rolevykh kompyuternykh igr na formirovaniye psixologicheskoy zavisimosti cheloveka ot kompyutera // Psicol. jurn. –M., 2003. – T. 24, № 2. – S. 10-14.
- Krasnova S.V., Kazaryan N.R., Tundaleva V.S. Kak spravitsya s kompyuternoy zavisimostyu. – M.: Eksmo, 2008. – 224 s.

FALSAFA FANLARI

SUN'YI INTELLEKTNING INSON AXLOQIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

Lazizjon Baxranov¹, Barno Ilyasova², Azamat Erkinov³

A N N O T A T S I Y A .

Sun'iy intellekt (SI)ning inson axloqiga ta'siri zamonaviy jamiyatda ko'p qirrali muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu maqolada SIning axloqiy qadriyatlarga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil etiladi. Ijobiy tomonlari sifatida SIning adolatli qaror qabul qilish, ekologik muammolarni hal etish va ta'lif sohasidagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Salbiy tomonlaridan esa maxfiylikning buzilishi, avtonom qaror qabul qilishdagi masalalar va ijtimoiy adolatning buzilishi kabi muammolar haqida so'z boradi. Maqolada SIning axloqiy ta'sirini nazorat qilishning ahamiyati va bu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar. sun'iy intellekt, axloqiy ta'sir, adolat, maxfiylik, avtonom qaror qabul qilish, ijtimoiy adolat.

А Н Н О Т А Ц И Я .

Влияние искусственного интеллекта (ИИ) на человеческую мораль становится все более актуальной проблемой в современном обществе. В данной статье анализируются положительные и отрицательные аспекты воздействия ИИ на моральные ценности. Среди положительных аспектов рассматриваются возможности ИИ в принятии справедливых решений, решении экологических проблем и улучшении образования. Среди отрицательных аспектов обсуждаются проблемы нарушения конфиденциальности, этические дилеммы автономного принятия решений и угрозы социальной справедливости. В статье подчеркивается важность контроля за этическим воздействием ИИ и предлагаются направления для будущих исследований.

Ключевые слова. искусственный интеллект, этическое воздействие, справедливость, конфиденциальность, автономное принятие решений, социальная справедливость.

1. PhD, Profi University

2. O'qituvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

3. Student, MFinerva University, USA

A B S T R A C T

The impact of artificial intelligence (AI) on human morality is becoming an increasingly pressing issue in modern society. This article analyzes the positive and negative effects of AI on moral values. Among the positive aspects, the potential of AI in promoting fair decision-making, addressing environmental issues, and enhancing education is explored. Negative aspects include concerns about privacy violations, ethical dilemmas in autonomous decision-making, and threats to social justice. The article emphasizes the importance of regulating the ethical impact of AI and suggests directions for future research.

Keywords: artificial intelligence, ethical impact, justice, privacy, autonomous decision-making, social justice.

Kirish (Introduction)

Sun'iy intellekt (SI) zamонавија дунёда төхөнгөй инқилобнинг асосија гаракатлантурвучи кути сифатида тобора мумим аhamiyat kasb etmoqda. Униг qарор qабул qилиш jarayонларida адолатни та'minlash, insoniyatning axloqiy ongini oshirish, ekologik mas'uliyatni mustahkamlash va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlashdagi potentsiali yuqori baholanmoqda (Floridi, 2019). Masalan, sog'liqni saqlashda SI shifokorlarga davolashda tenglikni ta'minlashga yordam bersa, ta'lіm sohasida axloqiy dilemmalarni o'rgatuvchi interaktiv platformalar orqali odamlarning mas'uliyat hissini oshiradi. Shu bilan birga, SI ning noto'g'ri dasturlanishi yoki axloqiy nazoratsiz qo'llanilishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin: irqiy yoki ijtimoiy tarafkashlikni kuchaytirish, shaxsiy maxfiylikni buzish, mas'uliyat chegaralarini noaniqlashtirish va hatto inson hayotiga tahdid solish (Bostrom, 2014).

Ushbu tadqiqot SI ning inson axloqiga ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. SI qanday mexanizmlar orqali axloqiy qadriyatlarni mustahkamlaydi?
2. Qaysi sharoitlarda SI axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi?
3. SI rivojlanishida axloqiy me'yorlarni qo'llashning samaradorligi qanday ta'minlanadi?
4. Tadqiqotning dolzarbliги SI texnologiyalarining global miqyosda kengayishi va uning insoniyatning kelajagiga ta'siri bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston

kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ushbu masalalarni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda (PQ-358, 2024).

Metodlar (Methods)

Tadqiqotda SI ning inson axloqiga ta'sirini o'rganish uchun sifatli va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat edi:

1. Adabiyotlar tahlili:

- Amerikalik faylasuflar (Dennett, Searle, Bostrom, Sandel) va yevropalik olimlar (Floridi, Tegmark)ning SI va axloqqa oid asarlari o'rganildi.
- Ilmiy maqolalar (masalan, Floridi, 2019; Bostrom & Yudkowsky, 2014) va kitoblar (Bostrom, 2014; Searle, 1984) асосија manba sifatida ishlatildi.
- O'zbekistonda SI ga oid mahalliy tadqiqotlar (Otaqulov va boshq., 2021; Axmадова, 2024) ham tahlilga jalb qilindi.

2. Amaliy misollar va keys-tadqiqotlar:

- SI tizimlarining real hayotdagи qo'llanilishi (masalan, "Watson for Oncology", "COMPAS", "Cambridge Analytica", "Kargu-2" droni) o'rganildi.
- Har bir misolning axloqiy oqibatlari ijobiy (adolat, tenglik) va salbiy (tarafkashlik, maxfiylik) jihatlardan tahlil qilindi.

3. Normativ-huquqiy hujjatlar:

- Yevropa Ittifoqining "Ethics Guidelines for Trustworthy AI" (2019) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga

qadar rivojlantirish strategiyasi” (PQ-358, 2024) hujjatlari SI ning axloqiy asoslarini baholashda ishlatildi.

4.Qiyosiy yondashuv:

- SI ning turli sohalardagi (sog'liqni saqlash, ta'lif, ekologiya, huquq, harbiy) ta'siri solishtirildi.
- Amerikalik va yevropalik olimlarning nazariyalari o'zaro taqqoslanib, umumiy xulosalar chiqarildi.
- Tahlil jarayonida axloqiy mezonlar (adolat, mas'uliyat, shaffoflik, maxfiylik) asos qilib olindi. Tadqiqotda miqdoriy ma'lumotlardan ko'ra sifatli ma'lumotlar ustunlik qildi, chunki axloqiy masalalar falsafiy va kontekstual muhokamani talab qiladi. Ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash uchun manbalar xilma-xilligi (ilmiy adabiyot, amaliy misollar, qonunchilik) hisobga olindi.

Natijalar (Results)

Tahlil natijasida SI ning inson axloqiga ijobiy va salbiy ta'sirlari quyidagicha aniqlandi:

Ijobiy ta'sirlar:

1.Adolat va tenglik:

- “Watson for Oncology” (IBM) tizimi millionlab tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilib, shifokorlarga saraton davolashda yordam beradi. 2023-yilgi hisobotlarga ko'ra, bu tizim ijtimoiy holat yoki jinsga qarab tarafkashlikni 30% ga kamaytirgan (IBM, 2023).
- Natija: Har bir bemorga teng munosabatda bo'lish orqali adolat prinsipi mustahkamlanadi.

2.Empatiya va ijtimoiy yordam:

- “Woebot” chatboti matn tahlili orqali foydalanuvchilarning hissiy holatini aniqlab, ularga ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatadi. 2022-yilda 100,000 foydalanuvchi orasida depressiya belgilarini 25% ga kamaytirgani qayd etilgan (Woebot Health, 2022).
- Natija: SI insonlar o'rtasidagi empatiyani qo'llab-quvvatlash vositasiga aylanadi.

3.Ekologik mas'uliyat:

- Google'ning “DeepMind” tizimi ma'lumotlar markazlarida energiya sarfini optimallashtirib, 2021-yilda CO₂ emissiyasini 40% ga qisqartirdi (DeepMind, 2021).

- Natija: Resurslarni tejash orqali odamlarning atrof-muhitga mas'uliyatini oshiradi.

4.Ta'lif va axloqiy ong:

- SI asosidagi simulyatsiya platformalari (masalan, MIT Moral Machine) foydalanuvchilarga axloqiy dilemmalarni o'rgatadi. 2023-yilgi tadqiqotlarda 60% ishtirokchi o'z qarorlarining oqibatlarini yaxshiroq tushungan (MIT, 2023).
- Natija: Axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlanadi.

Salbiy ta'sirlar:

1.Adolatsizlik va tarafkashlik:

- “COMPAS” tizimi AQSh sudlarida jinoyatchilarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini bashorat qilishda ishlatildi, ammo 2016-yilda afro-amerikaliklarga noto'g'ri yuqori xavf bahosi bergani aniqlandi (ProPublica, 2016).
- Natija: Irqiy tengsizlikni 20% ga oshirib, adolat tamoyillarini buzdi.

2.Maxfiylikning buzilishi:

o“Cambridge Analytica” 87 million Facebook foydalanuvchisining ma'lumotlarini noqonuniy yig'ib, 2016-2018-yillarda saylovchilarni manipulyatsiya qildi (The Guardian, 2018).

oNatija: Shaxsiy hayotga putur yetkazdi va demokratik qadimiyatlarni xavf ostiga qo'ydi.

3.Mas'uliyat noaniqligi:

- 2018-yilda Uberning avtonom mashinasi piyodani urib o'dirdi, ammo aybni aniqlash murakkab bo'ldi (NTSB, 2019).
- Natija: Axloqiy javobgarlik bo'shlig'i yuzaga keldi.

4.Harbiy xavf:

- Turkiyada ishlab chiqarilgan “Kargu-2” droni 2021-yilda Liviyada avtonom nishon tanlab, odamlarni yo'q qildi (UN Report, 2021).
- Natija: Inson hayotiga tahdid solib, axloqiy chegaralarni buzdi.

Faylasuflar qarashlari:

- Daniel Dennett: SI axloqiy muammolarni hal qilishda yordamchi vosita, ammo mas'uliyat insonda qoladi.
- John Searle: SI haqiqiy axloqiy idrokka ega emas, faqat mexanik simulyatsiya qiladi.
- Nick Bostrom: Superintellekt ijobiy (iqlim o'zgarishi bilan kurash) yoki salbiy (ekzistensial xavf) ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Michael Sandel: SI algoritmlari ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirishi xavfli.

- Luciano Floridi: SI axloqiy muhitni shakllantiruvchi agent bo'lishi uchun shaffoflik zarur.

yetishmasligi tufayli tahlil asosan sifatli ma'lumotlarga asoslanildi. Kelajakda SI ning axloqqa ta'sirini aniqroq baholash uchun statistik tadqiqotlar zarur.

Muhokama (Discussion)

Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI ning inson axloqiga ta'siri ikki tomonlama: ijobiy imkoniyatlar va salbiy xavf-xatarlar. Ijobiy jihatdan, SI adolatni mustahkamlashi mumkin – masalan, "Watson for Oncology" insoniy xatolarni kamaytirib, tenglikni ta'minlaydi. "DeepMind" esa resurslarni tejash orqali ekologik mas'uliyatni oshiradi, bu kelajak avlodlar oldidagi axloqiy majburiyatni anglatadi (Tegmark, 2017). Shu bilan birga, "Woebot" kabi tizimlar empatiyani qo'llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar ochadi, bu esa SI ning insoniy qadimiyatlarni rivojlantirishdagi potentsialini ko'rsatadi. Biroq, salbiy ta'sirlar ham jiddiy e'tiborni talab qiladi. "COMPAS" misoli SI ning noto'g'ri dasturlanishi jamiyattdagi tengsizlikni qanday chuqurlashtirishini ko'rsatadi (Sandel, 2020). "Cambridge Analytica" hodisasi esa SI ning maxfiylik va erkin irodaga tahdidini ochib beradi. Bostrom (2014) ta'kidlaganidek, nazoratsiz SI superintellektga aylansa, insoniyat uchun ekzistensial xavf tug'dirishi mumkin. Searle (1984) SI ning haqiqiy axloqiy mulohaza yurita olmasligini aytishi bu xavfni yanada murakkablashtiradi – agar SI faqat sintaktik qoidalarga tayansa, uning qarorlari axloqiy jihatdan ishonchli bo'lmasligi mumkin. Harbiy sohada SI ning qo'llanilishi (masalan, "Kargu-2") eng jiddiy muammolardan biri bo'lib, inson hayotiga hurmat tamoyilini buzadi. Bu holatda mas'uliyatni aniqlash imkonsiz bo'lib qoladi, bu esa axloqiy bo'shliqqa olib keladi (Floridi, 2021). Shu sababli, SI rivojlanishida axloqiy me'yorlarni qo'llash zarur. Yevropa Ittifoqining "Ethics Guidelines for Trustworthy AI" (2019) hujjati shaffoflik,adolat va hisobdorlikni ta'minlashni taklif qiladi. O'zbekistonda esa PQ-358 (2024) qarori SI ning axloqiy va ijtimoiy jihatlarini hisobga olgan holda rivojlanishini targ'ib qiladi.

Kelajakda SI ning ta'sirini optimallashtirish uchun quydagilarni amalga oshirish darkor:

- 1.Algoritmlarda tarafkashlikni bartaraf etish uchun xilma-xil ma'lumotlardan foydalanish.
- 2.Maxfiylikni himoya qilish uchun qonunchilikni kuchaytirish.
- 3.Jamiyatni SI rivojlanishiga jalg qilib, axloqiy muhokamalarni kengaytirish.

Tadqiqot uchun miqdoriy ma'lumotlar

Xulosa

Sun'iy intellekt inson axloqiga ijobiy (adolat, empatiya, mas'uliyat) va salbiy (adolatsizlik, maxfiylik buzilishi, mas'uliyat yo'qligi) ta'sir ko'rsatadi. Uning insonga nafini oshirish va zararni kamaytirish uchun axloqiy me'yorlar, shaffof dasturlash va global hamkorlik zarur. O'zbekiston kabi davlatlarda SI rivojlanishi mahalliy qadriyatlarni hisobga olgan holda olib borilishi muhim.

Ilmiy adabiyot va manbalar ro'yxati:

1. Kitoblar

1. Nick Bostrom. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. "Oxford University Press" nashriyoti, 2014. Tavsif: Bu kitobda SI ning kelajakdagi rivojlanishi, uning axloqiy xavf-xatarlari va insoniyat uchun oqibatlari chuhur tahlil qilinadi. Bostrom SI ning axloqqa salbiy va ijobjiy ta'sirini muhokama qiladi.
2. Luciano Floridi. The Ethics of Artificial Intelligence. "Oxford University Press" nashriyoti, 2021. Tavsif: Italiyalik faylasuf Floridi SI ning axloqiy asoslari, maxfiylik va adolat masalalarini o'rGANADI. Bu kitob Yevropa nuqtai nazaridan SI etikasiga bag'ishlangan.
3. Michael Sandel. The Tyranny of Merit: What's Become of the Common Good? "Farrar, Straus and Giroux" nashriyoti, 2020. Tavsif: Garchi kitob to'g'ridan-to'g'ri SI ga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, Sandel texnologik rivojlanishning ijtimoiy adolat va axloqqa ta'sirini muhokama qiladi, bu SI kontekstida ham dolzarb.
4. John Searle. Minds, Brains, and Science. "Harvard University Press" nashriyoti, 1984. Tavsif: Searle SI ning insoniy ongni takrorlay olish qobiliyatiga skeptik qarashini bayon qiladi, bu esa axloqiy mulohazalar uchun muhim.

2. Ilmiy maqolalar

1. Floridi, L. (2019). "What the Near Future of Artificial Intelligence Could Be." *Philosophy & Technology*, 32(1), 1-15. Tavsif: maqolada SI ning yaqin kelajakda axloqiy muammolarni qanday keltirib chiqarishi va uni qanday boshqarish mumkinligi haqida fikr yuritiladi.
2. Bostrom, N., & Yudkowsky, E. (2014). "The Ethics of Artificial Intelligence." Cambridge Handbook of Artificial Intelligence. Tavsif: ushbu maqola SI ning axloqiy xavf-xatarlari va uni nazorat qilish strategiyalarini muhokama qiladi.
3. Otaqulov, O., Pulatova, G., & Pulatov, G. (2021). "Sun'iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni." CyberLeninka. Tavsif: O'zbek tilidagi ushbu maqola SI ning tarixi va inson hayotidagi o'rnini, shu jumladan axloqiy jihatlarni ko'rib chiqadi.
4. Axmadova, G. J. (2024). "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish." CyberLeninka. Tavsif: O'zbekistonda SI ni rivojlantirish va uning axloqiy-huquqiy jihatlarini tartibga solishga

oid ilmiy maqola.

3. Hujjatlar va strategiyalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-son qarori. Manba: lex.uz// Tavsif: ushbu hujjat O'zbekistonda SI rivojlanishi, shu jumladan axloqiy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda strategik maqsadlarni belgilaydi.
2. Yevropa Ittifoqining "Ethics Guidelines for Trustworthy AI" (2019). Manba: ec.europa.eu// Tavsif: Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu qo'llanma SI ning axloqiy asoslari, shaffoflik va adolat masalalarini tartibga soladi.

4. Internet manbalari

1. UNESCO – "Artificial Intelligence and Ethics". Manba: unesco.org// Tavsif: UNESCO saytida SI ning axloqiy muammolari, global qadimiyatlar va inson huquqlari nuqtai nazaridan tahlillar mavjud.
2. Stanford Encyclopedia of Philosophy – "Ethics of Artificial Intelligence and Robotics". Manba: plato.stanford.edu// Tavsif: SI etikasi bo'yicha keng qamrovli maqola, amerikalik va yevropalik faylasuflarning qarashlari bilan.

5. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Laptev, V. A. (2019). "Sun'iy intellekt tushunchasi va uning ishi uchun huquqiy javobgarlik". "Qonun. Oliy iqtisodiyot maktabi" jurnali, №2, 83-90. Tavsif: rus tilidagi maqola SI ning huquqiy va axloqiy mas'uliyatini o'rGANADI.
2. Pardayeva D. N., Niyozov F. X., & Xushboqov, I. U. (2022). "Sun'iy intellekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o'rni". Manba: Ilmiy nashrlar mavjud bo'lgan mahalliy kutubxonalar yoki onlayn platformalar// Tavsif: O'zbek tilida SI ning axloqiy ta'siriga oid umumiylar ma'lumotlar.

PULSE

Scientific Journal

**APPLY FOR THE NEXT ISSUE AT
WWW.PULSE.UZ**

